

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**“NUTQIDA KAMCHILIGI BO‘LGAN BOLALARNING
PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK DIAGNOSTIKASI”
MODULI BO‘YICHA**

O‘QUV–USLUBIY MAJMUA

Buxoro – 2024

Mazkur o'quv uslubiy majmua Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi buyrug'i bilan tasdiqlangan oliy ta'lim muassalarining maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, filologiya va psixologiya ta'lim yo'nalishlarini bitirgan mutaxassislar **defektologiya(logopediya)** kasbiy qayta tayyorlash 5 oylik kursining Namunaviy o'quv reja va dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

O'quv uslubiy majmua Buxoro davlat universiteti Kengashining 2024 yil 30-avgustdagi 1– sonli yig'lish qarori bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchi: U.A.Qosimov-Buxoro viloyati PYaMO`MM “Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari” kafedrası mudiri ps.f.n., dotsent

Taqrizchilar: O.Xafizov- Buxoro viloyati psixologiya tashxis markazi rahbari.

G.Muqimova- Buxoro viloyati PYaMO`MM “Tillar” kafedrası mudiri, Ph.D

**O'quv -uslubiy majmua Buxoro davlat universiteti Ilmiy Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2024 yil 30-avgustdagi 1– sonli bayonnoma)**

MUNDARIJA

I. Ishchi dastur.....	5
II.Modulni o‘qitishda foydalaniladigan interfaol ta'lim metodlar.....	11
III. Nazariy mashg‘ulot materiallari.....	17
IV. Keyslar banki.....	55
V.Mustaqil ta'lim mavzulari.....	66
VI.Glossariy.....	68
VII. Adabiyotlar ro‘yxat.....	74

Ishchi dastur

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2707-sonli qarori (29.12.2016 y.) «Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3276-sonli qarori (15.09.2017y). «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3261 -sonli qarori (09.09.2017 y) «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi PQ-3305-sonli qarori (30.09.2017 y.) «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» PF-5198-sonli Farmoni (30.09.2017 y.) qabul qilindi.

Ishchi o'quv majmua dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ 637-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 22-dekabr dagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-avgustdagi "Reabilitatsiya markaziga ega bo'lgan davlat ixtisoslashtirilgan ko'p tarmoqli maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 510-sonli Qarori, Maktabgacha ta'lim vazirligining 2021-yil 12-iyuldagi "Maktabgacha ta'lim tizimida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi 128-sonli buyrug'i, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta'lim Agentligining 2023-yil 28-avgustdagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 99-sonli Buyrug'i, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta'lim Agentligining 2023-yil 9-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta'lim agentligi tizimi xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini tasdiqlash to'g'risida"gi 124-sonli Buyrug'idagi vazifalarni ijrosini ta'minlash asosida ishlab chiqilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarining maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishining individual inklyuziv variantlari, maktabgacha yoshdagi nutqida nuqsoni bor bolalar xulqi motivlari, tortinchoqlik va uning ijobiy tomonlari, ular hayotida o'yin faoliyatining ahamiyati, ularning psixologik xususiyatlari to'g'risida bilim, malaka va ko'nikmalarni chuqurlashtirish, yangilash modulning maqsadi hisoblanadi. Shu bilan birga pedagogik kadrlarni tayyorlash tizimi, xususan defektologiya sohasi ham bundan istisno emas. Har bir bolani uning rivojlanishida nuqsonlar kuzatilgan taqdirda maktabgacha yoshdanoq ta'lim shaklini to'g'ri tanlash, yakka ta'sir vositalarini aniqlash uchun chuqur psixologik-pedagogik o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, hozirgi zamon maxsus pedagogika va psixologiyasida bolalarning rivojlanishidagi buzilishlarni, nuqsonlarni erta aniqlash va ularni bartaraf etishning zarurligi haqidagi fikrlar ta'kidlanmoqda.

Bunda alohida ahamiyat maktabgacha ta'lim muassasalari defektologlari, logopedlari bu toifadagi bolalar bilan ishlashga tayyorlash, ularda ta'lim jarayonida yuzaga keladigan va kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni to'g'ri va o'z vaqtida aniqlash hamda zarur bo'lgan psixologik-pedagogik yordamni ko'rsatish ishlarini bilishlari muhimdir.

Bolalarning xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ularga maqbul bo'lgan ta'lim turini tanlash, ota-onalarga maslahatlar berishishlarini maqsadga yo'naltirilgan va malakali ravishda olib borish zarur. Shularga bog'liq ravishda psixik va jismoniy rivojlanishida, xususan nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarni differensial psixologik-pedagogik tashxis qilish ko'p jihatdan defektolog – kadrlarni, logopedlarni sifatli qilib tayyorlash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Shunga bog'liq ravishda kasbiy qayta tayyorlash o'quv rejasiga "Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarning psixologik-pedagogik diagnostikasi" fani kiritilgan. Bu fan o'zida rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarni psixologik-pedagogik o'rganish masalalarini qamrab olgan.

Ishchi o'quv dasturda har bir mavzularning murakkablik darajasiga qarab, bu mavzularni amaliy mashg'ulotlarda kengroq muhokama etish belgilab qo'yilgan. Shuningdek, amaliy mashg'ulotlarda maktabgacha ta'lim muassasi tarbiyachilari, amaliyotchi psixologlar faoliyatida zarur bo'ladigan rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarni psixologik-pedagogik o'rganish psixodiagnostik metodikalar bilan tamishtirish maqsad qilib belgilangan.

O'quv moduli tinglovchini maktabgacha ta'lim tashkilotida psixologik faoliyatni samarali tashkil etish va boshkarishga yordam beradi.

Ushbu o'quv modulida tinglovchining o'quv yuklamasi: 22 soat bo'lib, shundan:

Nazariy- 8 soat;

Amaliy mashg'ulot-10 soat;

II.MODULNING NOMI MAQSADI VA VAZIFALARI:

2.1.Modulning nomi: “Nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalarning psixologik-pedagogik diagnostikasi”

2.2.Modulning maqsadi: tinglovchilarni bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni, buzilishlarini psixologik-pedagogik tomondan o‘rganishning metodologiyasi va amaliyoti bilan tanishtirishdan iborat.

2.3.Modulning vazifalari: tinglovchilarni bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni, buzilishlarning psixodiagnostikasimasalalari bo‘yicha nazariy tayyorgarlik bilan ta'minlash; tinglovchilarda bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni o‘z vaqtida aniqlashning amaliy malakalarini shakllantirish; bolalarda mavjud bo‘lgan nuqsonlarni e'tiborga olgan holda ularni psixologik va pedagogik o‘rganish, tekshirish malakalarini shakllantirish; maktabgacha ta'lim muassasalarini komplektlash masalalari bo‘yicha me'yoriy va amaliy materiallarni o‘rganishni ta'minlash.

2.4.Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikma, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

Tinglovchi:-psixodiagnostik jarayonning nazariy-metodologik asoslari, rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘rganishni tashkil etish va metodik ta'minlashga zamonaviy yondoshishlar, asosiy psixodiagnostik metodikalar va tahlil qilish yo‘llari, rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda psixik jarayonlarning rivojlanishini tashxis qilish, maxsus ta'lim muassasalariga bolalarni saralash tizimini ***bilishi;***

-bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni aniqlay olish, turli nuqsonga ega bo‘lgan bolalarni psixologik-pedagogik o‘rganishni, tekshirishni o‘tkazish, psixologik-pedagogik tashxis asosida korreksion ish yo‘llarini aniqlash, ta'limning tashkiliy formalari masalasini malakali hal qilish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.***

-tibbiy va pedagogik hujjatlarni tahlil qilish asosida bolalarni tekshirish rejasini tuzish, tekshirish metodlarini tanlash, bolalar bilan aloqaga kirishish, tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya ishini tashkil etish, bolalarni psixologik-pedagogik, logopedik jihatdan tekshirish va xulosa chiqarish ***malakalariga ega bo‘lishi lozim.***

-maktabgacha ta'limning kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiyalash jarayonida faol ishtirok etish;

-ta'lim-tarbiya jarayonlariga milliy manfaat nuqtai nazaridan normativ-huquqiy hujjatlar asosida xulosalar chiqara olish ***kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim.***

2.5.Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarning psixologik-pedagogik diagnostikasi moduli nazariy va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi. Nazariy mashg'ulotlarda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni pedagogik-psixologik o'rganishning nazariy-metodologik asoslari, tibbiy- psixologik-pedagogik komissiya ishining faoliyati va mazmuni, komissiyani tashkil etish yo'llari, bolalarni psixologik-pedagogik tashxis qilish metodlari bilan tanishtirishdan iborat. Mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, "Aqliy hujum", "Davra suhbat" yoki "FSMU" kabi metodlari bilan ishlash va boshqa interaktiv ta'lim usullaridan foydalanish nazarda tutiladi.

2.6. Modulning o'quv rejadagi boshqa bloklar bilan bog'liqligi va uzviyligi

Modul mazmuni o'quv rejadagi "Maxsus pedagogika", "Maxsus psixologiya", "Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning klinik asoslari" modullari bilan uzviy bog'langan holda logopedlarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini o'ttirishga xizmat qiladi

2.7.Modulning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Mazkur modul o'quv rejasida rejalashtirilgan maxsus pedagogika, maxsus psixologiya, bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning klinik asoslari, logopsixologiya fanlaridan keyin o'rganiladi va mazkur fanlardan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi. Unda keyin o'rganiladigan fanlarning mazmun yo'nalishlarni va g'oyaviy jihatlarini maktabgacha ta'limga tatbiq etish imkoniyatlarni ochib beradi.

2.8.Modulning ta'limdagi o'rni

Tinglovchilarga nutqida kamchiligi bo'lgan bolani tarbiyalash, o'qitish va ijtimoiy moslashuvining samarali bo'lishi uning imkoniyatlarini va rivojlanish xususiyatlarini to'g'ri baholashga bog'liq bo'ladi. Bu vazifani rivojlanishdagi nuqsonlarni kompleks psixologo-pedagogik tashxis qilish amalga oshiradi. Rivojlanishdagi nuqsonlarni psixologo-pedagogik tashxis qilish bolaning o'ziga xos xususiyatlarini, unga mos bo'lgan ta'lim yo'nalishini, korreksiyalash, kompensatsiyalash yo'llarini aniqlashga imkon beradi.

Shuning uchun ushbu fan mutaxassislik bo'yicha tayyorgarlik fani hisoblanib, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalash tizimining ajralmas bo'g'inidir.

2.9.Modul bo'yicha soatlar taqsimoti:

№	Fan mavzulari	Jami	Jami o'quv yuklamasi	Jumladan			Mustaqil ta'lim
				nazariy	amaliy	ko'chma mashg'ulot	
1.	Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni psixologo-pedagogik tashxis kilishning nazariy-metodologik tamoyillari	4	4	2	2	-	-
2.	Ilk yoshdagi rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni pedagogik-psixologik o'rganish	8	6	2	2	2	2
3.	Maktabgacha yoshdagi rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni pedagogik-psixologik o'rganish	8	6	2	2	2	2
4.	Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni nazariy va amaliy logopedik tekshirish	8	6	2	2	-	2
5.	Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni logopedik tekshirish amaliyoti	2	-	-	2	-	-
Jami		28	22	8	10	4	6

III. MODUL BIRLIGINING MAZMUNI

3.1.Nazariy mashg'ulotlar mazmuni

1-mavzu: Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni psixologo- pedagogik tashhis qilishning nazariy-metodologik tamoyillari (2 soat nazariy)

Bolalarning rivojlanishidagi nuqsonlar haqidagi zamonaviy tasavvurlar. Bolalarning rivojlanishidagi nuqsonlarini psixologik- pedagogik tashxis qilishning metodologik tamoyillari. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni psixologo-pedagogik tashxis qilish vazifalari.

Psixik va jismoniy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarini to'g'ri komplektlashning ijtimoiy, axloqiy va iqtisodiy ahamiyati. Psixik va jismoniy nuqsonga ega bo'lgan bolalarni maxsus muassasalarga qamrab olish. Inklyuziv ta'limga jalb qilish. Kompleks tekshirish tamoyili. Har tomonlama va yaxlitlik tamoyili, dinamik tekshirish tamoyili, bolani o'rganishda individual yondashish tamoyili, bajarilayotgan topshiriqlarni baholashda sifat-sonli yondoshish tamoyili, bolaning potensial imkoniyatlarini

aniqlash va e'tiborga olish tamoyili, tizimli yondoshuv tamoyili, erta tashxis qilish tamoyili.

2-mavzu: Ilk yoshdagi rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni pedagogik-psixologik o'rganish *(2 soat nazariy)*

Go'daklik davrida psixologik-pedagogik o'rganish. Rivojlanish ususiyatlari. Go'daklik davrida bolalarni psixologik-pedagogik o'rganish.

Ilk yoshdagi (1-3 yosh) bolalarni psixologik-pedagogik o'rganish. Rivojlanish xususiyatlari. Ilk yoshdagi (1-3 yosh) davrida bolalarni psixologik-pedagogik o'rganish.

3-mavzu: Maktabgacha yoshdagi rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni pedagogik-psixologik o'rganish *(2 soat nazariy)*

Maktabgacha yoshdagi rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni psixologik-pedagogik o'rganish (3-7 yoshgacha).

Maktabgacha yoshdagi rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar rivojlanish xususiyatlari.

4-mavzu: Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni nazariy va amaliy logopedik tekshirish *(2 soat nazariy)*

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni og'zaki nutqni tekshirish nazariyalari. Bog'langan nutqini baholash mezonlari. So'z boyligini baholashning mezonlari. Nutqning grammatik tuzilishini baholash mezonlari. Nutqning rivojlanmay qolganligidagi grammatik xatolar. Nutqi rivojlanmagan bolalarda so'zning bo'g'in tuzilishidagi xatoliklari. Duduqlanuvchi bolalar nutqini o'rganish va tekshirish. Dizartrik bolalar nutqini o'rganish va tekshirish.

3.2. Amaliy mashg'ulotlar

1-mavzu: Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni psixologo-pedagogik tashxis qilishning nazariy-metodologik tamoyillari *(2 soat amaliy)*

Bolalarning rivojlanishidagi nuqsonlarini psixologik-pedagogik tashxis qilishning metodologik tamoyillari. Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni psixologo-pedagogik tashxis qilish vazifalari. Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni psixologo-pedagogik tashxis qilish ishlari

2-mavzu: Ilk yoshdagi rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni pedagogik-psixologik o'rganish *(2 soat amaliy)*

Rivojlanish ususiyatlari. Go'daklik davrida bolalarni psixologik-pedagogik o'rganish. Ilk yoshdagi (1-3 yosh) bolalarni psixologik-pedagogik o'rganish.

3-mavzu: Maktabgacha yoshdagi rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni pedagogik-psixologik o'rganish (2 soat amaliy)

Maktabgacha yoshdagi rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni psixologik-pedagogik o'rganish (3-7 yoshgacha).

4-mavzu: Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni nazariy va amaliy logopedik tekshirish (2 soat amaliy)

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni og'zaki nutqni tekshirish. Dudaqlanuvchi bolalar nutqini tekshirish. Dizartrik bolalar nutqini tekshirish.

5-mavzu: Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni logopedik tekshirish amaliyoti (2 soat amaliy)

Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni logopedik tekshirish amaliyotida qo'llaniladigan metodlar, mashg'ulotlar, treninglar va psixodagnostik testlar.

3.3. Ko'chma mashg'ulotlar

2-mavzu: Ilk yoshdagi rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni pedagogik-psixologik o'rganish (2 soat ko'chma)

3-mavzu: Maktabgacha yoshdagi rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni pedagogik-psixologik o'rganish (2 soat ko'chma)

3.4. Mustaqil ta'lim mazmuni

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni Tinglovchi mustaqil ishni muayyan modulni xususiyatlarini hisobga olgan xolda quyidagi shakllardan foydalanib tayyorlashi tavsiya etiladi:

- me'yoriy xujjatlardan, o'quv va ilmiy adabiyotlardan foydalanish asosida modul mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha modul mavzulari ustida ishlash;
- tinglovchining kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan modul mavzularni chuqur o'rganish.

Mustaqil ta'lim mavzulari:

2-mavzu: Ilk yoshdagi rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni pedagogik-psixologik o'rganish (2 soat mustaqil)

3-mavzu: Maktabgacha yoshdagi rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni pedagogik-psixologik o'rganish (2 soat mustaqil)

4-mavzu: Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni nazariy va amaliy logopedik tekshirish (2 soat mustaqil)

IV.O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- psixodiagnostik testlar, treninglar, couching, topshiriqlar qo‘llanilishi (ko‘rilayotgan topshiriqlar psixodiagnostik testlar yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (topshiriqlar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

V. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ 637-sonli Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi 2019-yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595-sonli Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonuni. 2016.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi
5. «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-son Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi. PF-5198-sonli Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvardagi «2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida»gi PF-5308 sonli Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2707-sonli qarori. 2016 yil.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3261- sonli qarori. 2017 yil.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 sentyabrdagi «Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3276-sonli Qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30 sentyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi PQ-3305-sonli Qarori.
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017 yil 19 iyuldagi «Maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi 528-sonli Qarori.
13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017 yil 21 noyabrdagi «Maktabgacha ta’lim vazirligi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 929-sonli Qarori
14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017 yil 18 dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi va uning tizimidagi muassasalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi 991-sonli Qarori.
15. Mirziyoev Sh.M. «Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz» mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: O‘zbekiston, 2016.
16. Mirziyoev Sh.M. «Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi» mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. – T.: O‘zbekiston, 2017.
17. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston. – 2017.
18. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017.
19. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017.
20. Mirziyoev Sh.M. «Konstitutsiya– erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir» mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi.
21. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22 dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya’ning Davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 802-sonli qarori

- 22.O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta'lim Agentligining 2023-yil 28-avgustdagi “Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 99-sonli buyrug‘i.
- 23.O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta'lim Agentligining 2023-yil 9-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta'lim agentligi tizimi xodimlari asosiy lavozimtarining malaka tavsiflarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 124-sonli Buyrug‘i.
- 24.UNICEF, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi-O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr)- Grosheva I.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Yevstafyeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F Toshkent-2022 y, 96 bet
- 25.Anne Anastasi, Susana Urbina. Psychology Testing.-Prentice-Hall International, Inc.2000.
- 26.Elizabeth A. Styles. The psychology of attention. This edition published in
- 27.The Taylor & Francis e-Library, 2005.
- 28.Mayers D.G. Psychology. Ninth Edition. – Worth Publishers, 2010.
- 29.Schiffman H.R. Sensation and Perception: An Integrated Approach. 5th Edition. – John Wiley & Sons, 2001.
- 30.The Cambridge Handbook of Personality Psychology// Edited by Philip J. Corr. Cambridge University Press 2009
- 31.Sodiqov B «Deviant xulqli bolalar psixologiyasi», Termiz 2010 yil 26.
- 32.Zaxarov V.P., Xryasheva N.Yu. Sotsialno- psixologicheskiy trening. L. 1990 g
- 33.G‘oziev E «Psixologiya» Toshkent, «O‘qituvchi», 2006 yil.
- 34.G‘oziev E.Ontogenez psixologiyasi. T.,2010.
- 35.Jalilova S.,Aripova S. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar
- 36.psixologiyasi. T., 2013.
- 37.Adizova T.M. Bolalarning shaxslararo munosabatlari psixologik
- 38.diagnostikasi va korreksion ishlar. –T., 2005 y.
- 39.Do‘stmuhammedova Sh.A., Nishanova Z.T.,Jalilova S.X. Yosh davrlari va
- 40.pedagogik psixologiya. – T., 2013 y.
- 41.Rogov E.I. Nastolnaya kniga prakticheskogo psixologa.T.1-2.–M.,2009g.
- 42.Abramova G.S. Vozrastnaya psixologiya. Moskva, «Akademicheskiiy proekt», Moskva, 2011.
- 43.Akimova M.K., K.M.Gurevich. Psixologicheskaya diagnostika. Moskva, 2005.
- 44.Bleyxer V.M., Burlachuk L.F. Psixologicheskaya diagnostika intellekta i lichnosti, - Kiev, Vysshaya shkola, 1978, 142 str
- 45.Rahimov Sh. Asosiy vazifa – bolalarni ta'limga qamrab olish / Maktabgacha ta'lim. -Toshkent, 3-son, 2017. 2-3-b.

- 46.Rasulov A. “Psixodiagnostika”. Tashkent, 2014.
- 47.Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Pod redaksiyey I.Yu.Levchenko i S.D.Zabramnoy. M., ACADEMA, 2005 g.
- 48.John W. Jacobson, James A. Mulick and Johannes Rojahn. Intellektual and
- 49.Developmental Disabilities.2007 Springer Science+Business Media, LLC New York.
- 50.Raxmanova V.S., Nurkeldieva D.A. Alohida yordamga muxtoj bolalar
- 51.ijtimoiy rehabilitatsiyasi. T.: RBIMM, 2014 y.
- 52.Muminova L.R., Chicherina Ya.ye., Nurkeldieva D.A. Diagnostika
- 53.psixofizicheskogo razvitiya detey pervyx trex let jizni. T.: RSSAD, 2007g.

<http://www.edu.uz>–O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi sayti.

<http://www.uzedu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti.

www.mdo.uz – O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi sayti.

<http://www.president.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti portali.

<http://www.gov.uz>– O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali.

<http://www.lex.uz>– O‘zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi sayti.

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni psixologo- pedagogik tashxis qilishning nazariy-metodologik tamoyillari(2 soat)
Reja

- 1.1 Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlar haqida zamonaviy tasavvurlar
- 1.2 Bolalarning rivojlanishidagi nuqsonlarini psixologik-pedagogik tashxis qilishning metodologik tamoyillari.
- 1.3 Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni psixologo-pedagogik tashxis qilish vazifalari

Tayanch iboralar: skrining tashxis, rivojlanishdagi nuqsonlarni differensial tashxis qilish, fenomenologik, kompleks o'rganish, erta tashxis.

1.1. Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlar haqida zamonaviy tasavvurlar

Zamonaviy maxsus psixologiya psixikani kelib chiqishining ijtimoiy tarixiy tomoniga asoslanadi. Uning rivojlanishiga bolapsixikasini madaniy-tarixiy tajribaga tayanib hayot davomida shakllanishi haqidagi rus psixologi L.S.Vigotskiy fikrlari katta ta'sir ko'rsatgan.

L.S.Vigotskiyning ko'rsatishicha oliy psixik funksiyalar tarixiy rivojlanish mahsuli bo'lib murakkab tuzilishga ega. Ushbu xususiyat ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, u insondagi faqatgina oliy psixiy funksiyalarnigina emas, balki elementar psixik jarayonlarni, ya'ni fonematik eshituv, ovozlarni eshituvlarni va xokazolarni o'z ichiga oladi. Psixik faoliyatning murakkab shakllarini yuzaga kelishiga olib keladigan ijtimoiy tajribani tayyor mazmunni o'zlashtirib olish jarayoni sifatida qarash mumkin emas. Bola tomonidan ijtimoiy tajribani o'zlashtirish bilim, ko'nikma, madaniy madaniy malakalarni egallab olishdangina iborat bo'lmay, shuningdek o'ziga bolaning shaxsi, ehtiyojlari, motivlarini shakllantirishni kiritadigan chuqur, murakkab jarayondir. Ijtimoiy tajribani egallash bolaning faol faoliyatida, ya'ni—predmetli, o'quv, muloqot va o'yin jarayonlarida amalga oshiriladi. Ilk rivojlanish davrilaridayoq bolalarni kattalar bilan o'zaro muloqatga kirishishida oliy psixik funksiyalarining shakllanishi muhim o'rin egallaydi. Psixik funksiyalarning rivojlanishi bir nechta bosqichlardan o'tadi, va shundan keyingina ular murakkab psixik jarayonga aylanadi. Psixik faoliyatning barcha murakkab shakllari (ixtiyoriy diqqat, mantiqiy xotira, mavxum tafakkur va h.q.)bilvosita tuzilishga ega bo'lib, unda nutq bosh rolda keladi. Predmet va

xodisalar mavjud emas vaqtda ham ularni o'rnini so'z egallaydi va har qanday psixologik jaryonni kechishini ifodalab, uning tuzilishini bir qismi bo'lib qoladi. Nutq oliy psixik funksiyalarning tuzilishi va amalga oshirishini yangi, yana ham yuqori darajaga ko'taradi. Oliy psixik funksiyalarni shakllanishing muhim tomoni-simvolik (ramziy) ramziy faoliyatning tashkil topishi, so'z belgilarni egallashdir.

Dastavval belgi tashqi, yordamchi omil sifatida qatnashadi. L.S.Vigotskiy ta'qidlashicha, har bir psixik funksiya o'z rivojlanishida ikki bosqichni bosib o'tadi: birinchi "interpsixologik" bosqichda, funksiya insonlar o'rtasida munosabat o'rnatuvchi, ikkinchi bosqichda-ichki, intrapsixologik, jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Oliy psixik funksiyalar yillar davomida shakllanadi. U nutqiy muloqot bilan tug'ilib, faoliyatning to'liq ramzi (simvolik faoliyat) bilan tugallanadi. Bolaning psixik rivojlanishi va shaxsini shakllanishi ta'lim va tarbiya jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir. Shunday qilib, oliy psixik funksiyalar psixologiyada murakkab jarayon sifatida ko'riladi. Oliy psixik funksiyalarni shakllanishida nutq hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Psixofiziologik mexanizmlarni tushuntirish uchun P.K.Anoxinning funksional tizimlar haqidagi konsepsiyasi qo'llaniladi. A.R. Luriyaning ko'rsatishicha, funksional tizim bolani tug'ilish davrida tayyor holda bo'lmasdan, balki uning psixik funksiyalari predmetlar hamda materiallar bilan o'zaro munosabatga kirishganida shakllanib boradi.

Funksional tizim - bu bir vazifani bajarish uchun bir qancha anatomik hamda fiziologik tuzilmalarni birlashtiradigan dinamik tuzilma bo'lib, turli nerv sistemalarida joylashgan. Psixologlar (A.R.Luriya, A.N.Leontev)doimiy ravishda oliy psixik funksiyalarning fiziologik negizi markaziy nerv sistemasi yoki uning alohida qismlari bo'lib qolmasdan, balki miya qobig'idagi funksional sistemaning birgalikda ishlashi deb ta'kidlaganlar. Bola hayot faoliyati jarayonida ushbu funksional sistemaning shakllanishi, sekin-astalik bilan murakkab xarakterga ega bo'lib, funksional bog'liqlik mustaxkamlanadi. Ushbu ilmiy nizominson psixikasini rivojlanishi haqidagi tasavvurlarni o'zgartirdi. Fiziolog va psixologlarning tadqiqotlaridan ko'rishimiz mumkinki, alohida funksiyalar sistemasining yetilganligi ma'lum bir rivojlanish davrida bir xil emas: ba'zi sistemalar shakllanib bo'lgan, ba'zilari esa endi shakllanadi. Shunga ko'ra, funksiyalarning rivojlanish tizimi bir xil emas ekan, deb xulosalash mumkin. Har bir funksional sistema, xatto alohida zonalar o'zining rivojlanish dasturiga ega, lekin ular bir butunlikda ish olib borishadi. Har bir yosh davrda ma'lum bir funksional sistema yetuklik darajasida bo'lishi kerak, aks holda ushbu sistemalar faoliyati o'zaro aloqadorlikda amalga oshirila olmaydi (L.O.Badalyan). Shunday qilib, psixik jarayonlar va shaxs xususiyatlari bosh miyaning alohida qism yoki zonalarida yetuklik natijasi hisoblanmaydi. Ular

ontogenezda to'planadi hamda bolaning ijtimoiy rivojlanish vaziyatiga bog'liq bo'ladi.

L.S.Vigotskiy o'zidan oldingilarni (G.Ya.Troshin, A.S.Griboedov, E.Segen, M.Montessori va boshqalar) ishlarini umumlashtirdi hamda anomal rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqdi.

Ushbu konsepsiyaning asosiga psixologik rivojlanishning madaniy-tarixiy nazariyasi kiradi, buni L.S.Vigotskiy rivojlanishning normal xususiyatlarini o'rganib ishlab chiqqan. L.S.Vigotskiyning anomal rivojlanish konsepsiyasining asosiy belgilari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ular XX asrning 50-90 yillardagi T.A.Vlasova, J.I.Shif, V.I.Lubovski, V.V.Lebedinskiy, ye.M.Mastyukova va boshqa olimlarning ishlarida o'z rivojini topgan.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar (rivojlanishida psixik- jismoniy kamchilikka ega, rivojlanishdan orqada qolish, rivojlanishida muammoga ega, alohida yordamga muhtoj) - sensor organlarning orttirilgan yoki tug'ma organik jarohatlanishi natijasida markaziy nerv sistemasi yoki harakat-tayanch apparati va psixik funksiyalarning me'yorda rivojlanishida kamchiliklarga ega bo'lgan bolalar kiradi. Ba'zi hollarda rivojlanishdagi kamchiliklar markaziy nerv sistemasi yoki analizatorlardagi nuqsonlar bilan bog'liq bo'lmasdan, mikroijtimoiy muhit sabablari natijasida kelib chiqadi. Bularga oiladagi tarbiya salbiy shakllari, ijtimoiy va hissiy deprivatsiyani kiritishimiz mumkin.

G.Ya.Troshin me'yorida va anomal rivojlanishning umumiy qonuniyatlari haqidagi fikrni ilgari surgan, buni esa ko'pgina tadqiqotchilarning (T.A.Vlasova, J.I.Shif, V.I.Lubovski) keyingi ishlarida ham ko'rishimiz mumkin. L.S.Vigotskiy me'yorida va anomal rivojlanishning umumiy qonuniyatlarini izohlab, ular uchun psixik rivojlanishning ijtimoiy xarakterdaligi umumiydir: pedagogik ta'sir me'yorda ham shuningdek rivojlanishning buzilishida ham oliy psixik funksiyalarning shakllanish manbai hisoblanadi, deb ta'kidlagan. Ammo, me'yorida rivojlanayotgan bolalarda kuzatilmaydigan, lekin rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarda uchraydigan bir qator qonuniyatlar ham ajratiladi. T.A.Vlasova, V.I.Lubovski ishlarida anomal rivojlanuvchilarning umumiy qonuniyatlari bir tizimga keltirilgan.

L.S.Vigotskiy nuqsonlarni tuzilishini sistemaliligi haqidagi fikrlari unga anomal rivojlanishini ko'ra ikki guruhga ajratish imkonini bergan. Bu kasallikning biologik xarakteriga ko'ra kelib chiqadigan **birlamchi nuqson**, bolaning ijtimoiy rivojlanishida, uning atrof-olam o'zaro munosabatlaridayuzaga keladigan **ikkilamchi nuqson**dir.

Anomal rivojlanish birlamchi nuqsonning kelib chiqish vaqti va uni ifodalanishining qay darajada og'irligi bilan aniqlanadi. Ikkilamchi nuqsonlarning shakllanish mexanizmi turli xil bo'lishi mumkin, ammo unda doimo ijtimoiy omillar muhim rol o'ynaydi. Ko'ruv, eshituv organlarining yoki bosh

miyaning u yoki bu tuzilmalaridagi jarohatlar natijasida kelib chiqadigan nuqsonlar xarakteri, chuqurligi bo'yicha turli toifadagi rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarda turlicha bo'ladi. Biroq ushbu holatlarning umumiy tomonishundaki, ularning barchasi bolani keyingi rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatib boradi.

Psixodiagnostik va psixologo-pedagogik kooreksion ta'sirning ob'ekti bo'lib asosan ikkilamchi nuqsonlar xisoblanadi. Bir qancha yetakchi mutaxassislarning ishlarida ko'rsatilishicha, bolalardagi birlamchi nuqsonlar aqliy qobiliyatning buzilishiga, umumiy va mayda motorikadagi kamchiliklarga, atrof-muhit bilan o'zaro aloqada bo'lishdagi qiyinchiliklarga, kommunikativ muloqot vositalarini o'zgarishiga, so'zlashuv nutqining yetarlicha bo'lmasligiga, atrof - muhitni idrok etishni qiyinlashishiga, ijtimoiy tajribani kambag'allashuviga olib kelishi mumkin ekan. Nuqsonlarning o'zaro ta'siri ijtimoiy muhit bilan ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklar tug'dirishini L.S.Vigotskiy ham ta'kidlagan.

J.I.Shifning ko'rsatishicha, anomal rivojlanishning yana bir qonuniyati bola shaxsining rivojlanishidagi o'zgarishlardir. Kayfiyatning yo'qligi, ijtimoiy muloqotga vahima, qo'rquv bilan kirishuv, o'z-o'ziga past baho berishi, xavotirda bo'lish kabilar ushbu shaxsning asosiy sifatlari hisoblanadi. Bunday buzilishlar oiladagi noto'g'ri tarbiya hamda ta'limning noto'g'ri tashkil etilishi oqibatida kelib chiqadi. Aloqa qobiliyatidagi o'zgarishlar bolalar so'zlashuv nutqini buzadi natijada noverbal aloqa vositalarining roli ko'payib boradi. Ma'lumotlarni qabul etish va ularni qayta ishlash qobiliyatidagi kamchiliklar V.I.Lubovskiy ta'kidlashicha, qabul etilayotgan ma'lumotlar hajm va tezligini susaytiradi, ma'lumotlarni saqlash va ulardan foydalanishga imkon bermaydi. Anomal rivojlanishning yana bir qonuniyatlaridan biri-nutqiy faoliyatning buzilishidir, bu so'zlashuvni bivosita ifodalay olmasligida namoyon bo'ladi.

Ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishlay olmaslik, muloqotdagi qiyinchiliklar, materiallarni eslab qola olmaslik rivojlanishning fikrlash, umumlashtirish va farqlash kabilarni shakllanishida to'sqinlik qiladi. Ushbu tasavvur va nutqdagi kamchiliklarning barchasi atrof - muhitni idrok etish, tasavvuridagi bilimlarini saqlash kabilarning shakllanishi ushbu muammoli bolalarda doimo yetarlicha emasdir. Biroq rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning muhitga moslashtirish va o'qitish qiyinchiliklaridan iborat o'ziga xos xususiyatlari bilan birgalikda, ijobiy qonuniyatlar ham mavjud. Ulardan biri L.S.Vigotskiy tomonidan rivojlanishning yaqin zonasi ko'rinishida nuqsonli bolalarda psixikasini shakllantirishning potensial imkoniyatlar sifatida mavjudligi qayd etilgan.

Yana bir konuniyat V.I.Lubovskiy tomonidan bolalar harakatlarini so'z orqali boshqarishni o'rganish davomida ifoda qilingan. Unutq ishtirokisiz yoki qisman so'z bilan ifodalovchi yangi shartli bog'liqlarni ishlab chiqish imkoniyatini

ko'rsatgan. Shunday qilib, nuqsonli rivojlanish psixikaning shakllanishida orqada qolishni ham va buzilishni kompensatsiya qilish konuniyatlarga ega.

Umumiy qonuniyatlardan tashqari o'ziga xos qonuniyatlar ham mavjud, ular rivojlanishida nuqsoni bo'lgan ba'zi bolalarga xosdir. Ushbu o'ziga xos qonuniyatlar bizga differensial diagnostik mezonlar orqali rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar toifalarini chegaralash mumkin. Biroq, V.I.Lubovskiy o'ziga xos qonuniyatlar umumiyga nisbatan kam o'rnatilganini e'tirof etgan. Bu bizga rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni differensial tashxis qilish murakkabligini asoslaydi.

Hozirgi paytda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bir qancha kategoriyalarga ajratilgan:

- eshitishda nuqsoni bo'lgan (kar va zaif eshituvchilar);
- ko'rishda nuqsoni bo'lgan (ko'r va zaif ko'ruvchilar);
- harakat-tayanch a'zolarida nuqsoni bo'lgan;
- og'ir nutq nuqsonlariga ega bo'lgan bolalar;
- psixik rivojlanishi orqada qolganlar;
- aqli zaiflar;
- hissiy-iroda doirasida og'ir nuqsonlarga ega bo'lgan bolalar;
- xulq buzilishlariga ega bo'lgan bolalar;
- rivojlanishda murakkab nuqsonlilar, ularda ikkita yoki undan ko'p birlamchi nuqsonlar kuzatiladi.

Har bir kategoriyadagi bolalar psixologo-pedagogik o'ziga xos xususiyatlarga ega, ularni psixologo-pedagogik o'rganishda strategiyalarni aniqlash zarur. Shunday qilib, birlamchi va ikkilamchi nuqsonlar natijasida anomal rivojlanishning shakllanishi murakkab sur'atga ega va u har bir bola uchun bir tomondan individual, ikkinchi tomondan unga o'xshash nuqsonlar bilan xarakterlanadi. Ushbu o'ziga xoslikrivojlanish nuqsonining har bir tipiga ta'luqli bo'lib, bolalardagi psixofizik xususiyatlarini inobatga olib, maxsus ta'lim sharoitlarini aniqlashga yordam beradi.

Shunday qilib, rivojlanishida nuqsoni bo'lganlarning zamonaviy psixodiagnostikasi nazariy metodologik tizimlar asosida tuziladi va ular quydagilar hisoblanadi.

Rivojlanish nuqsonlarining har bir turi o'ziga xos psixologik tuzilmaga ega. Bu tuzilma birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarni o'zaro bog'liqligi asosida aniqlanadi.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lganlarning har bir turida o'ziga xos nuqsonlar darajasining namoyon bo'lishi kuzatiladi. Rivojlanishdagi nuqsonlarni diagnostika qilish umumiy va o'ziga xos qonuniyatlar asosida tuziladi.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lganlarni diagnostika qilishda ularning umumiy xususiyatlariga tayanmasdan, balki boladagi ijobiy xususiyatlari va potensial imkoniyalariga tayanish zarur. Rivojlanishida nuqsoni bo'lganlarni diagnostika

qilish natijalari psixologik-pedagogik diagnostika orqali o'rnatiladi, u rivojlanish nuqsonining turi bilan chegaralanib qolmaydi. U bola rivojlanishining individual psixofizik xususiyatlari, shuningdek individual korreksion ish dasturlarga tavsiyalar ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Psixologo-pedagogik tashxis nuqsoning ifodalanish darajasini murakkablashtiruvchi yetakchi nuqsonlarni rivojlanishini aniqlab, ularga keraqli korreksion pedagogik ishga diqqatni qaratadi. Agar tekshiruv olani maktabga borishidan oldin o'tkazilsa, unda bolaning qaysi maktabga maxsus korreksion yoki umumta'lim maktabiga tayyorgarligi aniqlanadi.

Psixodiagnostika bola rivojlanishining nuqsonlarni va uning o'ziga xos psixologo-pedagogik xususiyatlarini aniqlaydi. Boladagi ushbu xususiyatlarni bilish bolaning imkoniyatlariga mos maktabgacha va maktab ta'lim dasturini, ta'lim muassasining turini, individual tibbiy psixologo-pedagogik dasturni ishlab chiqishga yordam beradi.

1.2 Bolalarning rivojlanishidagi nuqsonlarini psixologik- pedagogik tashxis qilishning metodologik tamoyillari

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga samarali ta'lim, tarbiya berish, ijtimoiy moslashuvini yaratish uchun uning rivojlanish imkoniyat va xususiyatlarini to'g'ri baholay olishga bog'liqdir. Bu vazifani rivojlanish nuqsonlarini kompleks psixologo-pedagogik diagnostika qilish orqali amalga oshirish mumkin. Psixologo-pedagogik diagnostika rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning kamchiliklarini aniqlash, bolaning psixik-jismoniy xususiyatlarini e'tiborga olgan holda unga individual psixologo-pedagogik yondashuvni ta'minlaydi.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus maktabgacha va maktab ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatadi. Ushbu bolalarni psixik va jismoniy rivojlanishini ta'minlovchi ta'lim sharoitlari yaratilgan. Bunday sharoitlar avvalo har bir bolaning xususiyatlari e'tiborga olgan xolda yakka yondashuvni talab etadi. Ushbu yondashuv maxsus dastur, metod, kerakli maxsus texnik vositalarni, maxsus tayyorgarlikka ega pedagog, psixolog, defektolog va boshqalar bilan birgalikda kerakli tibbiy - profilaktik hamda davolov tadbirlarini, maxsus ijtimoiy yordamni, maxsus ta'lim muassasalarini texnik va ilmiy-metodik jihatdan ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Hozirgi kunda turli xil maxsus ta'lim muassasalari mavjud. Bolalar puxta saralash natijasida qabul qilinishi mo'ljalangan va O'zbekiston respublikasi xalq ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan maxsus ta'lim dasturlarini amalga oshiradigan maxsus ta'lim muassasalar bilan bir qatorda turli reabilitatsiya markazlari, rivojlantirish markazlari, aralash guruhlar va h.q.lar ochilgan.

Shuningdek, umumta'lim maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumta'lim maktablarda psixik va jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni

uchratish mumkin. Ushbu nuqsonlarning ko‘rinishi turlicha bo‘lishi mumkin. Son jihatdan yirik bo‘lgan guruhni harakatlanish, sensor yoki intellektual sohalarda nuqsonlari aniq ifodalanmagan: eshitishda, ko‘rishda, fazoviy-idroq tassavurlarida, harakat-tayanch apparatida, fonematik idrokida nuqsoni bo‘lgan, hissiy-irodaviy buzilishli, nutqiy rivojlanishida kamchiliklarga ega, xulq buzilishlariga ega, psixik rivojlanishi orqada qolgan, somatik sust bolalar tashkil etadi. Yaqqol ifodalangan psixik yoki jismoniy rivojlanishdagi nuqsonlar maktabgacha yoshda aniqlansa, yengil nuqsonlar uzoq vaqt mobaynida e’tiborsiz qoladi. Rivojlanishdagi nuqsonlarni tashxis qilish uch bosqichni o‘z ichiga oladi.

Birinch **bosqich** - skrining nomini olgan. Ushbu bosqichda bola rivojlanishidagi orqada qolish, psixik -jismoniy kamchiliklari aniqlanadi, lekin ularning xarakteri va chuqurligi belgilash murakkab bo‘ladi.

Ikkinchi bosqich – rivojlanishdagi nuqsonlarni differensial tashxis qilish. Ushbu bosqichning maqsadi rivojlanish nuqsonini turini (xil, toifasini) aniqlash. Uning natijalariga ko‘ra bolaning imkoniyat va xususiyatlarini hisobga olgan xolda, ularning ta’lim olishlari uchun ta’lim muassasasini turi va dasturi, optimal pedagogik yo‘llanmasi aniqlanadi. Psixologo-tibbiy-pedagogik komissiyaning faoliyati differensial diagnostikada yetakchi rolni egallaydi.

Uchinchi bosqich – fenomenologik. Uning maqsadi – bolaning individual xususiyatlari, ya’ni tafakkur faoliyatining xarakteristikasi, hissiy-iroda doirasi, ishchanlik qobiliyati, shaxsi o‘rganilib u bilan ishlash bo‘yicha korreksion-rivojlantiruvchi individual shart-sharoitni tashkillashtirishdir.

Rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan psixologo-pedagogik diagnostikani samarali amalga oshirish uchun “Rivojlanishdagi nuqson” tushunchasiga alohida e’tibor qaratish zarur.

Rivojlanishida nuqsoni bo‘lganlarni tashxis qilishda rus olimlari (L.S.Vigotskiy, V.I.Lubovski, S.D.Zabramnaya) tomonidan ko‘rsatilgan bir qancha tamoyillarga amal qilish muhim.

Rivojlanishida nuqsoni bo‘lganlarni tashxis qilishning asosiy tamoyillaridan biri bu – kompleks yondashuv bo‘lib unda bolani rivojlanish xususiyatlarini barcha kerakli mutaxassislar tomonidan (vrach, defektolog, psixolog) uning faqatgina bilim olish faoliyatinigina emas, balki xulki, hissiy irodasi, shuningdek ko‘ruv, eshituv, harakat doirasi, nevrologik statusi, somatik holatini har tomonlama tekshirib baholashdir. Bolani tibbiy hamda psixologo- pedagogik tekshirishlar tizimlilik asosida olib boriladi.

Tibbiy tekshiruv vrachlar (pediatr yoki terapevt, nevropatolog, bolalar psixiatri, oftalmolog, otolaringolog, zarur hollarda audiolog) tomonidan o‘tkaziladi. Bolani psixologo-pedagogik o‘rganish pedagog-defektolog va psixolog tomonidan amalga oshiriladi.

TPPKlar (tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya) maxsus (korreksion) muassasalarni komplektlash masalasini hal etishadi, hamda zarur bo'lganda maslahat-tashxis va korreksion yordam ko'rsatadi. TPPKga yordam so'rab alohida ta'lim va tibbiy idoralar ham, ota-ona, pedagog, o'smirlar o'zining tashabbusi bilan ham murojaat qilishga xaqlidir. O'z faoliyatida TPPK defektologiya sohasida ishlab chiqilgan tamoyillarga amal qiladi. Asosiy tamoyillardan biri - bu har bir bolaga o'z imkoniyatlarini maksimal darajada rivojlantirish uchun o'z vaqtida kerakli sharoitlarni tashkil etishdan iborat bo'lgan **insonparvarlik tamoyilidir**. Bu tamoyil bolani chuqur va diqqat bilan o'rganish, yo'lida uchraydigan qiyinchiliklarni bartaraf etishni talab etadi. Agar umuta'lim maktab sharoitida ko'rsatilgan barcha kerakli va mavjud bo'lgan choralar ijobiy natijalar bermasa, bolani maxsus muassasaga o'tkazish masalasi qo'yiladi va bunga ota-onalarning roziligi kerak bo'ladi.

Bajarilishi shart bo'lgan tamoyil – bu bolalarni **kompleks o'rganish tamoyilidir**.

Bu tamoyil muhokama paytida barcha mutaxassislar: vrachlar, defektologlar, psixologlar tomonidan tekshirish natijasida olingan ma'lumotlarni e'tiborga olishni shart deb belgilaydi.

Agar mutaxassislarning fikri turlicha bo'lsa, bolani yana bir bor tekshirish belgilanadi. Eng muhim masalalarni hal etishda bolaning manfaatlari birinchi o'rinda turish zarur. Ta'kidlash joizki, bolani o'rganishda ko'rsatilgan tamoyilga amal qilish uning holatini komissiyadan oldin aniqroq bilib olish, rivojlanishidagi nuqsonlar sabablarini aniqlab olish imkonini beradi. Misol uchun, pedagog birinchi bo'lib kuchayib borayotgan parishonlik, charchashlik, yig'loqilik alomatlariga e'tiborini qaratadi. Vrach esa o'z navbatida bu o'zgarishlarning sabablarini aniqlashga yordam beradi va ularni bartaraf etish uchun kerakli tavsiyalar beradi.

Har tomonlama va to'liq o'rganish tamoyili ham katta ahamiyatga ega. Bu tamoyillar bolaning bilish faoliyati, hissiy-idoraviy doirasi va xulqini tekshirishni nazarda tutadi. Shuningdek, bolalarning aqliy qobiliyatlarning shakllanishiga ta'sir etadigan jismoniy rivojlanishi ham e'tiborga olinadi. To'liq o'rganish deganda bolaning psixik rivojlanishi alohida olingan qobiliyatlarni rivojlanishining yig'indisi emasligini, shuning uchun bola haqida uning idroki, xotirasi yoki psixik funksiyalarning holatini tekshirish asosidagina xulosa chiqarib bo'lmasligini esda tutish lozimligini tushunamiz. Bolani har tomonlama, to'liq o'rganish agarda u bolaning faoliyati jarayonida: o'qish, mehnat yoki o'yin faoliyatlarida amalga oshirilsa, muvaffiqiyatli bo'lishi mumkin. Bolani o'rganish, tekshirishda foydalaniladigan metodlar ham, materiallar ham ularning yosh va xarakterologik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda maksimal darajada

individuallashtirilishi lozim. Komissiya a'zolari bola bilan aloqa o'rnatishlari lozim. Bu bolaning shaxsi sifatlarini: qiziqishlarini, irodaviy harakatlarining holati harakatlaridagi maqsadga yo'nalganlik, asosiy psixik jarayonlarning o'tishi xususiyatlarini yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Dinamik o'rganish tamoyili. Defektologlar uchun eng o'ziga xos hisoblangan tamoyil– bu bolalarni dinamik o'rganish tamoyilidir. Unga binoan tekshirish jarayonida bola bilgan va bajara oladigan vazifalargagina emas, balki uning ta'lim olishdagi imkoniyatlariga ahamiyat qaratish kerak. Bu tamoyil asosida L.S.Vigotskiyning bolalarning “yaqin rivojlanish zonasi” to'g'risidagi nazariyasi, ularning ta'lim olishdagi potentsial imkoniyatlari yotadi. Bolaning aqliy rivojlanishi qancha yuqori bo'lsa, u yoki bu vazifani bajarish, olingan tajribani yangi vaziyatda qo'llashni shuncha muvaffaqiyatli o'rganadi. Aqliy rivojlanishda orqada qolgan bolalarni meyorida rivojlanayotgan bolalarga nisbatan bo'lgan farqlaridan biri bu ular yordamdan yaxshi foydalana olmaydilar. Mana shuning uchun tekshirish davomida pedagog doim o'z e'tiborini vazifa tushuntirilganidan so'ng uni yechilishi yaxshilandimi, shunga o'xshash vazifani qanday bajarganligiga qaratish lozim. Barcha tekshirishlarni ta'limiy eksperiment tamoyilini e'tiborga olib o'tkazish tavsiya etiladi.

Bola tomonidan bajarilgan ishni baholash davomida sifat-sonli yondashish tamoyilini qo'llash muhimdir, ya'ni faqatgina yakuniy natijagina emas, balki topshiriqlarni bajarish usuli va muvofiqligi, harakatlarning mantiqiy ketma-ketligi, maqsadga erishishda qat'iyatligi va h.q.larni baholash kerak. Bunda baholash differentsirlashgan bo'lishi lozim.

Faqatgina oxirgi natijagina emas, balki topshirish usulini ham e'tiborga olish lozim. Bunda quyidagilar inobatga olinadi:

- vazifa va tekshirish xolatiga munosabati
- vazifani shartlaridan mo'ljallan olishi hamda, Vazifani bajarish yo'llari
- vazifa shartlaridagi material va ko'rsatmalarga bolaning unga mos harakatlari
- kattalar yordamidan samarali foydalanishi
- vazifani bajarishda taqqoslay olishi
- faoliyat natijalari va o'zining baholariga munosabati.

Bolani erta tashxis qilib o'rganishning muhimligi shundaki, u orqali bolani korreksion ta'limga vaqtida yo'naltirib, ikkilamchi nuqsonlarni paydo bo'lishini oldini olish mumkin.

Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlariga korreksion va diagnostik yordam. Bola imkoniyatlariga baho berish hamda psixik rivojlanishini aniqlash orqali korreksion pedagogik ishning vazifalarini xal etish mumkin.

Yuqoridagilarning barchasi TPPKda bolalarni o'rganish davomida amal qilinishi lozim bo'lgan tamoyillardir

1.3. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni psixologo-pedagogik tashxis qilish vazifalari

Rivojlanishida nuqsoni bo'lganlarni psixodiagnostikasi uch bosqichda olib boriladi:

- Skrining-tashxis;
- Differensial tashxis;
- Individual –korreksion dastur ishlab chiqish maqsadida bolani chuqur psixologo-pedagogik o'rganish;

Har bir bosqich o'ziga xos vazifalarga ega hamda har bir bosqichda uni zamonaviy psixodiagnostika xolatini xarakterlovchi bir qator muammolar bilan bog'liq. **Skrining** – **tashxisning** asosiy maqsadi psixologik rivojlanish davridag turli nuqson va kamchiliklarga ega bolalarni erta aniqlash, bola rivojlanishidagi psixologo–pedagogik muammosini aniqlab, unga umumta'lim muassasalarida sharoitlar yaratishdir.

Bundan tashqari skrining-tashxis ta'lim muassasalaridagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga sifatli baholashga doir vazifalarni hal etishga yordam beradi: bolalarga ta'lim-tarbiya dasturlarining u yoki bu kamchiliklarini, aniq ta'lim muassasasidagi ta'lim-tarbiya jarayonidagi kamchiliklarini aniqlash.

Skrining – tashxisni tashkil etish va o'tkazish muammosi xozirgi kunda turlicha amalga oshiriladi. Masalan bolani ta'lim-tarbiyasi jarayonida qiyinchiliklarga uchragan pedagoglar ta'lim muassasasidagi psixologga bolaning xususiyatlariga baho berib, unga mos keluvchi ishlar tavsiyasini ishlab chiqishini so'raydi. Boshqa xollarda ota-onalar psixologga murojat etadilar: bola tarbiyasi jarayonida xulqi bo'yicha duch kelingan muammolarga o'z bahosini,unga xos ta'lim-tarbiya tadbirlari bo'yicha tavsiyalarini berishi so'raladi. Shuni aytish joizki, murojaatlar asosan katta maktabgacha yoshdagi bolalar ko'proq uchraydi, chunki ota-onalar maktabga “tayyorlov davri”da bolada u yoki bu psixologik muammolarni seza boshlaydilar.

Va, nihoyat maxsus tashkil etilgan skrining-tekshiruvnatijalari orqali bola rivojlanishidagi muammolarni aniqlash mumkin. Skrining- tekshiruv shaqli bo'yicha individual va frontal bo'lishi mumkin.Ushbu yondashuv rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni aniqlash bo'yicha zamon talablariga javob beradi, ammo har doim ham foydalanilmaydi. Skriningda foydalaniladigan metodikalar har doim ham skrining tekshiruv vazifalariga mos kelmaydi, mutaxassis psixolog-pedagoglarning rivojlanishdagi nuqsonlarni aniqlashda tayyorgarligi ko'pincha yetarlicha bo'lmaydi. Hozirgi kunda “talablarga” ko'ra skrining-tashxis yetakchi o'rinda kelmoqda, lekin u bola xususiyatlarini har

tomonlarga o'rganib unga psixologik va pedagogik yordamni bera olmaydi. Shunday qilib, skrining tashxisda ham bir qator muammolar ham mavjud.

1. Bolalarni tekshirish bo'yicha metodikalarning ko'p bo'lishiga qaramasdan, skrining tekshiruvda qo'llaniladigan tashxislari ilmiy jihatdan talablari asoslanmagan. Ayniqsa bu, birinchi 3 yoshgacha bo'lganlarga tegishlidir.

2. Ilk va maktabgacha yoshdagi psixik rivojlanishi meyorida bo'lgan hamda psixologo-pedagogik va tibbiy ijtimoiy yordamga muhtojlar bolalarni ajratish uchun skrining-tashxisni ishlab chiqishda uning mezonlari tizimini ishlab chiqish juda qiyindir.

3. Skrining-tekshiruvning o'tkazishda tekshiriluvchining shaxsiy xususiyatlarini va hissiy holatini o'rganish muhim muammolardan biridir. Oldingi tajribalariga salbiy qarashi, yutuq va kamchiliklariga bo'lgan reaksiyasi kabilar vazifani bajarish sifatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida qiyinchiliklar tug'diradi, chunki skrining-tekshiruv davomida vaqt chegaralangan va kerakli ma'lumotlarni olishga imkoniyat bermaydi.

Differensial tashxis rivojlanish nuqsonini aniqlaydi, va uning natijalari orqali bolaning imkoniyatlariga xos ta'lim shakllari aniqlanadi. Differensial tashxisning vazifalari quyidagilar:

- bola rivojlanishidagi aqliy, nutqiy va hissiy nuqsonlar xarakteri va darajasini aniqlash;
- birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarini aniqlash hamda buzilish tizimli taxlil qilish;
- harakat - tayanch apparati, ko'ruv, eshituv kamchiliklarida psixik rivojlanish nuqsonlarining xususiyatlariga baho berish;
- pedagogik tashxisni aniqlash va uni asoslash.

Ushbu ma'lumotlarga tayangan holda korreksion-pedagogik jarayonni, ta'lim dasturini, ta'lim muassasasi turini aniqlash va tashkillashtirish mumkin. Differensial tashxis psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyada amalga oshiriladi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni bir guruh mutaxassislar kompleks o'rganib tashxis natijasini kelishgan holda qo'yadilar. Ish bolaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda aniq bir tizimda tuziladi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lganlarni differensial tashxis qilish, hozirgi kunda bir qator muammolarga duch keladi.

Ma'lumki, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning har bir turida psixologik xususiyatlarining o'xshash jihatlari ham kuzatiladi. Masalan, rivojlanishida nuqsoni bo'lganlarning deyarli barchasida nutq kamchiliklar yoki ta'lim olishida sustliklar xarakterlidir. Rivojlanish nuqsonini, darajasini aniqlovchi o'ziga xos xususiyatlar, differensial tashxisning asosi bo'lib hisoblanadi (V.I.Lubovskiy).

Bu hozirgi kunda maxsus psixologiyada anomal rivojlanishlarni taqqoslash xarakteriga ega ilmiy izlanishlarning yetarlicha emasligi bilan bog'liq. Bunday ilmiy ishlarni olib borish differensial tashxis imkoniyatlarini yanada kengaytirar edi.

Yana bir muammo TPPK amaliy faoliyati bilan bog'liqdir. Hozirgi kunda tashkiliy xarakterga ega ko'pgina savollar yechilmagan, hususan doimiy faoliyat ko'rsatuvchi bir qator metodologik va terminologik muammolarni hal qiluvchi tashxis muassasasini tashkil etish, uni kerakli kadrlar bilan ta'minlash. Metodologik muammolar ichidan bolani differensial tashxis maqsadida psixodiagnostika natijalarini taxili hamda sifatli bajarishlariga imkon beruvchi samarali va ishonchli metodlarni ishlab chiqish muammosini alohida ta'kidlash joiz.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni chuqur psixologo-pedagogik o'rganish tashxis natijalariga asoslanib, korreksion dasturni ishlab chiqish maqsadini qo'yadi. Bunda o'rganish vaqt talab etadi, u asosan ta'limda, ba'zida esa konsultativ muassasalarda o'tkaziladi. Bunday o'rganishning aniq vazifalari turli yosh davrlari uchun ko'p taraflama va o'ziga xosdir. Ular ichidan qo'yidagilarni ajratish mumkin:

- Bolaning individual psixologo-pedagogik xususiyatlarini aniqlash;
- Rivojlaniruvchi va ta'limiy korreksion individual dasturlarni ishlab chiqish;
- Oilasidagi ichki munosabatlarni o'rganish va tarbiya sharoitlarini aniqlash;

Mutaxassislar u yoki bu funksiyadagi kamchilik yoki iivojlanmaganlikda samarali tavsiyalar bermoqdalar, lekin boladagi ijobiy hislatlarni aniqlashdagi, ayniqsa shaxs xususiyatlari ya'ni bolaning tasavvuri, nutqi, ijtimoiy shaxsiy muammosi hal etishga qaratilgan ishlari yetarlicha rivoj topmagan. Ammo, samarali korreksion-pedagogik jarayon faqatgina salbiy omillarga emas, balki birinchi o'rinda bolani psixologo-pedagogik individual imkoniyatlarini aniqlash ham qaratilgan.

Shunday qilib, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni psixologo-pedagogik tashxis qilishning muhim vazifalari quyidagilardir:

- bola rivojlanishidagi nuqsonlarni erta aniqlash;
- nuqsonning sababi va xarakterini aniqlash;
- bolaning pedagogik yo'llanmasini aniqlash;
- rivojlanishidagi nuqsonlari bo'lgan bolalarning individual psixologik xususiyatlarini aniqlash;
- ta'limiy va rivojlantiruvchi dasturlarni ishlab chiqish.

Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya(TPPK) ishining mazmuni va uni tashkil etilishi

Ta'lim muassaslarining tarmog'i kengayib borayotganligi, hamda ta'lim muassasasini ota-onaga tanlash huquqi berilganligi sababli ba'zi- bir bolalarni o'qitish bo'yicha muamolar yuzaga kelmoqda. Ba'zi holatlarda bolalarni o'qitishda va hulqining o'ziga xos xususiyatlarini boshqarishdagi paydo bo'lgan qiyinchiliklar pedagogning talablari bolaning psixik va jismoniy tayyorgarligiga mos emasligi, aqliy rivojlanish darajasiga e'tibor qaratilmaganligi, bolaning somatik-psixik holatlari sabab bo'lsa, boshqa holatlarda – maktab ta'limiga tayyormasligi (ba'zi psixik funksiyalarning, muloqat ko'nikmalarining shakllanmaganligi, hissiy- irodaviy tomonlarning rivojlanmaganligi) va h.q. Bularning barchasi bolalarga yordamning yangi turlarini izlash uchun asos bo'ldi. XX asrning 90- yillarida pedagog va psixologlarning tashabbusi bilan ta'limni boshqarish shahar va viloyat organlari tomonidan umuta'lim maktablarida psixologo-tibbiy-pedagogik konsiliumlar tashkil etila boshlandi. Ularning funksiyalariga bolalar uchun rivojlanishlarining bolani yoshi va individual psixojismoniy o'ziga xos xususiyatlari jihatidan ta'lim olishlari uchun optimal sharoitlar yaratish kiradi.

TPPKning maqsad va vazifalari. TPPKning asosiy maqsadi – rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga diagnostik-korreksion psixologo-tibbiy-pedagogik yordam berish, ularga o'qish va tarbiya olishlari uchun shart-sharoitlar yaratishdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish kerakdir:

- psixik-jismoniy rivojlanishida u yoki bu nuqsonlari bo'lgan bolalarni aniqlash va har tomonlama kompleks tekshirish;
- nuqsonlarning xarakteri va sabablarini o'rnatish (deviantli xulq, katta va tengdoshlari bilan bo'lgan nizoli vaziyatlar, o'zlashtirishda orqada qolish va h.q.);
- bolaning potensial imkoniyatlarini aniqlab ushbu ta'lim muassasa sharoitida unga maqsadli maxsus (korreksion) yordam ko'rsatish;
- “xatar guruxi”ga kiruvchi bolalarning individual rivojlanishini kompleks maqsadli dasturlarini yaratish;
- rivojlanish dinamikasini kuzatish (kuzatuv, o'quv yilining boshidagi yoki oxiridagi diagnostik “kesimlar”, tegishli tuzatishlar kiritish);
- ota-ona bilan maslahat ishlarini olib borish.

Ko'rsatilgan vazifalar maktabgacha ta'lim muassasalari pedagoglari jamoasi va TPPKning mutaxassislarining kuchi bilan o'zaro kelishilgan aloqada bajariladi.

An'anada, rivojlanishida turli nuqsoni bo'lgan bolalarga mo'ljallangan maxsus muassasalarni bolalar bilan to'ldirish, muassasalarga bolalarni

yuborish bilan shug'ulanib kelgan psixologo-tibbiy-pedagogik komissiyalar (TPPK) faoliyat ko'rsatadi. Ular ta'lim, sog'liq, aholini ijtimoiy himoyalash organlari bilan birgalikda tuzilgan. Bunda bolalarning har bir tipdagi muassasasi uchun (aqli zaif, ko'r va zaif ko'ruvchi, kar va zaif eshituvchi va h.q.lar) o'zining TPPKlari faoliyat ko'rsatgan.

Ushbu komissiya faoliyatida malakali mutaxassislar qatnashib kelayotgan bo'lsada, uning ishini tashkillashtirish va sharoitlari (tekshirish vaqti chegaralanganligi, bir martalik tekshirish davomida rivojlanish dinamikasini kuzatish mumkin bo'lmaganligi, ko'pincha ularning tarkibida psixologlar qatnashmaganligi va h.q.) tibbiy va psixologo-pedagogik tashxisning sifatini talab darajasida olib borish imkonini bermaydi. Xato tashxis qo'yilgan vaziyatlar kam bo'lmagan.

TPPK psixik va jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan, o'qishda, muloqatda, xulqida muammosi bo'lgan bolalarga maxsus yordam ko'rsatish tizimidagi davlat maslahat-tashxis, korreksion markazi bo'lib hisoblanadi. TPPK bolalarga ta'lim berishning ko'rinish va shakllarini aniqlash uchun ekspert xizmati funksiyasini bajarmoqda. O'z faoliyatida TPPK bola xuquqlari to'g'risidagi Xalqaro Konvensiya, hamda O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi vazirligi, ta'lim, sog'liq, bolalar xuquqini himoyalash to'g'risidagi qonunlariga amal qiladi. Ma'muriy bo'linishni hisobga olib viloyat, shahar, tuman TPPKlar tuziladi.

TPPKning shtat tarkibiga quyidagi mutaxassilar kiradi:

- vrachlar (pediatr, nevroptolog, psixiatr, otolaringolog, oftalmolog, lozim bo'lganida ba'zan ortoped);
- pedagog-defektologlar (oligofrenopedagog, surdopedagog, tiflopedagog, ortoped);
- logoped;
- psixolog;

Xududning sharoitlariga (moddiy baza, mutaxassilar bilan ta'minlanganligi va h.q.) qarab TPPKning tarkibida aniq bir ishni bajarish uchun mustaqil bo'limlar tuzilishi mumkin. Bu yerga maslahat-tashxis, korreksion va ilmiy-metodik bo'limlar kiradi. TPPKning muhim vazifasi hamda uning faoliyatning asosiy mazmuni deb bola va o'smirlarni tug'ilishidan 18 yoshigacha kompleks tibbiy-psixologo-pedagogik diagnostika o'tkazish hisoblanadi. Erta diagnostika bolalarga o'z vaqtida yordam ko'rsatish, ularning rivojlanish darajasi va o'ziga xos xususiyatlariga aniqliklar kiritish, hamda tarbiya va ta'lim olishi uchun joy topib berish maqsadida kerak. Bu vaziyatlarda maxsus (korreksion) muassasani bolalar bilan to'ldirish masalasi yechiladi.

Tibbiy-psixologo-pedagogik diagnostika bola rivojlanishidagi nuqsonlar tufayli paydo bo'layotgan muammolarni yechish maqsadida ota-ona (yoki ularni o'rnidagi shaxslar), pedagogning talabi bo'yicha ham o'tkazilishi mumkin. Ularga bolaga yordam berish uchun maslahatlar va aniq tavsiyalar kerak.

TPPKda ishni tashkil etish bo'yicha: TPPKga jo'natilganlar ro'yxati va tekshirish o'tib bo'lgan bolalarni ro'yhatga olish daftarlari; tekshirish jarayoni to'g'risidagi bayonnomalar; korreksion-rivojlantirish tizimidan chiqarilgan bolalar hujjatlarining arxivi va TPPKning xulosa nusxalari.

Tibbiy tekshirish o'z ichiga oftalmolog, otolaringolog, somatik, nevrolog va psixiatrlarning tekshirishini oladi. Kerak bo'lsa paraklinik tekshirishlar o'tkaziladi. Anamnez yig'iladi. Bu barcha tekshirishlar vrachlar tomonidan o'tkaziladi. Defektologga ham, logopedga ham bu bilan shug'ulanishiga ruxsat yo'q, lekin ular bolalar rivojlanishiga u yoki bu nomaqbul vaziyatlar qanday ta'sir o'tkazishi, psixikasining xususiyatlari haqida bilishlari muhim. Bola rivojlanishini tarixidan ona bilan o'tkazilgan suhbat davomida vrach tomonidan olingan ma'lumotlar, hamda vrach xulasasining bola holatining ob'ektiv ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlar psixologo-pedagogik tekshirishning to'g'ri strategiyasini tanlash uchun yordam ko'rsatadi. Eshitish qobiliyati past yoki nutqida nuqsoni bo'lgan bolani tekshirish davomida noverbal ko'rinishdagi topshiriqlar berilishi zarur, ko'rishda nuqsoni bo'lsa tekshirish nutq materiali orqali o'tkaziladi va h.q.

Psixologik-pedagogik tekshirish davomida bolaning psixik rivojlanishining (nutq, harakat va h.q. rivojlanishining senzitiv davri) o'ziga xos xususiyatlari belgilanadi; saranjomlik, o'ziga- o'zi xizmat qilishi, boshqa bolalar bilan muloqat qilish ko'nikmalari qachon shakllana boshlanganligi aniqlanadi; motorika holati, o'yin xarakteri va h.q. qayd etiladi. Nafaqat ayrim psixik jarayonlarni o'rganish, balki shaxsni o'zini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Agar bolalar maktabda ta'lim olayotgan bo'lsalar, o'qishida mavjud qiyinchiliklarning sababi va xarakterini belgilash, nuqson tarkibini ochib berish darkor. Bilim olish qobiliyatiga katta diqqat qaratish lozim. Bilim olish qobiliyatining ko'rsatkichlari deb – umumiy fikrlash qobiliyati, fikrlash jarayoning egiluvchanligi, o'quv qurollarni o'zlashtirish va h.q., hamda bola yordamni qabul qilish qobiliyati (bu asosiy ko'rsatkichlardan biri) hisoblanadi. Bu yordamning xarakteri va o'lchamligi e'tiborga olinadi.

O'z ichiga o'quv ko'nikmalardan, yozish, o'qish, sanash, va h.q.dan umumiy xabardorlikni, ularni shakllangalikni hisobga olib, pedagogik tekshirish defektolog tomonidan amalga oshiriladi. O'z xulosasida u nafaqat bola rivojlanganligining o'rnatilgan dolzarb darajasini aks etadi, bola bilan ishlash

bo'yicha keraqli usullarni ko'rsatadi. Uning tavsiyalari ham pedagog, ham ota-onalarga foydali.

Psixologik tekshirishni psixolog o'tkazadi. U kuzatilayotgan hodisa sabablarini taxlil qiladi, psixik funksiyalarni, motivatsion-idrok va hissiy-shaxsiy sohalarni korreksiya qilish bo'yicha taxmin (prognoz) va tavsiyalar beradi. Xulosada u kompleks psixologik tashxis qo'yadi. Kerak bo'lsa neyropsixologik tekshirish o'tkaziladi.

Logopedik tekshirishni (zaruriyat tug'ilgan vaziyatlarda o'tkaziladi) logoped amalga oshiradi. Nutq rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini namoyish etib, u mavjud nuqsonlarning xarakterini va sabablarini ochib beradi. Logopedik o'rganish jarayoniga artikulyasion apparatning, impressiv (fonetik eshitish, so'zlar, sodda gaplar, mantiqiy-grammatik qurilmalarni tushunish) va ekspressiv (takroriy, nominativ, mustaqil) nutqning tekshirish kiradi. Bolalarning yozma nutqi ham, hamda nutqiy xotira ham tekshirishdan o'tkaziladi. Logoped nutqdagi nuqsonning tuzilishini va bola nutqining rivojlanmay qolganlik darajasini aniqlashi zarur, Bu nutq buzilishlari birlamchi nuqson bo'lgan bolalarni va nutqning zaifligi aqliy zaiflik natijasida kelib chiqqan bolalar o'rtasida chegara olishga yordam beradi.

Mutaxassilar tomonidan yig'ilgan ma'lumotlarga ko'ra, TPPK yig'ilishlarida natijalar muhokama qilinadi va bolaning imkoniyatlari va xususiyatlaridan kelib chiqib o'qish marshruti haqidagi tavsiyalar bilan, hamda kerak bo'lsa tibbiy yordam to'g'risidagi kollegial xulosa beriladi.

TPPKni o'tkazish davriyligi o'quv muassasining aniq talabi bilan bog'liq, lekin kvartalda kamida bir marta o'tkazilishi shart. Yig'ilish puxtalik bilan tayyorlanishi juda muhim, shuning uchun oldindan (1-2 oy oldin) yetakchi mutaxassis bolalardan qaysi biri chuqur tekshirishga muhtojligini aniqlaydi, bola bilan ish dasturi va barcha mutaxassilari tomonidan yetakchi mutaxassisga xulosalarni tayyorlab berish muddatlari (TPPKning yig'ilishidan kamida 3 kun oldin) tuziladi. Bolalar TPPKda takroriy tekshiruvdan o'tkazilayotgan bo'lsalar, bola bilan individual olib borilgan korreksion-rivojlantirish ish natijalari alohida baholanadi (dinamikasining xarakteri) va bu ishni davom etish bo'yicha keyingi dastur tuziladi.

TPPK nafaqat bola, ota-onaga yordam beradi, u bolada bo'lgan muamolarini yechishda pedagoglar tomonidan olib borilayotgan harakatlarning bir-biriga muvofiqligini ta'minlab, ularning malaka darajasini ham oshiradi, va bu TPPKning eng muhim vazifalaridan biridir.

Nazorat savollari

1. Turli yosh bosqichlaridagi psixologik-pedagogik diagnostikaning vazifalari nimalardan iborat?
2. Psixologik-pedagogik diagnostika qilishda qanday metodologik Tamoyillarga amal qilish lozim?
3. TPPK ga nimalar kiradi?
4. TPPK a'zolari tomonidan bolani tekshirishning qanday turlari o'tkaziladi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ayupova M.Yu. Logopediya «O'zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati» T.: 2007 y.
2. Mo'minjonova Z., Ziyayeva K., Karimova SH., Xalilova G.lar "Ona tili" yordamchi mehnat ta'limi maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Toshkent: "Artaprint" MCHJ 2005 y.
3. Po'latova P.M. va boshqalar. Maxsus pedagogika. T.: «Fan va texnologiyalar», 2014 y.
4. Raxmanova V.S. «Maxsus pedagogika» 5. Психолого-педагогическая диагностика. Под редакцией .Ю.Левченко и С.Д.Забрамной. М., АСАДЕМА, 2005г.
1. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
2. www. pedagog. uz
3. www. ziyonet. uz
4. www. lex. uz
5. www. bilim. uz
6. www. gov. Uz

2 mavzu: Ilk yoshdagi rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni pedagogik-psixologik o'rganish (2 soat)

Reja

- 1.1. Go'daklik davrida bolalarni psixologik-pedagogik tekshirish (tug'ilgandan to 1 yoshgacha).
- 1.2. Ilk yoshdagi (1-3 yosh) bolalarni psixologo-pedagogik tekshirish
- 1.3. Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologo-pedagogik o'rganish (3-7 yoshgacha)

Tayanch iboralar: go‘daklik, ilk yosh, harakatlanish, sensor, hissiy; ovoz faolligi, amaliy faoliyat, kattalar bilan munosabat.

1.1. Go‘daklik davrida bolalarni psixologik-pedagogik tekshirish (tug‘ilgandan to 1 yoshgacha)

Bir yoshdagi bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari bu - kattalarga bo‘lgan qaramlikdir. Kattalar bilan muloqat qilish – bola hayotining birinchi oylaridayoq muhim ehtiyojdir. Aynan shu muloqat jarayonida bolaning psixik faoliyatining asoslari shakllanadi. Bu yoshda rivojlanish bir me'yorda kechmaydi, shuning uchun uni baxolash uchun dinamik kuzatish talab etiladi.

Rivojlanishning tezligi va bir me'yorda kechmasligi bola hayotining birinchi yoshini yutuqlar bo‘yicha bir necha bosqichlarga taqsimlaydi.

Birinchi davrda (hayotining birinchi oyi) - yangi tug‘ilgan chaqaloqlik davrida – rivojlanishdagi yetakchi yutuqlarini ajratish qiyin, biroq xayotining 3-4 xaftasidayoq kommunikativ xulqini aniqlash mumkin: masalan, erkalashga bolani labini oldinga cho‘chchaytirib, kulgu bilan javob qaytarishi.

Ikkinchi davrning eng katta yutuqlari bolaning atrofdagilarga javoban his-tuyg‘ularining hamda eshitish, ko‘rish idrokining rivojlanganligidir. Osilib turgan o‘yinchoqqa diqqat bilan qarashi, harakatdagi buyumlarni kuzatishi, kattalar yuziga e‘tibor berish qobiliyati rivojlanadi. Bir oylikning oxirida ikkinchi oylikning boshida kattalarga javoban iljayish paydo bo‘ladi. Rivojlanishining ikkinchi davrining yakunida bola da kattalar bilan muloqotda bo‘lish xar tomonlama jonlanadi. Ushbu jonlanish yangi tug‘ilgan bolaning go‘daqlik davriga o‘tganligidan dalolat beradi. Boshni gorizont va vertikal xolatda ushlay olish - ikkinchi davrda xarakterlar xolatining ko‘rsatkichidir.

Uchinchi davrda (3-6 oy) keyingi ko‘rish va eshitish idroki reaksiyalari shakllanishi davom etadi, tevarakda mo‘ljall olish qobiliyati paydo bo‘ladi, uning negizida nutqni tushunish qobiliyati, predmetli faoliyatining birinchi belgilari, sensor idrok va xulq atvorining dastlabki shakllari rivojlana boshlaydi. Ushbu yoshda ko‘rish analizatorining faoliyati yaxshilanishi natijasida yetakchi rolni qo‘l harakatlarining rivojlanishi egallaydi: davr oxiriga bola qo‘li bilan maqsadli harakatlar bajarishga, o‘yinchoqlarni qo‘liga olib o‘ynashga qodir.

Kattalar bilan muloqat qilishda ham bolaning munosabati yaxshi tomonga o‘zgaradi. Bola asta sekinlik bilan o‘zinikilarni ajrata oladi.

Ushbu davrga faol nutqni boshlang‘ich etaplarini rivojlanishi xos. Ovozida guvullab ashula aytish bilan birgalikda guvranish paydo bo‘ladi.

Birinchi yarim yil oxiriga qarab bola to‘g‘ri qo‘yilgan qo‘llarining kaftlariga tayanib, qornida yotadi, orqasidan qorniga ag‘dariladi, turg‘izib qo‘lida uchab tursa oyoqlariga qattiq tiralib oladi.

To'rtinchi davr (6-9 oy) yutuqlarga keskin boy bo'ladi. 7 oyga qarab bola emaylab ketadi. Bu uning xulqini o'zgartiradi – u ko'proq faol va mustaqil bo'ladi, atrofini yaxshi taniydi, harakatlari faollashadi. 9 oyga borib to'g'ri turish, o'tirib olish, yotish, o'rnidan turish, o'tirish, to'siqni ustidan xatlab o'tish funksiyasilari rivojlanadi, ko'l pashjasi va barmoqlarining harakatlanishi tokomillashadi.

Beshinchi davrda (9-12 oy) nutqning rivojlanishi muhim hisoblanadi. 9 oydagi bolaga qarab gapiralganda uning tushunish qobiliyati kengayadi. Bu uning xulqini, faoliyat xarakterini o'zgartiradi. 10-12 oylik bolada faol nutq shakllana boshlaydi, bola birinchi so'zlarini gapiradi.

Nutqni tushuna boshlanishi predmetlar bilan harakat qilish murakkablashadi. 10-12 oyda bola kattalarning gapiga qarab harakatlarni bajarishga o'rganadi. Harakatlar turlicha bo'ladi va maqsadli xarakterga ega. Bolaning o'yinchoqlari soni ko'payadi; o'yin o'ynashga bo'lgan harakatlar seziladi. Bu davrning oxirida bola mustaqil ravishda vertikal xolatga turib yuradi.

Odatda psixodiagnostik o'rganish bolalar hayotining 1,5-2 oyidan keyin boshlanadi. Bunday tekshirishning ob'ektlari bo'lib miyasida erta organik nuqsoni bor, yoki ijtimoiy yo hissiy og'ir muhitda (bolalar uyi, ona tomonidan bolaga bo'lgan e'tiborsizli) o'sib boruvchi bolalar hisoblanadi.

Bir yoshdagi bolalarni o'rganishning bir necha metodikalari mavjud. Rossiyada keng tarqalgani bu Gezel rivojlanish Shkalasi, Denver skrining metodikasi va boshqalar. G.V.Pantyuxina, K.N.Pechora, E.L.Fruxt, O.V.Bajenova, L.T.Jurba, ye.M.Mastyukovalarning ishlarini ham alohida ajratish mumkin.

Barcha metodikalar bitta tamoyil asosida tuzilgan: ular harakat, nutqiy, bilim olish, ijtimoiy soxalarni o'rganishga qaratilgan vazifalar to'plamidan iborat. Yoshiga qarab vazifalar qiyinlashib boradi. Bolaning teshirish natijalari normativ bilan solishtirilib baholanadi. Metodikalar bolaning psixikasi shakllanganligi norma xolatdaligini, qolib ketgan bo'lsa, zaiflashgan sohalarni aniqlash yechimini topadi. Rossiya metodikalardagi talablar xorij metodikalardagiga qaraganda ancha yuqoriroq, ayniqsa nutq rivojlanishining baxolashda.

Bir yoshdagi bolalarni tekshirishda amaliyotda ko'proq quyidagi usullar bilan foydalaniladi (O.V.Bajenova, L.T.Jurba, ye.M.Mastyukova).

8 oydan katta bolalarni maxsus stol yordamida tekshirish mumkin, kattaroq bolalar maxsus bolalar stoli yoniga yoki onasining tizzasiga o'tkaziladi. Bolalar faol, uyg'ongan, kasal emas (kasaliklarga bo'lgan moyillik nazarda tutilgan), quruq, qorni to'q, g'azablanmagan, charchamagan bo'lishi kerak.

Boshida bola bilan aloqa o'rnatildi. Agar 8 oydan oshgan bolalar bemalol bunday aloqaga kirsalar va ularga tanish va notanish kattalarni ajrata olmasalar – bu yomon. Alohida e'tibor bola bilan onaning munosabatiga qaratiladi.

Harakatlanish faoliyatining holati aniqlanadi: bosh va qo'llarini ushash, o'tirish va yurish paytidagi holatlarni nazorat qilish imkoniyati va sifati.

Keyin sensor harakatlanishning rivojlanganligi aniqlanadi: kuzatish va diqqatni to'plash funksiyalarning xarakteri o'rganiladi. Buning uchun bola ko'zi oldida 30 sm masofada yorqin 7-10 sm kattalikdagi o'yinchoq gorizontal, vertikal, aylanma yo'nalishlarda aylantiriladi. 2-4,5 oydagi bolaning kuzatish usuli e'tiborga loyiq. Kuzatish funksiyaning o'rganish uchun maxsus eksperimental usullar bilan foydalaniladi. Birinchi vaziyatda harakatdagi o'yinchoq 50 sm masofadagi ekran orqasiga o'tib ketadi; keyin, harakat traektoriyasi saqlanib, ekranning boshqa tomonidan paydo bo'ladi. Agar bola o'z kuzatishini to'xtatmasdan davom ettirgan bo'lsa va ob'ekt ekran orqasidan paydo bo'lgan paytda bolaning nigohi unga qaratilgan bo'lsa vazifa bajarilgan hisoblanadi.

Boshqa vaziyatda bola oldiga 50 sm masofada 35x35 smlik oq ekran o'rnatiladi, unda bir biridan 10 sm oralikda 7x7 ikkita oynacha bor. Oynachalarda ketma-ketlik bilan 7 sm ovozli o'yinchoq paydo bo'ladi. Agar bola bir nechadan keyin bo'lsa ham o'z nigohini o'yinchoq paydo bo'lgan bir oynachadan o'yinchoq paydo bo'lishi kerak bo'lgan ikkinchi oynachaga olib o'tgan bo'lsa vazifa bajarilgan hisoblanadi.

Keyin nigoh ostidan ketayotgan ob'ektga nisbatan bo'lgan munosabatning mavjudligi, bosh va ko'zlarni o'girib ovoz manbasini topish imkoniyati, nutqni eshitib quloq solish qobiliyati o'rganiladi, hamda bekitilgan ob'ektni topish va ikkita ob'ektga bir vaqt ichida qarash tekshiriladi.

Biron bir predmetlar bilan bo'lgan munosabat tekshiriladi. Buning uchun 4 oydan katta bolaga ovozli o'yinchoq beriladi va bolaning o'yinchoqni ushlab olishi, tez va aniqligi, barmoqchalar harakati, ushlab turish vaqti baholanadi. 8 oydan katta bolalarga yana bitta ovozli o'yinchoq beriladi, uning ushlab olish va birdan ikkita o'yinchoqni ushlab turishi baxolanadi. Ikkinchi o'yinchoq birichi bo'sh qo'l tomonidan, keyin bo'sh emas qo'l tomonidan beriladi, bolaning harakatlari baxolanadi. 10 oydan katta bolalarning aylanib o'tish harakatlarining shakllanganligi aniqlanadi. Buning uchun, bolani o'yinchoq bilan qiziqtirib, uni 20x20 smlik bola nigoxiga nisbatan o'ng yoki chap tomonda bo'lgan ekran orqasiga olib qo'yiladi. O'yinchoqning ovozi chiqariladi va bir necha bor u ekran orqasiga bekitiladi. Agar bola o'yinchoqni ekran orqasidan olib bersa vazifa bajarilgan hisoblanadi. Bir yoshgacha bolalar ko'pincha o'yinchoqni ekran joylashtirilgan tomondagi yaqin qo'l bilan olishadi, va faqat bir yoshdan

keyingina ekranga nisbatan uzoq bo'lgan qo'l bilan o'yinchoqni olish qobiliyati paydo bo'ladi. Muhim e'tiborni bolada predmetlarga nisbatan bajarilayotgan ishlarga bo'lgan qiziqish va kuzatish davomiyligiga qaratish kerak. 10 oydan katta bolalarga bir nechta o'yinchoq beriladi va ulardan ketma-ket foydalanish, uchinchi o'yinchoqni ushlab olish xarakterlari baholanadi. Bolani ovqatlantirish paytida ishtirok etadigan predmetlar: butilkacha, qoshiqcha, piyoladan foydalanish harakatlarining rivojlanishi asosiy e'tiborga loyiq. Muhim e'tibor, faqat ikkita - ko'rsatkich va katta barmoqchalarda - olish mumkin bo'lgan predmetlarga nisbatan qiziqishning borligiga qaratiladi.

Kattalar bilan munosabat o'rnatishda tanlangan usullarning rivojlangan darajasini aniqlashadi: ona va bola o'rtasidagi emotsional va ko'rish aloqalarning mavjudligi, hamda ushbu aloqalarni bola va tadqiqotchi o'rtasida o'rnatilishi ko'riladi. Onadan so'raladi: bolaning ba'zi xoxishlarini tushunadimi, bolaning yig'isi qachon nimani bildiradi, yig'i paytida kattaning reaksiyasi qanaqa ekanligini bilish uchun to'xtashlar bormi, bolaning yig'isi har doim bir hilmi; ularning munosabatida nima o'yinlar o'ynaladi, bola o'yin o'ynagan vaqtda onaning ko'ziga unda-bunda qaraydimi, mimika va jest orqali berilgan oddiy qo'llanmalarni tushanidimi, va nihoyat ko'rsatish imo-ishoralaridan bilan foydalanadimi.

Tekshirish davomida bolaning hissiy va ovoz reaksiyalarining holati o'rganiladi, tabassurning xarakteri va aniq ifodalanganligi belgilanadi, u qaysi vaziyatlarda paydo bo'lishi taxlil qilinadi. Salbiy hissiy namoyonlar, ularning bola qayfiyatida ko'pligi yoki sezilar darajada emasligi, baqirish xususiyatini bosa bilishi, vaziyatdagi o'zgarishlarga qarab yig'lash, yig'lashini chalg'itib to'xtatish imkonlariga e'tibor qaratiladi.

Psixologik tekshirish odatdagidek xulosa tuzish bilan yakunlanadi. Xulosada nuqsonlarning og'ir ko'rinishda bo'lishini baholash bilan bir qatorda, bolada rivojlanishi buzilgan psixik funksiyalar, ularning buzilish darajasi, hamda normal rivojlanayotgan funksiyalar aks ettirilishi lozim. Bundan tashqari har bir funksiyaning tekshirish davomida olingan natijalar asosida xarakteristikasini berib, ularni soxalar bo'yicha guruxlash kerak :

- harakatlanish;
- sensor;
- hissiy;
- ovoz faolligi;
- amaliy faoliyat;
- kattalar bilan munosabat.

Xulosaning ushbu qismida nafaqat bola tomonidan muvaffaqiyatli

o'tilgan tekshirishlar va ularni bajarish o'ziga xos xususiyatlari, balki bola o'tolmagan topshiriqlar ham ta'riflanishi kerak. Xulosada berilgan ma'lumot bolada kuzatilayotgan nuqsonning xarakteri va mexanizmi haqidagi tadqiqotchi fikrining isboti sifatida xizmat qilish kerak. Bu esa o'z navbatida aniqlanayotgan nuqsonlarni korreksiyalash va tuzatish yo'llarini aniqlash uchun kerak.

1.2. Ilk yoshdagi (1-3 yosh) bolalarni psixologo-pedagogik tekshirish

1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan vaqt bola hayotidagi o'zgarishlar davridir. Me'yorida rivojlanishda ilk yoshning muxim yutuqlari bu, yurish, predmetli faoliyat, nutq ko'nikmalarini shakllanishidir. Yurish ko'nikmalari bolaning psixik rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Yurish ko'nikmalarini egallash orqali rivojlanishning yangi etapi, ya'ni atrof olamni o'rganadi. O'zi mustaqil harakatlana olganidan keyin bola fazoda mo'ljal ola boshlaydi, predmetlar bilan mustaqil munosabatga kirishadi. Natijada hayotining ikkinchi davrida predmetli harakati keskin rivojlana boshlaydi; hayotining uchinchi davrida predmetli faoliyati yetakchi o'rin egallaydi.

Predmetli harakatni rivojlanish bilan uzviy bog'liqligi bolada idrokni shakllantiradi, chunki predmetlar bilan tanishish jarayonida faqatgina ular nima uchun ishlatilishi emas, balki uning shaqli, kattaligi, rangi, materiali va boshqa xususiyatlari bilan tanishadilar.

Bolalarda oddiy ko'rgazmali harakat shakllarini haqida fikr yuritish, eng birinchi umumlashtirishlari, predmetning ichki va tashqi belgilarini ajratish rivojlanadi.

Ayniqsa bu davrda nutq faol rivojlanadi. 3 yoshgacha bola atrof olam bilan jumlar yordamida muloqatga kirishadi. Faol lug'ati sezilarli o'sa boshlaydi, biroq so'zlarni talaffuz etayotganlarida bolalar birinchi o'rinda intonatsional-ritmik va musiqiy xarakteristikasidan mo'ljal ola boshlaydilar, shuning uchun ko'pgina tovushlari artikulyasiyasi jihatdan unga yaqinni bilan almashtirilib ifodalaydilar.

2 yoshda nutq funksiyalari nazorat etish rivojlana boshlaydi, bola kattalarning so'zli yo'l-yo'rig'i bo'yicha o'z harakatlarini bo'ysundira boshlaydi. Nutqni tushunish qizg'in rivojlana boshlaydi. Bu faqatgina tushunadigan so'zlarini o'sib borishidagina emas, balki bevosita muloqotning xolatga qarab nutqni tushuna boshlaydi.

Ushbu yosh bosqichida nutqning keskin rivojlanishi barcha psixik jarayonlarga ta'sir ko'rsatib, bola fikrlashining rivojlanishi hamda muloqot vositalarida yetakchi o'rinni nutq egallaydi.

Ilk yoshdagi bolalarda diagnostik vazifalarni samarali bajarishda tekshiruvni aniq bir maqsada o'tkazish muhimdir. Avvalo shuni ta'kidlab o'tish joizki,

tekshiruv natijalarini faqatgina bola bilan ijobiy munosabatga kirisha olganda hamda u vazifalarni bajarishda yetarlicha qiziqish uyg'otgandagina samarali baholash mumkin. Tekshiruv o'tkazish ko'picha bolaning yoshi va xolatiga ko'ra aniqlanadi, bu tekshiruvni unumli o'tishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bolaning kayfiyatiga hamda u bilan tekshiruv davomida ishonchiga sazovor bo'lishga diqqatni qaratmoq lozim.

Ilk yoshdagi bolani psixologo-pedagogik o'rganishning asosiy maqsadi quyidagi ma'lumotlarni olishdir:

- bilish jarayonlari;
- hissiy-irodaviy doirasi;
- nutqgacha va nutq rivojlanishi;
- harakatlarining rivojlanishi.

Bolani psixik rivojlanishini tashxis qilishdan oldin, albatta uning ko'rish va eshitishida qo'pol nuqsonlarning yo'qligiga qat'iy ahamiyat berish lozim.

2-3 yoshdagi bolalarni eshitishini pedagogik jihatdan tekshirish, murakkab jarayon hisoblanadi. Bu tovushlar bola uchun sekin-asta so'zsiz ta'sir etmay qo'yadi. Ko'pgina normal eshituvchi bolalar ularga qaratilmagan odattiy shovqinlarga, nutqiy signallarga diqqatlarni qaratmaydilar. Ovoz chiqayotgan tomonga boshlarini qayiltirib qarashlari uchun ularga odattiy bo'lmagan signallar yoki bolani javob berishiga majbur etuvchi sababni ko'rsatish lozim. Tovush chiqaruvchi manba sifatida do'mbira, surnay, baland va pichirlab "av-av-av"(kuchuk) va "pi-pi-pi"(qushcha) ovoziga taqlid qilish, bolani ismini, "kish" kabi tovushlar birikmasini aytilish. Tovushlarni bolani orqasidan 6 metr masofada ifodalanishi kerak. Ko'ruv idroki orqali nutqida ifodalashini cheklash lozim.

Ilk yoshda ovozga reaksiya qilish tovush chiqayotgan tomonga boshini o'girib, 6 metr masofadan pichirlab gapirishga ovoz chiqarib javob reaksiyasini(tovushni o'xshatish, nutqni qaytarish) berishi.

Bolada 2-3 yoshda tovushga shartli ravishda harakatli reaksiyalari paydo bo'ladi. Bu bola shivirlaganni eshityaptimi va qanday masofa oralig'ida ekanligini aniqlashga yordam beradi. Bolaning eshitishi pasaygan deb gumon qilinsa, uni maxsus audiologik tekshiruvga yo'naltirilishi kerak.

Ilk yoshda ko'rishi pasayganlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: taktil organ sifatida og'izdan qo'shimcha foydalanish; predmet yoki rasmlarni ko'zining oldigacha keltirib qarashi, predmet yoki tasvir mayda detallarini e'tiborga olmaslik.

Ilk yoshdagi bolalarni bilish jarayonlarini tashxis qilishning o'ziga xos tomonlari bu bolaning psixik faoliyatini ifodalovchi alohida vazifalarni bajarilishini taxlil qilishga tekshiruvchilarning diqqat markazini qaratishidir.

Bunda faqatgina natijasigagina emas, balki vazifa bajarish bo'yicha tashkiliy faoliyatini imkoniyatlari qandayligiga e'tibor qaratiladi. Ilk yoshda bilish faoliyatining asosiy baholash parametrlari quyidagilar deb hisoblash mumkin:

- vazifani qabul etishi;
- vazifani bajarish yo'li;
- tekshiruv jarayonida o'rgatilishi;
- o'zining faoliyat natijalariga munosabati.

Vazifani qabul etish deganda bolani bajarish sifatidan qat'iy nazar berilgan vazifani uni bajarishga roziligi nazarda tutiladi. Bu vazifani bajarishning birinchi, absolyut zaruriy shartidir. Bunda bola o'yinchoq yoki kattalar bilan muloqot qilishga qiziqish bilan qaraydi.

Ilk yoshdagi bolalarda asosiy vazifani bajarish yo'llari quyidagilardir: - mustaqil bajarishi;

- kattalar yordamida;
- o'rgatilgandan so'ng mustaqil bajarishi.

Berilgan vazifani shartlariga mos ravishda bolaning harakatlari, materialning xarakteri va yo'lanmaning talablariga qarab aniqlanadi. Barcha xollarda vazifani noadekvat bararilishi bolaning aqliy rivojlanishida nuqsonlari borligidan dalolat beradi.

Bolaning yoshiga qarab tavsiya etilgan ta'limiy vazifalargina amalga oshiriladi. Tekshiruv davomida quyidagi yordam turlarini foydalanish mumkin:

- taqlid ostida harakatlarni bajarilishi;
- taqlid ostida vazifani ko'rsatuvchi imo-ishoralardan foydalangan holda bajarish;
- taqlid ostida harakatlarni nutqiy yo'llanma orqali bajarish.

Bola elementar taqlid ostida kattadan u yoki bu vazifani u bilan birgalikda harakatlanish orqali bajarilish yo'llarini bilib oladi. Vazifani bajarilish yo'llarini ko'rsatish uchtdan oshmasligi kerak. shuningdek kattaning nutqi vazifadagi maqsadni ko'rsatishi hamda bola samarali bajarishiga imkon berishi kerak. Bolaning noadekvat harakatlardan adekvat (mos) harakatlarga o'tishi, uning potensial imkoniyatlaridan dalolat beradi. Ta'limning pastligi ba'zi xollarda qo'pol intellektual rivojlanmaganlik, hissiy -irodaviy doirasidagi nuqsonlarga bog'liq bo'lishi mumkin.

Ta'limiy eksperimentdan foydalanish orqali bolaning psixik faoliyatining(diqqat, nutq, idrok, tasavvur, xotira) o'ziga xos tomonlarigina analiz qilishga emas, balki ularning ish qobiliyatini baholashga yordam beradi. Bu ayniqsa rivojlanishida nuqsoni bo'lgan ilk yoshdagi bolalarda muhimir, chunki ularning nuqsoni oqibatida ish qobiliyatini maxsus tashkil etilgan tekshirishlar orqali xotira va diqqatini ko'pincha tasavvur etish mushkuldek tuyuladi.

Bolalarning bilim faoliyatini diagnostik baholashda ularning o'zining natijalariga bo'lgan munosabati muhim mezon hisoblanadi. Normal rivojlanuvchi bolalarda o'z faoliyati va uni yakuniy natijalariga qiziqish xarakterlidir. Intelлектida nuqsoni bo'lgan bolalar nima qilayotgani, undan olinadigan natijalarga befarqlik bilan qaraydilar.

Ilk yoshdagi bolalarda psixologo-pedagogik tekshiruv metodikalarini yoshining rivojlanish qonuniyatlaridan kelib chiqqan xolda tanlanishi kerak. Vazifalarni yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda oddiydan-murakkabga qarab sekin-asta olib borilishi kerak.

Vazifalar fazoda predmetlarni oddiy shaqli, xajmi, rangiga qarab joylashtirishni nazarda tutadi. Vazifaning asosiy tashxis bosqichi ko'rib moslashtira olishini rivojlanganlik darajasini aniqlashdir. Idrok xususiyatini o'rganishning asosiy metodikalari bu "Segen taxtasi" (2-3 shaklli), piramidani tahlash (uch sharik, uch g'ildirakdan), matryoshkani yig'ish va ajratish (ikki qismli, uch qismli), juft rasmlar(2-4), kesma rasmlar(2-3 qismli). Logopedik tekshiruv bolaning nutqiy rivojlanish darajasiga ko'ra an'anaviy tarzda o'tkaziladi. Idrokini o'rganishga yo'naltirilgan vazifalar shuningdek, bolaning hissiy iroda doirasini o'ziga xos xususiyatlarini tashxis qilishda ham foydalanish mumkin. Eksperiment davomida bolani faoliyatini kuzatish orqali quyidagi ko'rsatkichlarga e'tiborni qaratish lozim:

- kayfiyatining umumiy holati (adekvat, ruhiy siqilish, tashvishli, o'z-o'zidan xursand bo'lish), faolligi, qiziqishining borligi, qo'zg'aluvchanligi, tormozlanish;

- muloqotga kirishishi (kattalar bilan birgalikda ishlashga xoxishi). Yuzaki, yengil hamda to'liq bo'lmagan muloqot asosan intellektual nuqsonli, ya'ni aqli zaif bolalar uchun xarakterlidir. Tormozlangan, o'ta tashvishli, yangi sharoit va notanish odamlarga moslasha olishda qiynaladigan, nevrotik reaksiya va boshqa ta'sirlardan qo'rqadigan bolalar muloqotga qiyin kirishadilar. Muloqotlardan qochish ko'pincha autik bolalar uchun xosdir, ularda muloqot qilishga talabning yo'qligi bilan o'zini predmetli olamdan chegaralab qo'yganlar;

- rag'bat va ma'qullashga hissiy javob. Ilk yoshdanoq (1-1,5 yoshda) bolalarda ijobiy hissiy ta'sirlar ularda hursandchilik hislarini uyg'otgan. Asabiylashgan bolalarda ham rag'batlar hursandchilik hislarni uyg'otib, vazifani bajarilish natijalarini ko'tarilishiga olib keladi. Befarq munosabat kattalarning bahosiga qiziqmagan yoki rag'batning ma'nosini tushunmagan bolalarda kuzatiladi(masalan, intellektual nuqsonlari ifodalanganlarda);

- talab va tanqidga hissiy javob. Bunda quyidagilar e'tiborga olinadi: bolani tanqidga bo'lgan munosabati, xatosini to'g'irlashga bo'lgan munosabati, xulqini korreksiyalash bo'yicha qat'iy tadbirlar muhimligi;

- faoliyati davomidagi qiyinchilik va omadsizliklarga bo'lgan munosabat. Ilk yoshning oxirlarida (2,5-3 yosh) bolalar o'zlari mustaqil harakatlarining xatolarini topa olish qobiliyatiga ega bo'ladilar, ko'ruv- harakat vaziyatlariga ko'ra quyidagi elementar nutqiy iboralarni ishlatadilar: "shunday-shunday emas", "qanday?", "to'g'ri", "noto'g'ri", "voy", va x.k. xatolarni ko'ribbolalar vazifani xatolarini to'g'irlagan xolda bajarishga urinadilar, kerakli natijaga erishishga harakat qiladilar, kerak bo'lsa kattalardan yordam so'raydilar.

Ilk yoshdagi bolalarni harakat doirasini rivojlanganligini tashxis qilishda umumiy va mayda motorikasini o'rganishni taqozo etadi. Umumiy motorikasini rivojlanganlikni baholash parametrlari bolalarning umum yoshdagi meyoriy harakat doirasini rivojlanganligiga qarab tavsiflanadi:

13 oy –o'zi yuradi;

15 oy- uzoq vaqt yuradi, o'tiradi, zinadan chiqqa oladi, kresloga o'zi o'tiradi, tizzasida tura oladi;

18 oy – zinadan o'zi chiqib tusha oladi, o'yinchoqlarini orqasidan tashiy oladi, yerda yotgan tayoq ustidan xaklay oladi;

21 oy – 15-20 sm kenglik va poldan 15-20 sm balandlik bo'yicha yura oladi;

2 yosh – engashib poldan o'yinchoqni oladi, to'siqlar ustidan xatlay oladi, koptokni oyog'i bilan tepa oladi;

3 yosh – bir oyoqda bir necha soniya tura oladi; tepaga zina bo'ylab chiqishda xar bir zinaga bittadan oyog'ini qo'yadi; pastga tushayotib zinaga ikkala oyog'ini qo'yadi; ikki oyoqda sakraydi; uch g'ildiraqli velosipedni xayday oladi.

Rasm chizish, tugmachalarni taqish, minora (bashnya) qurish kabi vazifalarni bajarish orqali mayda motorikasini rivojlanganlik darajasiga baho berish mumkin. Masalan:

18 oy – shtrixni qaytaradi;

2 yosh – ko'rsatilgan aylana va vertikal chiziqlarni qaytaradi;

2,5 yosh – ikki yoki undan ko'p chiziqlarni chiza oladi;

3 yosh – doirani qarab chizadi, odamning rasmini tanasisiz (boshoyoq) chizadi.

Ushbu yoshdagi bolani psixik rivojlanishini tekshirish xulosa yozish bilan tugallanadi, unda hissiy rivojlanishini ifodalovchi, idrok, nutq va motor sferasi, alohida harakatlarining psixologik tizimi va vazifalarni bajarish xolati sistemasi, shuningdek bolada kuzatilgan xarakterining o'ziga xos tomonlari bo'yicha olingan ma'lumotlar umumlashtiriladi. Psixik rivojlanishida nuqsonlar kuzatilgan bo'lsa xulosada uning psixologik tizimi haqida xarakteristika hamda

uni keyingi hayoti uchun zaruriy korreksiyalash va kompensatsiyalash bo'yicha tavsiyalar beriladi.

1.3. Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologo-pedagogik o'rganish (3-7 yoshgacha)

Maktabgacha yoshdagi bolalarni xolatini tekshirish bo'yicha to'g'ri baholash uchun, bir qator shartlarni hisobga olish zarur:

- tekshiruvlar davomida qulayliklar yaratish, hissiy muloqatga



kirishish;

- yengilroq variantdagi vazifadan boshlab ijobiy bajarilishiga zamin yaratib, eksperiment o'tkazuvchi bilan keyin ham birgalikda ishlashga xoxish uyg'otish;

- charchab qolmasligi uchun so'zli va ko'rgazmali metodikalarni galma-gal berish;

- vazifani o'yinli xarakterda bo'lishi;

- bilish faoliyatini rivojlanish darajasini hisobga olish.

Hissiy munosabatni qurish maqsadida, psixologik tekshiruv bola bilan suhbatlashishdan boshlanadi. Suhbat davomida bilimlarining mumiy zahirasi hamda bolani atrofdagilar haqidagi tasavvuri, vaqt, fazoviy mo'ljal olishi, hissiy hususiyatlari: muloqotga kirishishi, qiziqishlari, sevimli o'yin va mashg'ulotlari aniqlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni diagnostik tekshirishda metodikalarni tanlashda psixologik. yosh hususiyatlarini hisobga olish zarurdir, bularga quyidagilar kiradi: harakatlarining rivojlanish darajasi, ko'rgazmali- obrazli tafakkuri, yetakchi faoliyat-o'yin, shuningdek boshqa faoliyat turlari-rasm chizish va qurish.

4-5 yoshdagi bolalarni tekshirishning asosiy maqsadi ularni fazoviy mo'ljal olish faoliyatining rivojlanish darajasini o'rganish hisoblanadi. Fazoviy mo'ljal olish harakatlari tasavvur etishning birlamchi asosiy tizimi hisoblanadi.

Maktabgacha yoshda fazoviy mo'ljalning quyidagi darajalari ajratiladi:

- xaotik harakatlar;
- variantlarni tanlash;
- maqsad sari yoʻnalgan sinovlar;
- amalda qoʻllab koʻrish;
- koʻruv orintirovkasi.

4-5 yoshdagi intellekti me'yorda rivojlanuvchi bolalar muammoli amaliy vazifali metodikalarni maqsad sari yoʻnalgan sinovlar yordamida deyarli bajaradilar. Ushbu yoshda bolalarda syujetli –oʻyin va syujetli-rolli oʻyinlar rivojlanadi. Bundan tashqari produktiv faoliyat turiga(rasm chizish, qurish va boshqalar) turgʻin qiziqish uygʻotadilar.



6 yoshdagi bolalarni tekshirishda quyidagi psixologik xususiyatlariga e'tibor berish lozim: syujetli –rolli oʻyin; produktiv syujetni ifodalovchi faoliyat turlari. Vazifalarni amaliy barib koʻrish, ba'zi xollarda koʻruv orentirovkasiga tayangan xolda amalga oshirishini ham rivojlanishning muhim koʻrsatkichlari sifatida ham koʻrish mumkin.

7 yoshdagi bolalarni tekshirishdan asosiy maqsad – ularning maktab ta'limiga psixologik tayyorgarligini oʻrganishdir.



Maktabga psixologik tayyor tushuncha o'z ichiga bir necha muhim komponentlarni oladi: aqliy, motivatsion, hissiy-irodaviy va kommunikativ tayyorgarligi (bolani tengdoshlari va yangi kattalar bilan munosabatga kirisha olishi).

Maktabgacha yoshdagilarning aqliy rivojlanishining asosiy parametrlari deb quyidagilarni hisoblash mumkin:

- vazifani tushunishi;
- vazifani shartini tushunish;
- bajarish yo'li (xaotik harakatlar, o'lchab ko'rish, maqsad sari yo'nalgan sinovlar, amaliy qo'llashlar, ko'ruv orentirovkasi);
- tekshiruv davomida o'rganishi;
- natija faoliyatiga munosabati.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni bilish jarayonlarini o'ziga xos xususiyatlarini tashxis qilishda "ta'limiy eksperiment shaqlidagi " maxsus foydalaniladi,



sh
uningdek vazifalar bilim va ko'nikmalarini shakllanganlik darajasini aniqlashga yordam beradi. Bajarilgan vazifalarning natijalari bola faoliyatining xarakterini baholashga yordam beradi: bola amaliy sharoitni muammoli deb hisoblayaptimi, vaziyatni analiz qila olyaptimi, maqsadga erishish uchun o'zi mustaqil yordamchi vositalardan foydalana oladimi. Bolaning harakatlariga bunday yondashib baho berish



rivojlanishining faqatgina “dolzarb” darajasinigina emas, balki potensial, ya'ni yaqin rivojlanish zonasini aniqlashga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida xar bir bola uchun korreksion tarbiyaviy individual dasturni ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Bolani maktabda ta'lim olishiga motivatsion tayyorligini tekshirish uchun turli xil metodikalardan foydalaniladi: bolalarni turli faoliyatlari davomida kuzatish, suhbat.

Maktabgacha yoshdagilarni emotsional-irodaviy sferasidagi xolatining asosiy ko'rsatkichlari quyidagilar xizmat qiladi: xulq-atvor qoidalariga rioya etish, bajargan vazifasi bahosiga to'g'ri adekvat javob qaytarmoq, qiyinchiliklarni yenga olish.

Maktabga psixologik tayyorgarlikning yana bir muhim sharti ba'zi elementar o'quv ko'nikmalarini egallashi-so'zdagi tovush analizi, o'qish, hisoblash ko'nikmalari. Shuningdek qo'lni yozishga tayyor ekanligi, atrof-olam haqida ma'lum bir tasavvur va bilimlarining borligi.

Maktabgacha yoshdagi bolani psixologo-pedagogik o'rganishda muhim komponentlaridan biri uning nutqini tekshirishdir.

Logopedik tekshiruv logopedik amaliyotda umum qabul qilingan nutqiy sistemani o'rganishga qaratilgan metodikalarni o'z ichiga oladi.

Bolaning rivojlanish darajasining muhim ko'rsatkichlaridan biri bu uning o'yin faoliyatidir, uni bahosi esa diagnostik belgilardan biri bo'lishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin –etakchi faoliyatdir, A.N.Leontevning ko'rsatishicha:

- o'yin ichida yangi faoliyat turlari yuzaga keladi hamda differensiatsiyalanadi, masalan o'rganish;
- unda ko'pincha psixik jarayonlar o'rin almashadi;
- hozirgi vaziyatdagi shaxsning asosiy o'zgarishlari unga bog'liqdir.

Bolaning o'yin faoliyati orqali rivojlanishidagi nuqson va kamchiliklarini erta aniqlash mumkin: o'yin bolaning yosh darajasiga mos kelmaydi, yoki o'ziga xos xarakterga ega. Bunda xarakterli ko'rsatkich o'yinni sekin- asta qiyinlashib bormasligi, ijodiy yondashuvning yetarlicha emasligi, o'yinda tashabbuskorlikning pastligi, shuningdek bir xildaliligi, o'yin xarakterini o'zgartiruvchi emotsional reaksiyalarning yo'q yoki pastligi. O'yin faoliyatining shakllanmaganligi psixik rivojlanishni bir qator o'ziga xos xususiyatlarni keltirib chiqaradi.



Bolalarda manipulyasion, protsessual o'yin, syujet elementlari mavjud o'yinlar xarakterlidir.

Manipulyasiyada bola o'zining o'yin faoliyatini amalga oshirmaydi. U o'yinchoqni har tomonlama ko'rib chiqadi, bir joydan ikkinchi joyga qo'yadi, lekin bu harakatlarning barchasi o'sha o'yinchoq uchun xarakterli emasdir (masalan, kubiklarni sochib yuboradi, bir matryoshka bilan ikkinchisini uradi va x.k.).

Protsessual o'yinda o'yin harakatlari takomillashmagan, oxirgi natijaga yo'llanmagan. Bunda harakatlar bolada qanoatlanish xosil qiladi hamda bir necha marotaba qaytarilishi mumkin (mashinani uchirish, kubiklarni maqsadsiz to'p-to'p qurish va x.k.).

Syujet elementlari asosidagi o'yin protsessual o'yindan ongli va maqsad sari yo'nalganligi bilan farqlanadi.

Harakatlarining stereotipligi yo'qolib, oxirgi natija paydo bo'ladi. O'yin faoliyatini o'rganish kuzatuv metodi asosida amalga oshiriladi. Uni maktabgacha ta'limdatabiiy sharoitda yoki psixolog xonasida o'tkazish mumkin. O'yinni

baholashda uning tuzilishi, xarakteri, o'yin davomida bolani so'zli muloqoti kuzatiladi.



Tekshiruv vaqtida bolaga xonadagi o'yinchoqlarni o'ynash hamda ular bilan harakatlarni amalga oshirishga imkon beriladi. Kuzatuv bola o'yinchoqni oldiga yaqinlashganidan boshlanadi. O'yinchoqlarga bo'lgan



emotsional reaksiyasi, ularga bo'lgan qiziqishi, o'ynash xoxishi hamda maqsad sari harakatlarini yo'nalganligi qayd etib boriladi.

Quyidagilar baholanadi:

- o'yinchoqqa bo'lgan qiziqishi(emotsional reaksiyasi hamda ifodalashi, iltimoslari);

- o'yinchoqlarni tanlashi (mavzuga oid tanlov, biron-bir o'yinnitashkillashtirish maqsadida yoki tasodifiy, kattaroq o'yinchoqni olish maqsadida, nima uchun kerakligiga e'tibor);
- o'yinchoqlardan adekvat foydalanish, ya'ni predmetni unga mos bo'lgan xolatda ishlatish(noadekvat foydalanish: bola yirtadi, sindiradi. Yalaydi, so'radi, predmetni og'ziga solishga harakat qiladi, o'yinni maqsadsiz, mantiqsiz olib boradi);
- o'yinni mustaqil tashkil etish darajasi (manipulyasiya, protsessual, syujet elementli o'yin);
- o'yinning xarakteri (bir xillik, ijodiy);
- o'yin faoliyati davomida xulqi(emotsional reaksiyasi, nutqi, boshqa o'yinlarga o'ta olishi, kattalar ishtirokiga munosabati).

Tekshiruv paytida o'yinning yo'qligi rivojlanishda nuqsoni borligini ko'rsatmaydi, chunki bu sharoit bola uchun oddiy emas. O'yinchoqqa bo'lgan munosabat, o'yin darajasini xarakterlaydi. Agar bolada o'yinchoqqa qiziqish bo'lmasa yoki ulardan noadekvat foydalansa, o'yinni o'zi tashkillashtira olmasa, faqatgina kattalar yordamida harakatlarni qaytarsa, uning aqliy rivojlanishi pasaygan deb o'ylash mumkin. 4 yoshdan katta bolalarda syujetli o'yinni ochib bera olmaslik rivojlanishida orqada qolayotganidan dalolat beradi, manipulyasiya darajasidagi o'yin esa rivojlanishdan o'ta orqada qolayotganini bildiradi. Boshqa ko'rsatkichlar bilan birga ushbu o'ziga xos xususiyatlar intellektni pasayganini ko'rsatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologo-pedagogik tekshirish tavsifnoma yozish bilan tugallanadi, rivojlanishdagi o'rganilgan faoliyatlar, shuningdek o'ziga xos xarakteristikasi ifodalanadi.

Nazorat savollari

1. Bir yoshgacha bo'lgan bolalarni psixologik-pedagogik jihatdan o'rganish qanday o'tkaziladi?
2. Ilk yoshdagi bolalarni psixologik-pedagogik tekshirishda nimalarga e'tibor beriladi?
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik-pedagogik jihatdan tekshirishda qanday metodlar qo'llaniladi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ayupova M.Yu. Logopediya «O'zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati» T.: 2007 y.

2. Mo‘minjonova Z., Ziyayeva K., Karimova SH., Xalilova G.lar“Ona tili” yordamchi mehnat ta’limi maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Toshkent: “Artaprint” MCHJ 2005 y.
 3. Po‘latova P.M. va boshqalar. Maxsus pedagogika. T.: «Fan va texnologiyalar», 2014 y.
 - 4.Raxmanova V.S. «Maxsus pedagogika» T.:“G‘.G‘ulom” nashriyoti, 2005 yil.
 5. Психолого-педагогическая диагностика. Под редакцией И.Ю.Левченко и С.Д.Забрамной. М., АСАДЕМА, 2005г.
- www. tdpu. uz
www. pedagog. uz
www. ziyonet. uz
www. lex. uz
www. bilim. uz
www. gov. Uz

3-mavzu: Maktabgacha yoshdagi rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni pedagogik-psixologik o‘rganish (2 soat)

Reja

- 3.1. Og‘zaki nutqini tekshirish
- 3.2. Bog‘langan nutqini baholash
- 3.3. So‘z boyligini baholashning mezonlari
- 3.4. Nutqning grammatik qurilishini baholash
- 3.5. Dudaqlanuvchi bolalar nutqini tekshirish
- 3.6. Dizartrik bolalar nutqini tekshirish

Tayanch iboralar: og‘zaki nutq, lug‘at boyligi, grammatik qurilishi, talaffuz, dizartriya, duduqlanish.

3.1. Og‘zaki nutqini tekshirish

Logopediyada nutqdagi nuqsonlarni taxlil qilish uchun asosiy metodika bo‘lib R.ye.Levina, L.R.Mo‘minova tomonidan ishlab chiqilgan metodika hisoblanadi. Ushbu taxlilning asosida murakkab, ko‘p bosqichli hisoblangan nutqdan foydalanishiga zamonaviy qarash yotadi. Bolada nutqi rivojlanishida ishtirok etadigan komponentlardan biri shakllanmagan bo‘lsa, natijasida o‘zining orqasidan ikkinchi, uchinchi va h.q. komponentlarning o‘zgarishini

keltiradi. Shuning uchun, logopedik tadqiqot nutq tizimining komponentlarini o'rganishni o'z ichiga oladi:

- mustaqil, bog'langan nutq;
- so'z (leksika) boyligi;
- nutqni grammatik qurilishi;
- nutqning talaffuz tomoni (tovushlarni talaffuz qilish, so'zning bo'g'inlari bo'yicha tuzilishi, fonematik idrok etish).

Logopedik tadqiqot davomida aniq maqsadlar qo'yiladi:

- bolaning nutqiy ko'nikmalarining hajmini aniqlash;
 - ko'nikmalarini yoshiga qarab hamda psixik rivojlanishiga qarab solishtirish,
 - nuqsonlar, nutqiy faollik va psixik faoliyatning boshqa ko'rinishlarini solishtirish.
- Dastlab bosqichda logopedik tadqiqot maxsus xujjatlarni o'rganish va ota-ona bilan suhbatlashish bilan boshlanadi. Mazkur bosqichning vazifasi – anamnestik ma'lumotlarni bolani nutqi rivojlanishining davom etishi to'g'risidagi natijalar bilan to'ldirish. Nutq rivojlanishining quyidagi asosiy bosqichlari ajratiladi:
- gugulashning boshlanishi, noaniq g'uvur-g'uvur, birinchi so'z, gap tuzish vaqti;
 - nutqning rivojlanishi to'xtab qolmaganligi (agar to'xtab qolgan bo'lsa, nima sabab bo'lgan va qachon qayta tiklangan);
 - atrofdagilarning so'zlashuvi xarakteri (yaqinlarining so'zlashuvini o'ziga xos xususiyatlari, ikki tillilik, kattalar tomonidan bolaning nutqiga qo'yilgan talablar);
 - bolaning nutqidagi nuqsoniga bo'lgan munosabat;
 - logopedik yordam ko'rsatilganligi va uning natijalari.

Nutqdagi nuqsonlar ba'zilarida eshitish kobiliyati past bo'lishi sababli paydo bo'lishi mumkin bo'lganligi uchun, tekshirilayotgan bolada ushbu qobiliyat yaxshi saqlanganligi haqida ma'lumot bo'lishi lozim.

Eshitishni tekshirishda ovoz chiqaradigan o'yinchoqlardan (nog'ora, childirmacha, mushuk, qushcha) hamda maxsus tanlangan rasmlardan oydalanish tavsiya etiladi. Pichirlab gapirilgan va suhbat qurilgan nutqni bola tomonidan eshita olishini tekshirish lozim. Bola logoped qarshisiga orqasi bilan 6-8 metr masofada turadi. Logoped nafasni to'liq chiqaradi va pichirlab so'zlarni aytadi, bola ularni takrorlashi kerak, masalan, maktab, choynak, mashina, chemodan va h.q. Bola tomonidan bu vaziyatni idrok etish qiyin bo'lsa, logoped o'sha so'zlarni 4 metr, keyin esa 3 metr masofada takrorlaydi. Xulosa qilib bola qaysi masofada pichirlangan gapni eshita olishi ko'rsatiladi.

Eshitish qobiliyati me'yorda bo'lsa bola 6 metr masofada shivirlab gapirilgan so'z va iboralarni eshitishi va takrorlashi kerak. Eshitish qobiliyati tekshirilayotganda ko'rish qobiliyatini ishga solish kerak emas. Shivirlangan so'zlarni bola 3 metr masofada eshitilgan bo'lsa, u holatda eshitish qobiliyatini aniqlab olish maqsadida maxsus maslahatga muhtojlik borligi haqida ko'rsatma beriladi.

Umuman gapira olmaydigan yoki gapirishni endi boshlayotgan bolalarda eshitish qobiliyatini tekshirish anchagina qiyinchilik tug'diradi. Bunday hollarda bolaga tanish bo'lgan predmetlar tasvirlangan rasmlardan foydalanish tavsiya etiladi. Boladan logoped tomonidan aytilgan so'zni takrorlashni emas, unga mos rasmni ko'rsatish so'raladi. Avval logoped bola yonida turib gapiradi, keyin esa uzoqlasha boradi. Eshitish qobiliyati past bo'lsa bola audiometrik tekshirish bo'yicha mutaxassisga yuboriladi.

Nutqni tekshirish bolaning faol (ekspressiv) nutqini tekshirish bilan birgalikda, atrofdagilarning nutqini tushunishini (impressiv) qamrab oladi.

Impressiv nutqni tekshirish bo'yicha asosiy vazifalar:

- logoped tomonidan ko'rsatilayotgan etilgan rasmlardagi predmetlarni, uning qismlarini, sifatini, u bilan bog'liq haraktlarni nomlab berish (so'zlarni tushunishini tekshirish);
- og'zaki aytilgan turli murakkablikdagi ko'rsatmalarni bajarish (gaplarni tushunishini tekshirish);
- logoped tomonidan aytilgan grammatik shaklga mos predmet yoki rasmni tanlash (grammatik shakllarni tushunishini tekshirish);
- matnni qayta gapirib berish, matnga oid savollarga javob berish, shaqli buzilgan matn bilan ishlash va h.q. (matnni tushunishini tekshirish);

Impressiv nutqning shakllanganlik darajasini ta'riflash keyinchalik logopedik xulosada o'z aksini topadi:

- qaratilib so'zlangan nutqni tushunish to'liqlik shakllangan;
- kundalik so'zlangan nutqni tushunish;
- qaratilib so'zlangan nutqni tushunish chegaralangan (vaziyatga qarab);
- qaratilib so'zlangan nutqni tushunmaslik.

Faol (ekspressiv) nutqni tekshirish bola bilan suhbatlashishdan boshlanadi, uning maqsadi fikrini ifodalay olish qobiliyatini umumiy saviyasini aniqlash.

Bola javoblarini suhbat davomida taxlil qilish keyingi bosqich tekshiruvini aniqlash va taxminiy farazni ifodalashga yordam beradi. Bolada elementar iborali nutqning yo'qligi, nutq tizimidagi komponentlarni, nutqning grammatik qurilmasini va fonematik jarayonlarini o'rganishga imkon bermaydi. Agar bola suhbat jarayonida u yoki bu yo'l bilan mustaqil bog'langan

nutqini borligini ifodalasa, uning mustaqil nutqini shakllanganlik darajasi va yosh xususiyatlariga mos kelishini aniqlash kerak. Bunday xollarda nutqni tekshirish an'anaviy tarzda nutq komponentlarining barcha tomonlarini o'rganishni ko'zda tutadi.

Bog'langan nutqini tekshirish suhbat davomida mustaqil nutqini chuqur tekshirishga mo'ljallangan bir qator vazifalarni o'z ichiga oladi:

- suhbat;
- syujetli rasmlar bo'yicha hikoya tuzish;
- qismlarga ajratilgan seriyali syujetli rasmlar asosida hikoya tuzish;
- qayta so'zlab berish;
- tasvirlovchi hikoya tuzish;
- tasavvurlari asosida hikoyani tuzish.

3.2. Bog'langan nutqini tekshirish. Bog'langan nutqini baholash mezonlari

Bog'langan nutqni baholashda shuni esda tutish kerakki, to'rt yoshdagi bolalar endigina oddiy keng tarqalgan gaplarnigina egallay oladilar. 3-4 yoshda bolalar murakkab gaplardan foydalana boshlaydilar. 4 yoshdan so'ng tanish bo'lgan ertakni qayta aytib bera oladilar, bajonidil she'rlarni yod oladilar. 5 yoshda bolalar ikki marotaba eshitgandan so'ng qisqa matnlarni qaytarib ayta oladilar. 5 yoshdan so'ng ko'rgan va eshitganlarini ketma-ketlikda va batafsil aytib, uning sabab va oqibatlarini tushuntira oladilar. 6 yoshdan so'ng bolalar o'zlari mustaqil ravishda ochib berilgan va mantiqiy tuzilishga ega hikoyalar tuza oladilar. Nutqi rivojlanmaganlikning bog'langan nutqini o'ziga xos tomonlari:

- sintaktik tuzilmalarning bir xil va kambag'alligi; bola mustaqil nutqida asosan oddiy gaplardan foydalanadi;
- bir xil turdagi gaplarni kengaytira olmaslik;
- bola predmet yoki hodisalarni ifodalashini chegaralanganligi;
- hikoya qilishning mantiqiy tuzilmasining buzilishi: eng kerakli joyini tashlab ahamiyatsizini aytib beradi;

Keyingi yo'nalishdagi logopedik tekshiruv so'z boyligi zahirasini tekshirishga qaratilgan. Bunda quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- so'z boyligini yosh me'yoriga mos yoki mos emasligi; faol lug'atini xarakterlash (fe'l, sifat, otlarning borligi, nutqning boshqa qismlarida foydalanishi);

- so'zlarni leksik ma'nosini tushungan holda ifodalashini aniqlash;
- Tekshiruv davomida quyidagilarni inobatga olish zarur:

Ot so'z turkumiga oid so'z boyligi:

- predmet va uning qismlarini ifodalovchi otlar (choynak, qopqoq, burun);

- leksik ma'nosi bo'yicha o'xshash otlar (ko'ylak-kamzul);
- umumlashtiruvchi so'zlar (sabzavot, meva, idish-tovoq, kiyim-kechak va h.q.)
- yil fasllarining nomi;
- hayvon va ularning bolalarining nomlari;
- kasb-hunarlarining nomi.

Fe'l turkumiga oid so'z boyligi:

- predmetlarni harakatlarini ifodalovchi so'zlar;
- holat, tuyg'u, xodisalarni ifodalovchi so'zlar.

Fe'llar nafaqat infinitiv shaklida (yugurmoq, yuvmoq, chizmoq), balki zamonlar bo'yicha qo'shimchalar yordamida ham ishlatiladi (yugurdi-yugurib keldi). Sifat so'z turkumiga oid so'z boyligi: Quyidagilarni ifodalovchi sifatlar:

- predmetlarning katta-kichikligini ifodalovchi (baland, past, tor);
- rang (asosiy rang va uning tushlari);
- shakl (doira, tuxumsimon, kvadrat);
- sifat (sutli, yumshoq, silliq);
- mavsum (yozgi, kuzgi, qishki).

Ravish so'z turkumiga oid so'zlar ham olib boriladi: tez, sekin, baland ovozda, balandda). Bular tashqari qarama-qarshi so'zlar (antonimlar) so'z boyligi ham o'rganib chiqiladi.

So'z boyligini o'rganishning eng oddiy yo'li – bu predmetlar va ularning sifatini mavzuli (o'yinchoqlar, mebel, transport) yoki vaziyatbop (do'kon, ustaxona, sinf) omillar bo'yicha maxsus ajratilgan rasmlarning nomini aytib berish.

3.3. So'z boyligini baholashning mezonlari

Leksik imoniyatlarni baholash vaqtida shuni yodda tutish kerakki, bolaning nutqi me'yorida rivojlansa va tarbiya muhiti yaxshi bo'lsa uning so'z boyligi juda tez ko'payib boradi. 3-4 yoshda so'z boyligi 600-2000 so'zdan iborat bo'ladi. Bolalar atrofdagi predmetlarni va hodisalarni to'g'ri nomlashadi, yetarli darajada predmetlarni sifatini, harakatini ifodalovchi so'zlarni bilishadi.

4 yoshda so'zlarni turi va ko'rinishi bo'yicha, antonimlar va sinonimlarni, kichraytiruvchi-erkalovchi so'zlarni yasash qo'shimchalarni (barmoqcha, quyoncha, kuylakcha) o'z nutqida qo'llay oladilar.

5-6 yoshda bolalar o'zlashtirib olgan so'z tuzish ko'nikmasi nutqda predmetlarning sifatini ifodalaydigan so'zlardan foydalanish (temirli, taxtali, plastmassali), hamda boshqa-boshqa so'z turkumlaridagi bir o'zaqli so'zlardan (suzish suzuvchi-suzuvchan) foydalanish.

Nutq buzilishidagi ustun turgan leksik xatolar:

- predmetning bir qismini uning o'zini nomi bilan almashtirib nomlash (yoqa, yeng – kuylak);
- predmet nomini unga mos harakat nomi bilan almashtirib nomlash (bog'lovchi ip - bog'laydigan);
- o'xshash vaziyat yoki tashqi belgilarga qarab predmetni nomini almashtirib nomlash (panama, beret, shlyapa – shapka; kreslo, taburet - stul);
- ko'rinishi bo'yicha emas, turi bo'yicha predmet nomini almashtirib nomlash (moychechak, qo'ng'iroqcha, atirgul - gul);
- predmetning belgisi nomini almashtirib nomlash (tor-tor emas, kalta-kichik, uzun, keng - katta);
- umumiy turshum bop so'zlardan foydalanish (o'yinchoqlar, idish-tovoq, kiyim-kechak, gullar);
- antonimlardan foydalanmaslik, sinonimlarni kam ishlatilishi.

Logopedik tekshirishning muhim tomoni – nutqning grammatik qurilishini shakllanganligini tekshirish. Bular quyidagicha:

- gapning grammatik tuzilishini to'g'riligi;
- otlarning turli kelishik shakllaridan foydalanish xarakteri;
- otlarning birlik va ko'plik sonlardan to'g'ri foydalanish;
- turli so'z turkumlardan to'g'ri foydalanish;
- so'z tuzish va so'zni o'zgartirish ko'nikmalarga egalik darajasi. Nutqning grammatik tuzilishini tekshirish uchun quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:
- syujetli rasmga qarab gap tuzish (gapda so'zlar soni ko'pligi, so'zlar grammatik tartibililigiga qaraladi);
- aniq grammatik shakldagi syujetli rasmlarga qarab gap tuzish (“Bolalar hayvonot bog'ida fil, sher, maymun, olmaxonlarni ko'rishdi”);
- qoldirib ketilgan so'zlarda kelishik qo'shimchalarin to'g'ri qo'llash (“Samolyot o'rmon uchib o'tmoqda”; “Koptok stol yotibdi”);
- Birlik sonda berilgan gapni ko'plik sonda ifoda etish (bitta stol, va ko'p);
- Sifat va sonlarni ot bilan moslashtirish.

Nutqni grammatik tuzilishini o'rganish uchun alohida e'tibor so'zni tuzish ko'nikmasi borligiga qaratish kerak. Bu yerdagi asosiy vazifalar:

- Kichraytirish-erkalatish qo'shimchalari yordamida so'z yasash (stulcha, qoshiqcha);
- sifat so'zni ot so'zdan yaratish (shishadan yasalgan stakan – shishali, taxtadan yasalgan stol - taxtali);

- hayvon bolalarining nomlarini birlik va ko'plikda qo'llash olish (ot – toy, toychalar);

3.4. Nutqning grammatik qurilishini baholash. Nutqning grammatik tuzilishini baholash mezonlari

Nutq grammatik tuzilishini shakllanish darajasini baholash paytida shuni esda tutish kerakki, nutqi me'yorida rivojlanadigan bo'lsa 5 yoshga borib bola ot, sifatlarni birlik va ko'plikda barcha kelishiklarda to'g'ri qo'llay oladi.

Ko'makchi otlar bilan tuzilgan gaplarni o'zlashtirishda bola 3-4 yoshida barcha oddiy ko'makchilarni (yonida, ichida, ustida, tagida, birga, ichidan, yoniga, orqasiga, keyin) to'g'ri qo'llay oladi, gaplashganda ulardan bemalol foydalanadi. 5-6 yoshida bola nutqida murakkab ko'nikmalarni qo'llay oladi.

So'z tuzish bo'yicha birinchi ko'nikmalar 4 yoshda aniqlanadi. Bu kiyraytirish- erkalatish qo'shimchalar yordamida yasalgan otlar.

5 yoshda bolalar sifat va otlarni son bilan birgalikda bosh kelishikda to'g'ri foydalanish shakllanadi.

Nutqning rivojlanmay qolganligidagi grammatik xatolar. Nutqning grammatik vositalardan foydalanish va tushunishdagi nuqsonlar “agrammatizm” termini bilan ifoda topadi.

Impressiv va ekspressiv agrammatizm mavjud. Impressiv agrammatizm

– bola so'zda qo'shimchasi yoki ko'makchisi o'zgarsa so'z ma'nosining o'zgarilishini farqlamaydi. Ekspressiv agrammatizmni quyidagi o'ziga xos grammatik xatoliklar ifodalaydi:

- gapda so'zlar tartibi o'zgarishi (inversiya);
- kelishik qo'shimchalarini noto'g'ri qo'llash;
- ko'makchilarni tashlab ketish yoki noto'g'risiga almashtirish;
- so'z yasash qobiliyati shakllanmaganligi.

Bog'langan nutq, so'z boyligi, nutqni grammatik tuzish bilan birgalikda logopedik tekshirishda tovushlar talaffuzini ham o'rganiladi.

Shu maqsadda, turli xajmdagi va turli tipdagi bo'g'inlardan iborat so'zlar tanlanadi: undosh tovushlar so'zning boshida, o'rtasida va oxirida kelgan so'zlar. Bu so'zlar talaffuz etilganda mustaqil ravishdotalaffuz etish tavsiya etiladi.

So'zning bo'g'in tuzilishini egallash darajasini aniqlash uchun quyidagi vazifalar taqdim etiladi:

turli tuzilishi murakkab so'zlarni logoped ketidan takrorlash (archa, o'rgimchak, shkaf, pushka, qalam, mototsikl, , velosiped va h.q.);

logoped tomonidan maxsus ajratilgan rasmlarni mustaqil ravishda nomlash. So'zlar talaffuziga qarab ajratiladi, tovush so'zning boshida, o'rtasida, oxirida kelishi (sabzi, xassa, gilos);

bo'g'inlari tuzilishi bo'yicha murakkab so'zlardan iborat gaplarni takrorlash (“Kutubxonachi kitoblarni tarqatdi”).

Bo'g'in tuzilishi va talaffuzi qo'pol buzilgan bo'lsa bir qator bo'g'inlardagi tovushlarini o'zgartirib gapirib ko'rish tavsiya etiladi:

- har xil unli va undosh tovushlar (tamoku);
- har xil undosh, lekin bir xil unli tovushlar (mabata);
- har xil unli, lekin bir xil undosh tovushlar (kakoku);
- so'zni ritmik tasvirini taqqilatib ifoda etish.

Nutqi rivojlanmagan bolalarda so'zning bo'g'in tuzilishidagi xatoliklari:

- bo'g'inlar sonini kamaytirilishi, ko'proq – undoshlar ikkita bo'lib kelganda (tol-stol);
- ortiqcha tovushlar va bo'g'inlarni qo'shish (limont-limon);
- tovush va bo'g'inlarni o'rnini almashtirish (kalakpa);
- tovush va bo'g'inlarni o'zgartirish (saf-shkaf);
- bo'g'inlar qolib ketishi (xokechi-xokeychi);
- antitsipatsiya (astobus-avtobus).

Nutq faoliyatini o'rganish tizimining muhim ajralmas qismi - bu nutqning nafaqat ifoda etish tomonlarini, balki tovushlarni idrok etish darajasini o'rganuvchi tovush chiqazish jarayonini tekshirishdir.

Avval artikulyasion apparatning: lab, til, tish, jag', tanglaylarning tuzilishini va harakatchanligini ko'rib chiqish kerak. Ularning me'yorga mosligi aniqlanishi kerak. Tekshirish jarayonida quyidagi anomal vaziyatlar uchrashi mumkin:

- lablar - qalin, ingichka, kalta;
- tishlar - siyrak, qiyshiq, mayda, jag' aylanmasidan tashqarida, yiriq, orasida ochiq joy yo'q, ochiq joy katta; tepa yo past kurak tishlar yo'q;
- jag' (tishlam) – ochiq oldinga chiqqan, ochiq bir tomonga og'gan, prognatiya (tepa jag' oldinga chiqqan), progeniya (past jag' oldinga chiqqan);
- tanglay – baland, gotik, tor, silliq, kalta, past;
- til – keng, kichik, tor.

Artikulyasiya a'zolarini harakatchanligini tekshirish uchun bolaga quyidagi topshiriqlar beriladi:

- lablarni til bilan yalab olish;
- tilni burunga, iyakka, chap, keyin esa o'ng quloqqa yetkazish;
- tilni cho'lpillatmoq,
- tilni kengaytirish, keyin esa torlashtirish,
- til uchini og'izdan chiqarib tepaga ko'tarish va shu holatda uzoqroq ushab turish,
- til uchini labning chap burchagiga, keyin o'ng burchagiga tekkizish, ritmni o'zgartirib turish,
- lablarni oldinga qarab cho'chchaytirish, keyin esa tabassum qilib

kengaytirish.

Bunda artikulyasiya a'zolarining harakatida erkinlik va tezlik, ravonlik, hamda bir harakatdan ikkinchi harakatga o'tish qanchalik yengil bo'lishi kuzatiladi.

Tovushlarni talaffuz etilishini tekshirish paytida bolaning u yoki bu tovushni o'zini alohida talaffuz etish va ulardan mustaqil nutqda foydalanish ko'nikmasi aniqlanadi. Tovushlarni talaffuz qilishning kamchiliklarini belgilab olish kerak: almashtirish, buzib talaffuz qilish yoki ba'zilarida tovushlar tushib qolishi.

So'zlardagi tovushlarni talaffuz etilishini tekshirish uchun predmetlar tasvirlangan maxsus rasmlar to'plami kerak bo'ladi. Tovushni talaffuz qilinishini tekshirishning eng oson yo'li quyidagicha: bolaga predmetlar tasvirlangan rasmlar taqdim etiladi, ularning nomlanishida tekshirilayotgan tovush turli o'rinda, ya'ni so'zning boshida, oxirida, o'rtasida va undoshlar orasida joylashgan bo'lishi kerak.

Keyin bola ushbu tovushlarni qanchalik to'g'ri talaffuz etishi tekshiriladi. Buning uchun bolaga tegishli tovush takrorlanishi mumkin bo'lgan ketma-ket bir nechta jumlani talaffuz etish so'raladi.

Fonematik idrok qilinishni tekshirish davomida bola alohida olingan tovushlarni ajrata olishini aniqlash kerak. Birinchi navbatda, bu artikulyasiya yoki eshitilishi bo'yicha bir biriga yaqin tovushlarga tegishli:

- sirg'aluvchi va shovqinli tovushlar (sa-sha, za-ja, sa-za, sa-sa, sa-cha va h.q.);
- jarangli va jarangsiz tovushlar (ta-da, pa-ba, ga-ka va h.q.);
- sonor tovushlar (ra-la, ri-li va h.q.);

Bunda asosiy usul bo'lib logoped orqasidan turli qarama-qarshi, sa-sha, sha-sa, ach-ash, ra-la, sha-ja va h.q. bo'g'inlarni takrorlab borish hisoblanadi. Boladan berilgan tovushni eshitgan zahoti u imo-ishora (qo'lni ko'tarish, chapak chalish) yordamida javob berish so'raladi.

Fonematik idrok qilishni o'rganish paytida jaranglashi bo'yicha yaqin bo'lgan so'zlarni ajrata olish qobiliyati aniqlanadi: moy-loy-toy, sim-shim. Bu maqsadda bolaga tegishli rasmni tanlab olish yoki har bir juftlikni ma'nosini ifoda etish so'raladi.

Nutqni kompleks o'rganish natijalari logopedik xulosada, rivojlanish darajasi va nutq nuqsonining shaqli ko'rsatilgan beriladi (dizartrik bolada nutqning to'liq rivojlanmaganligining (NTR) 3 darajasi; alaliyali bolada (nutqning to'liq rivojlanmaganligining) NTR 2 darajasi, ochiq rinolaliyali bolada NTR 2-3 darajalari va x.k.).

Logopedik xulosa nutqning holatini ochib beradi hamda boladagi o'ziga xos qiyinchiliklarni bartaraf etishga yo'nalgan bo'ladi. Bu individual yondashuvni frontal va guruhli mashg'ulotlarda to'g'ri tashkil etishda muhimdir.

3.5. Duduqlanuvchi bolalar nutqini tekshirish Duduqlanishni tekshirish kompleks tarzda o'tkazilishi joiz. U bolani psixologik-pedagogik va logopedik tomondan tekshirish hamda tibbiy tekshirish natijalari taxlilini o'z ichiga olishi joiz.

Duduqlanishni logopedik tekshirish, uni natijalarini qayd etish quyidagi ketma-ketlikda aks ettirish mumkin:

1. Umumiy ma'lumotlar:

1.F.I.Sh.

2.Tug'ilgan sanasi (yil, oy, kun).

3. Uy adresi, telefon.

4. Bolani tarbiyalanish yoki ta'lim olish joyi. 5. Ota-onaning F.I.Sh., yoshi, ish joyi va kasbi. 6.Oilasining tuzilishi.

7. Ota-onaning shikoyati.

II.Anamnez ma'lumotlarini yig'ish

1. Irsiyati.

2. Onaning homiladorlik va tug'ruq davrini kechishi.

3. 1-yoshgacha bo'lgan davridagi rivojlanish xususiyatlari.

4. Maktabgacha yosh davr xususiyatlari.

- Nutqiy anamnez
- Bolani tarbiyalanish shart-sharoitlari
- Duduqlanishni rivojlanishi
- Oiladagi psixologik muhit, o'zaro munosabat xususiyatlari

III. Mutaxassislar xulosasi tahlili

IV. Duduqlanuvchi bolaning psixologik-pedagogik tavsifnomasi

V. Mayda qo'l motorikasi va barmoqlarni nozik harakatlari, mimika va artikulyasion motorika holatini tekshirish

1. *Statik koordinatsiya*

2. *Dinamik koordinatsiya*

3. *Harakatlarni bir vaqtda bajarilishi*

4. *Barmoqlarni nozik harakatlarini tekshirish*

5. *Mimikaning ixtiyoriy harakatlarini tekshirish*

6. *Artikulyasion motorika holatini tekshirish*

VI.Nutqiy funksiyani tekshirish

1.Artikulyasiya a'zolarining anatomik tuzilishi.

2. Tovush talaffuzi, fonematik eshituvni, so'zni tovush-bo'g'in tuzilishini,

soʻzni tovush tuzilishini analiz va sintez qilish koʻnikma va malakalarini tekshirish.

3. Nutqni leksik tomonini tekshirish — lugʻat boyligining miqdor va sifati hususiyatlarini tekshirish.

4. Nutqni grammatik tomonini tekshirish — qoʻllaniladigan gap shakllari, agrammatizmlarni mavjudligi, ularni namoyon boʻlishi, bogʻlangan nutq shakllanganligi.

5. Nutqiy hulq-atvor hususiyatlari. Aloqaga kirishimligi, nutqiy faolligi, vazminligi, impulsivligi, atrofdagi sharoit oʻzgarishiga reaksiyasining oʻziga hos hususiyatlari (nutqiy jarayonlarni dinamikligi va oʻz vaqtidaligi, muloqot mavzusini oʻzgarishiga egiluvchanlik hususiyatlari), nutqni tashkil etish hususiyatlari.

6. Nutq tempi

7. Ovoz

8. Nafas

9. Duduqlanishni hilma-hil nutq turlarida namoyon boʻlish hususiyatlari

10. Muskul-pay tortishish turi

11. Muskul-pay tortishish joyi

12. “Qiyin” tovushlarni mavjudligi (tovushfobiyasi)

13. Nutqiy nayranglarni mavjudligi: (soʻzlarni almashtirish; soʻzlarni joyini oʻzgartirish; embolofraziyalar; nutqiy muloqotni ixtiyoriy tarzda cheklash).

14. Ixtiyorsiz harakatlarni mavjudligi va ularning xarakteri

15. Duduqlanishni kuchaytiruvchi omillar: hayajonlanish, toliqish, notanishlar bilan suhbatlashish, shovqin va h.z.

16. Nutqga ijobiy taʼsir etuvchi omillar: shovqin, oʻzini nazorat qilish, diqqatni koʻchirish, nutqni harakat bilan uygʻunlashtirish.

17. Nutqiy nuqsonga munosabati: adekvat, noadekvat, shaxsni qadr-qimmatini tizimiga taʼsir etuvchi (sverxsennoe)

18. Logofobiyaning mavjudligi: vaziyat tanlovli, umumiy va h.z.

19. Duduqlanish namoyon boʻlmaydigan davrlar mavjudligi: doimiylik va davomiylik.

20. Hissiy holatni duduqlanishga taʼsiri.

21. Duduqlanishni kechishi: progradient; regredient, stasionar, toʻlqinsimon.

22. Duduqlanish bilan birga keluvchi nutq nuqsonlarini mavjudligi.

23. Muskul-pay tortishish darajasini aniqlash: engil, oʻrta, ogʻir, duduqlanish sababli soʻzlashni umuman amalga oshirish mumkin boʻlmagan holatlar.

Xulosa Tavsiyalar

Duduqlanuvchi bolani tekshirish natijalari logoped tomonidan psixologik-pedagogik xulosa shaklida umumlashtiriladi. Xulosada duduqlanuvchi bolani me'yordan chetga chiqish holatlarini belgilovchi ma'lumotlarini aks ettirish joiz.

Logoped xulosasida quyidagilar aks etishi joiz:

- MATni organig jarohatlanish belgilarini mavjudlig (tibbiy xulosa asosida);
- Muskel-pay tortishish shakli (tonik, klonik, aralash);
- Muskel-pay tortishish joyi (nafas, ovoz, artikulyasiya a'zolari, aralash);
- Duduqlanish darajasi (yengil, o'rta, og'ir);
- Nutq tempi (sekinlashgan, tezlashgan, juda tez gapirish, taxilaliyaning mavjudligi);
- motor funksiya holari;
- Hissiy holatni duduqlanishga ta'siri; duduqlanish jarayonida hayajonlanishni mavjudligi, hayajonlanishga reaksiya.
- Logofobiyaning mavjudligi;
- Nutqiy va harakatli nayranglar, embolofraziyalar, nutq uslubini o'zgarishi;
- Boshqa nutq nuqsonlarini mavjudligi (dislaliya, dizartriya yengil shakllari, NTR);
- Duduqlanuvchi bolani individual-psixologik xususiyatlari, o'yin faoliyatining xususiyatlari, o'quv faoliyatiga munosabati.
- Duduqlanish namoyon bo'ladigan vaziyatlar doirasi (barcha vaziyatlarda, aksariyat vaziyatlarda, ba'zilarida).

Shu asosida logoped duduqlanishni klinik shakllarini ajratish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xulosalardan lavxalar:

1-namuna

Duduqlanish bolaning me'yordagi psixik-motor rivojlanish fonida 2 yoshu 5 oyligida qo'rquvdan keyin o'tkir boshlangan, nutqning fonetik, leksik-grammatik tomonini rivojlanishi yoshiga mos. Muskel-pay tortishishi artikulyasion-nafas a'zolarida, tono-klonik tipda, o'rta darajada namoyon bo'lmoqda. Nevrotik shakldagi duduqlanish.

2- namuna

Tibbiy hujjarlarga ko'ra MATni organik jarohatini rezidual holatlari namoyon bo'ladi. Duduqlanish psixik-motor va nutqiy rivojlanishni orqada qolish fonida 3 yoshu 10 oyligida asta-sekin yuzaga kelgan, Muskel-pay tortishishi artikulyasion-nafas-ovoz a'zolarida, tono-klonik tipda, yengil

darajada namoyon bo'lmoqda. yengil darajadagi dizartriya kuzatilmoqda. Nevrozsimon shakldagi duduqlanish.

3.6. Dizartirik bolalar nutqini tekshirish

Dizartriya-bu nutq apparatining innervatsiyasini yetarlicha emasligidan, nutqning talaffuz tomonini buzilishidir. Dizartiriyada yetakchi nuqson markaziy va periferik nerv tizimini organik jarohatlanishi atijasida nutqning talaffuz tomonini buzilishidir. Dizartiriyada talaffuz tomondagi nuqsonlar nerv tizimidagi jarohatning chuqur va xarakteriga ko'ra turli darajalarda namoyon bo'ladi. yengil hollarda tovushlarnibuzib, noto'g'ri talaffuz etish, og'ir hollarda esa tovushlarni almashtirish, tushirib qoldirish, nutq tempning, ifodaliligini yo'qligi. Xullas, talaffuz tushunarsiz bo'lib qoladi.

Dizartirik bolalarni logopedik tekshiruv, umumtizimli yondashuv asosida qurilgan bo'lib, nutqiy xamda nutqsiz o'ziga xos tomonlarini, bola va uning yoshini umum psixo-nevrologik holatini e'tiborga olgan xolda logopedlar tomonidan ishlab chiqiladi. Bolaning yoshi qanchalik kichik bo'lsa uning nutqiy rivojlanish darajasi shunchalik past bo'lib, uning nutqsiz nuqsonlarini analiz qilib tashhis qo'yish katta ahamiyat kasb etadi.

Xozirgi kunda nutqsiz nuqsonlarni baholashda dizartriyaning erta tashhis qilish vositalari ishlab chiqilgan. Dizartiriyaning ko'pincha birinchi ko'rinishlari, xattoki buni yangi tug'ilgan chaqqaloqlarda ham ko'rish mumkin psevdobulbar sindromidir. Yig'lashining past yoki umuman yo'qligi(afoniya), emish, yutishining buzilishi, ba'zi tug'ma reflekslarning sustligi yoki yo'qligi(emish, izlash, kaft-og'iz-bosh). Bunday bolalarning baqirig'i uzoq vaqt past, ko'pincha burun orqali chiqadi, ba'zi hollarda nafas chiqarish vaqtida hiqillashlar kuzatiladi.

Bolalar ko'krakni yomon oladilar, emish vaqtida tiqilib qoladilar, ko'karadilar, ba'zida sut burunlaridan oqib chiqadi. Og'ir xollarda bolalar hayotining birinchi kunlarida umuman ko'krakni olmaydilar, ularni zond orqali ovqatlantiradilar, bunda esa yutish refleksini buzilishi kuzatiladi. Yuzaki, tez, bir ritmsiz nafas oladilar. Bu buzilishlar yuz asimmetriyasi bilan bog'liq bo'lib, og'izning bir tomonidan sutni oqib ketishi, pastki labning osilib yotishi natijasida ko'krak uchini ushlay olmasliklar kuzatiladi.

Gu-gulashi ham bir xilligi va kech namoyon bo'lishi bilan ajralib turadi. Bola uzoq vaqt chaynay, tishlay olmaydi, qattiq ovqatga tiqiladi, piyoladan choy icha olmaydi. Tug'ilgan paytidagi tug'ma shartsiz reflekslarning yo'qligi yoshi katta bo'lgan sari o'z ta'sirini ko'rsatib, ixtiyoriy artikulyasion motorikani ivojlanishini qiyinlashtiradi. Nutkiy simptomlarda katta buzilishlar-talaffuz nuqsonlarining turg'unligi, ixtiyoriy artikulyasion xarakatlarni yetarlicha emasligi, ovoz reaksiyalari, og'iz bo'shlig'ida tilning noto'g'ri holati, kuch ishlatib

xarakatlantirishi, ovoz va nutqiy nafasning buzilishi, nutq iivojlanishini orqada qolishi kuzatiladi.

Dizartrik bolalarni har bir yoshini tekshirishda mimik muskulaturasini xolatini kuzatishdan bolash muhim ahamiyatga ega. Mimik muskulaturasini tinch xolatidan boshlab tekshirish boshlanadi. Bunda burun-lab bo'g'imlari ifodalanishi xamda ularning simmetrikliligi, lab chiziqlarining qalinligi va yumilishi qay etib boriladi. Mimik muskulaturada kuch ishlatib harakatlantirish (giperkinez) xolatlarining borligi aniqlashtiriladi. Bolada og'zini yopib tura olishi, ko'zlarini yumishi(ikkalasini hamda alohida-alohida), qoshlarini chimirishi, kelishib xarakatlanishlarni namoyon bo'lishi kuzatiladi(sinkineziya).

Harakat funksiyalarini tekshirish turli xil yuklamalar hamda ko'p marotaba takrorlashlar orqali o'tkazish tavsiya etiladi. Bunda xar bir xarakatning to'liq yoki to'liq bajarilmaganlik sifatleri kuzatiladi. Oxirgi xollarda xarakatlardan to'xtashi, xarakatlarini toliqishi, uning temp va ravonligini o'zgarishi, xajmi, boshqa xarakatlarni qo'shishi qay etib boriladi. Bunday yuklamalardan dizartriyaga xos bo'lgan so'lak oqishlari kuzatilishi mumkin.

Keyin logoped artikulyasion xarakterdagi o'ziga xos xususiyatlarni kuzatishga o'tadi (tishlamning (prikusning) noto'g'rililigi, til yuganchasining kaltaligi, tanglayning kubaga o'xshashi).

Tekshiruv artikulyasion apparat motorikasining quyidagi komponentlarini o'rganishdan boshlanadi:

- lab xarakatlari: ochish va yopish, irjayish, oldinga cho'zish;
- pastki va tepa jag'larining xarakati: og'izni ochib, yopishi;
- til harakati: oldinga-orqaga, tepaga-pastga, chapga-o'ngga, tashqariga chiqarishi;
- yumshoq tanglayning xolati: yumshoq tanglayni "a" tovushini kuchli aytilganda ko'tarilishi, unli tovushlarni talaffuz qilganda burun orqali havo oqimini chiqish yoki chiqmasligi, chiqishining bir maromdaligi, yutish refleksini bor yoki yo'qligi (shpatel bilan yumshoq tanglayga tekizganda chaynash xarakatlarini namoyon bo'lishi).

Bulbar paralichni o'tkir xollarida lab, til va boshqa artikulyasion organlarning erkin xarakatlarining yo'qligi; bundayxollarda ba'zi reflektor harakatlarni aniqlash mumkin. Masalan, labini kulgi holatiga keltirish, shpatel bilan tekizilganda tilini tortib olishi, yo'talganda yumshoq tanglayni xarakatlanishi, esnashi va x.k.

Ovoz bog'lamlarining va yumshoq tanglay falajini nafas hamda ovoz xosil bo'lishida ifodalanishi. Ovozni burun orqali chiqishi kuzatiladi. Odatda nafas olish, chiqarish yuzaki, tekis emas.

Tovushlarni talaffuz etishini umumqabul etilgan metodikalar orqali tekshiriladi. Shuningdek bunda artikulyasiyaning o'ziga xos xususiyatlari, xarakatlarining aniqliligi, kiruvchi tovush artikulyasiyalarining tartibi, bir tovushdan ikkinchi tovushga o'tishning bir maromdaliligi, qo'shimcha tovushlarni ifodalanishi belgilanadi. Tovushlar talaffuzidagi nuqsonlardan tashqari so'zlardagi bo'g'in tuzilmalarini egallash darajasiga diqqatni qaratish lozim.

Tovushlar talaffuzi tekshirilgandan so'ng tovushlarni farqlay olishning o'ziga xos xususiyatlari aniqlanadi. Bolaga logoped ketidan bir qator oppozitsion tovushli bo'g'inlarni qaytarish taklif etiladi, masalan: ta-da-ta, sha-sa-sha, ra-la-ra. Ushbu tovushlarni bolalar ko'pincha talaffuz eta olmaganligi uchun u tovushlarni talaffuz etirishga emas ularni ajratishga xamda tanishiga diqqat qaratiladi.

Dizartrik bolalarni tekshirishda ko'pincha uchraydigan undosh tovushlarni ajratishinigina emas, balki unlilarni aralashtirib yuborish xususiyatlarini ham aniqlashi lozim (ular odatda artikulyasiyasini differensiyasini yomon qiladilar).

NTR bolalar uchun ishlab chiqilgan vositalar yordamida nutqning leksik-grammatik tomonini rivojlanish darajasi tekshiriladi.

Dizartrik bolalarni leksik tomonini tekshirishda predmetlarni nomlashdagi qiyinchiliklarni e'tiborga olish kerak. Shuning uchun bola biron-bir predmetni nomlamasa, ushbu so'z uning passiv lug'atida bor yoki yo'qligi tekshiriladi.

Tekshirishlar natijasida logoped faqatgina artikulyasion nuqsonlar va tovushlar talaffuzinigina emas, balki nutqning umumiy rivojlanish darajasi haqida tasavvurga ega bo'ladi.

Tashxis shifokor va logoped bilan birgalikda qo'yiladi. Dizartrik bolalarni nutqiy xaritasida tibbiy tashxis bilan birgalikda, logoped dizartrikning imkoniyatlarini e'tiborga olib nutqiy nuqsonlariga tizimli analiz qilgan xolda xulosalaydi. Masalan:

- psevdobulbar dizartriya, fonetik nuqsonli;
- psevdobulbar dizartriya, nutqning fonetik-fonematik tomondan rivojlanmaganligi;
- psevdobulbar dizartriya, fonetik-fonematik rivojlanmaganlik, artikulyar- akustik disgrafiya (bu variant o'quvchilarda uchrashi mumkin).
- psevdobulbar dizartriya, nutqning to'liq rivojlanmaganligi (III daraja).

Nazorat savollari

1. Bolalarning og'zaki nutqini tekshirishda nutq tizimining qaysi

komponentlarini o'rganishni nazarda tutadi?

2. Bolalar nutqini tekshirishda qanday vositalardan foydalaniladi?

3. Duduqlanuvchi bolalar nutqini tekshirishda asosan nimalarga diqqatni qaratish lozim?

4. Dizartrik bolalar nutqini tekshirishda nutq harakatlari

funksiyalarining o'rganishning xususiyatlari nimalardan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ayupova M.Yu. Logopediya «O'zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati» T.: 2007 y.

2. Mo'minjonova Z., Ziyayeva K., Karimova SH., Xalilova G.lar "Ona tili" yordamchi mehnat ta'limi maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Toshkent: "Artaprint" MCHJ 2005 y.

3. Po'latova P.M. va boshqalar. Maxsus pedagogika. T.: «Fan va texnologiyalar», 2014 y.

4. Raxmanova V.S. «Maxsus pedagogika» T.: "G'.G'ulom" nashriyoti, 2005 yil.

5. Психолого-педагогическая диагностика. Под редакцией И.Ю.Левченко и С.Д.Забрамной. М., АСАДЕМА, 2005 г.

1. www. tdp. uz

2. www. pedagog. uz 3. www. ziyonet. uz

4. www. lex. uz

www. bilim. uz

4-mavzu Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni nazariy va amaliy logopedik tekshirish

Reja

4.1. Bolalar nutq buzilishlari xususiyatlari

4.2. Nutq kamchiliklari haqida tushuncha va nutqning buzilish sabablari..

4.3. Bolalardagi nutq kamchiliklarini tekshirish va aniqlashning sistemali usullari.

Tayanch iboralar: tashxis, rivojlanishdagi nuqsonlarni differensial tashxis qilish, fenomenologik, kompleks o'rganish, erta tashxis.

4.1 Bolalar nutq buzilishlari xususiyatlari

Insonning eng muxim xususiyatlaridan biri uning so'zlash qobiliyatidir. Ravon nutq orqali ifodalangan fikr tushunarli va yoqimlidir. Nutq insonning

murakkab oliy psixik funksiyalaridan biridir.

Nutq harakatlari murakkab a'zolar tizimi orkali amalga oshiriladiki, bunda bosh miya faoliyati asosiy rol o'ynaydi, nutq fakat inson uchun xos bo'lgan alohida va yuqori darajadagi aloqa shaklidir, nutqiy aloqa jarayonida kishilar fikr almashadilar va bir – birlariga ta'sir etadilar. Nutqiy aloqa til orqali amalga oshiriladi, til – bu fonetik, leksik va grammatik vositalar tizimidir, odam nutqi tushunarli va ma'noli bo'lishi uchun nutq a'zolarining xarakatlari aniq va to'g'ri bo'lishi kera.

Nutq talaffuzi mexanizmi harakatini tushunish uchun nutq apparatining tuzilishini yaxshi bilish zarur. Nutq buzilishlari uzoq yillar davomida o'rganilib kelayotgan sohadir. Nutq normasi deganda nutq faoliyati jarayonidagi til ishlatilishining umumiy qabul qilingan variantlari tushuniladi.

Nutqning normal faoliyati holatida uning psixofiziologik mexanizmlari saqlangan bo'ladi. Nutq buzilishlari gapiruvchi shaxsning ma'lum til muhitida qabul qilingan, nutq faoliyati normal holda ishlayotgan psixofiziologik mexanizmlarning zaiflashuviga bog'liq holda til normalaridan chetlashuvi bilan belgilanadi. Kommunikativ nazariya nuqtai nazaridan qaraganda, nutq buzilishlari bu aloqa vositasining buzilishidir. Bunda individ bilan jamiyat orasidagi nutqiy muomalada ko'zga tashlanadigan o'zaro munosabatlarning buzilgani ma'lum bo'ladi.

Nutq buzilishlari quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- so'zlovchining yoshiga nomuvofiqlik xususiyati;
- shevachilik, nutqiy savodsizlik, til bilmaslikning ifodasi bo'lmagan xususiyatlar;
- nutqning psixofiziologik mexanizmlaridagi chetlashish bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlar;
- o'z-o'zidan yo'qolmaydigan, balki mustahkamlanadigan barqaror xususiyatlar;
- nutq buzilishining xarakteriga bog'liq holda mustahkamlanadigan barqaror xususiyatlar;
- bolaning keyingi psixik rivojlanishiga tez-tez salbiy ta'sir o'tkazadigan xususiyatlar.

Bunday tarif nutq buzilishlarini nutqning yoshga bog'liq xususiyatlaridan, uning bolalarda va kattalarda vaqtinchalik buzilishidan; nutqning territorial dialektli va sosial-madaniy omillari bilan bog'liq xususiyatlaridan farqlash imkoniyat yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonunning 23 moddasiga ko'ra rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchiliklarga ega bo'lgan anomal bolalar ta'lim olish huquqiga ega.

Bizning mamlakatimizda anomal bolalarga yordamni tashkil etish – inson haqida g'amxo'rlik ko'rsatilishining yorqin namunalaridan biridir. O'zbekistonda anomal va nogiron bolalarga yordamni tashkil etish maxsus maktab internatlar, zaif eshituvchi bolalar uchun maktab internatlari; aqlan zaif bolalar uchun maktabgacha tarbiya muassasalari o'quv kuni uzaytirilgan maktablar, maktab-internatlar,

profesional mehnat kolejlarida maxsus guruxlar; zaif ko'ruvchi va zaif eshituvchi, og'ir nutq nuqsonlari bor bolalar uchun maktabgacha tarbiya muassasalari, maxsus maktab internatlar, o'rta umumiy ta'lim maktablari qoshida nutqiy sinflar; ruqiy rivojlanishi sustlashgan bolalar uchun o'rta umumiy ta'lim maktablari qoshida tenglashtirish sinflari, maktab internatlar; xarakat-tayanch a'zolari jaroxatlangan bolalar muassasalari, maktab-internat; o'rta umumiy ta'lim maktablari qoshida logopedik punktlar ishlab turibdi.

Sog'liqni saqlash vazirligi qoshida anomal bolalarga tibbiy yordam ko'rsatadigan maxsus psixonevrologiya sanatoriylari, stasionarlar bor, poliklinikalarda surdologik, logopedik kabinetlarda mutaxassis-defektologlar tibbiy xodimlar bilan hamkorlikda tegishli ishlarni olib bormoqdalar. Og'ir nutq nuqsonlari bor bolalar uchun xalq maorifi ministrligi qoshida maktabgacha yoshdagi bolalarga mo'ljallab, nutqiy bog'chalar yoki bolalar bog'chalari qoshida nutqiy guruxlar tashkil etilgan.

Bu turdagi maxsus bog'chalarning asosiy vazifasi nutq kamchiliklarini iloji boricha barvaqt aniqlab ularni bartaraf etish va shu yo'l bilan og'ir nutq nuqsonlarining odini olish, ikkilamchi asoratni bartaraf etishdir. Maktab yoshidagi logopat, ya'ni nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar uchun ommaviy umumiy ta'lim maktablarida logopedik punktlar tashkil etilgan. Tekshirishlar natijalari logopedik xulosalarda yakunlanadi. Logopedik xulosalar asosida bola bilan olib borilishi kerak bo'lgan chora –tadbirlar, reja tuziladi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar me'yorda rivojlanayotgan tengdoshlari orasidagi xarakterli farqlardan biri – ruhiy jarayonlarning etarli rivojlanmasligi hisoblanadi. Rivojlanishi orqada qolgan bolalarning umumiy tavsifi uning verbal imkoniyatlari doimo past ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, bola nutqining rivojlanish darajalari va intellekti orasida o'zaro murakkab munosabatlar hukm suradi. Maxsus usullar yordamiad bolalarni faqat lozim bo'lgan so'zlarning ma'nosini tushuntiribgina qolmasdan, balki undan o'z nutqida faod qo'llashga o'rgatib boriladi.

Bilish faoliyatining holati, atrofdagilar bilan bolaning muloqatga kirishish imkoniyati, odob – axloq normalarini o'zlashtirish, ijtimoiy adaptasiyaning muvaffaqiyatli bo'lishi ko'p jihatdan bola nutqining rivojlanish darajasiga bog'liq. Nutqida nuqsoni bor bolalar bilan olib boriladigan ta'lim tarbiya jarayonida bolalar quyidagi bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurollantiriladi:

- Bolalarni nutq kamchiliklarini bartaraf etish va shu bilan birga idrok, xotira, tafakkur, tasavvur kabi bilish qobiliyatlarini rivojlantirish;
- Korreksion – pedagogik ish faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish;
- Bu jarayonda qo'llaniladigan ish metod va usullarini analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, konkretlashtirish kabi aqliy operatsiyalardan foydalanish;
- Bolalarning individual va psixik xususiyatlarini hisobga olgan holda nutq o'qitishga qaratilgan maxsus usullardan foydalanish va ularni hayotga moslashtirish;

4.2 Nutq kamchiliklari haqida tushuncha va nutqning buzilish sabablari..

Bolaning nutqi kattalar nutqi asosida rivojlanib boradi. Nutqning to'g'ri shakllanishi atrofdegilar nutqiga, nutqiy tajribaga, to'g'ri nutq muhiti va ta'lim-tarbiyaga bog'liq. Nutq tug'ma qobiliyat emas, balki hayot davomida bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishi bilan parallel ravishda shakllanib boradi.

Nutq buzilishlarini o'rganish, tushunish uchun bola nutqining normal rivojlanish yo'lini, bu jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini, nutqning muvaffaqiyatli shakllanishida katta rol o'ynovchi sharoitni bilish lozim.

Bundan tashqari bola nutqining rivojlanish davrlarini aniq bilish zarur. Bu esa nutqning rivojlanishi jarayonidagi u yoki bu kamchiliklarni o'z vaqtida bilish va aniqlash uchun kerak bo'ladi.

G.L.Rozengrad-Pupko bolada nutq rivojlanishini ikki davrga ajratadi:

- 1) tayyorlov davri (2 yoshgacha);
- 2) nutqning mustaqil shakllanish davri.

A.N.Leontev bola nutqining shakllanishini 4 davrga bo'lib ko'rsatadi:

- 1) tayyorgarlik davri – bola tug'ilgandan bir yoshgacha;

- 2) bog'chagacha bo'lgan davr – 3 yoshgacha;

- 3) maktabgacha bo'lgan davr – 7 yoshgacha;

- 4) maktab davri.

Bola tug'ilgan daqiqadan boshlab ovoz chiqaradi. Bu ovoz qichqiriq va yig'idan iborat bo'ladi. To'g'ri, bu ovoz odam nutqidan uzoq. Lekin ana shu qichqiriq va yig'i nutq apparatining 3 bo'limini (nafas olish, ovoz hosil bo'lish, artikulyasion) rivojlanishida katta rol o'ynaydi.

Ikki hafta o'tgach, bola gapirayotgan odamning ovozigacha e'tibor bera boshlaydi. Bir oyligining oxiriga borib, uni mayin qo'shiq (alla) ostida tinchlantirish mumkin bo'lib qoladi. Tez kunda bola intonasiyaga e'tibor bera boshlaydi: mayin gapirganda tinchlanadi, keskin intonasiyaga – yig'laydi.

2 oylik atrofida gu-gulash, 3-oyning boshida bo'g'inlarning talaffuzi paydo bo'ladi (aga-aga, ta-ta, ba-ba va boshqalar). Bunda tovushlar birikmasi aniq artikulyasiya qilinmaydi.

Bola 5 oyligida tovushlarni eshitadi. Atrofdegilarning lablari artikulyasion harakatini ko'rib unga taqlid qilishga harakat qiladi. Bolaning qandaydir aniq harakatlarni ko'p marotaba takrorlashi harakat ko'nikmasining mustahkamlanishiga olib keladi.

6 oyligidan boshlab bola taqlid qilish orqali ba'zi bo'g'inlarni talaffuz eta boshlaydi (na-na-na, be-be-be, da-da-da, pa-pa-pa va boshqalar).

Ikkinchi yarim yillikda bola ba'zi bir tovushlar birikmasini idrok qila boshlaydi va ularni predmetlar yoki harakatlar bilan bog'laydi (bu, ma, bey).

Bola 7-9 oylikida kattalar ketidan turli xil bo'g'inlarni qaytara boshlaydi.

10-11 oylikida so'zlarning o'ziga reaksiya paydo bo'la boshlaydi (vaziyat va gapirayotgan kishining intonasiyasidan qat'i nazar).

Ikkinchi davr – bog'chagacha bo'lgan davr (bir yoshdan 3 yoshgacha).

Bolada birinchi so'zlar paydo bo'lgandan so'ng, tayyorlov davri tugab, aktiv nutqni egallash davri boshlanadi. Bu vaqtda bola atrofdagilar artikulyasiyasiga e'tibor beradi. U gapirayotganlar orqasidan so'zlarni ko'p marotaba takrorlaydi va o'zi ham so'zlarni talaffuz qiladi. Bola hayotining 2-3 yiliga kelib, uning lug'at boyligi sezilarli darajada boyib boradi.

Eng keng tarqalgan ma'lumotga ko'ra, bolalarning lug'at boyligini bog'chagacha bo'lgan davrda o'sishi quyidagi raqamlarni ko'rsatadi: 1 yoshu 6 oyda - 10-15 ta so'z, 2-yilning oxiriga kelib 300 ta so'z, 3 yoshga borganda – 1000 ta so'z.

Bola hayotining 3-yiliga kelib, nutqning grammatik tomoni shakllana boshlaydi. Avval bola o'z xohish va iltimoslarini bir so'z bilan ifodalaydi. Keyinchalik 1-2 ta so'zdan iborat sodda jumlar paydo bo'la boshlaydi.

Uchinchi davr – maktabgacha bo'lgan davr (3 yoshdan 6 yoshgacha).

Maktabgacha bo'lgan davrda bolalar birinchi navbatda artikulyasion jihatdan oson talaffuz etiladigan: lab-lab, lab-til undoshlari - p, b, m, f, v va boshqalarni o'rganadilar. Artikulyasion jihatdan talaffuz etish qiyin bo'lgan: shivirlovchi, sirg'aluvchi (s, z, sh, j, ch) va sonor (r, l), til orqa (k, g) tovushlarini talaffuzini egallashda qiynaladilar. Shuning uchun bolalar bu tovushlarni nutqda noto'g'ri qo'llaydilar yoki talaffuz etmaydilar.

Bu davrda lug'at boyligining o'sishi davom etadi. Bolaning 4-6 yoshida uning aktiv lug'ati 3000-4000 ta so'zgacha etadi. Lug'at boyligi o'sib borishi bilan birgalikda nutqning grammatik tomoni ham rivojlanib boradi.

Bola hayotining 4 - yiliga kelib, ular o'z nutqlarida sodda va murakkab gaplarni qo'llay boshlaydilar. 5 yoshga kelib esa, qo'shma gaplardan erkin foydalana oladilar. 5 yoshli bolalar qo'shimcha savollarsiz hikoya va ertaklarni aytib berish qobiliyatiga ega bo'ladilar.

Bu davrda fonematik idrok sezilarli darajada rivojlanadi. Bola avval unli va undoshlarni, so'ng sonor, shovqinli va sirg'aluvchi tovushlarni ajrata boshlaydi. Normada 4 yoshli bola barcha tovushlarni ajrata olishi, unda fonematik idrok shakllangan bo'lishi lozim. Bu vaqtga kelib tovushlarni to'g'ri talaffuzining shakllanishi tugallanadi va bola har tomonlama to'g'ri, aniq gapiradi.

To'rtinchi davr-maktab davri (7 yoshdan 17 yoshgacha).

Bu davrning o'ziga xos tomoni shundaki, bolalar nutqining rivojlanishi oldingi davrlardagiga nisbatan ongli ravishda ro'y beradi. Bu davrda bolalar tovushlar analizi, nutqning grammatik qonuniyatlarini egallaydilar. Bu davrda nutqning yangi turi yozma nutq etakchi rol o'ynaydi.

Bola nutqining rivojlanish jarayoni o'z vaqtida to'g'ri kechishi uchun maxsus

sharoitlar zarurdir.

Buning uchun:

- bola ruhiy va jismoniy jihatdan sog' bo'lishi;
- normal aqliy qobiliyatga ega bo'lishi;
- normal eshitishi va ko'rishi;
- etarli darajada ruhiy aktivlikka ega bo'lishi;
- gaplashish ehtiyojiga ega bo'lishi;
- to'g'ri nutq muhitiga ega bo'lishi lozim.

Bolada nutqning normal rivojlanishi, unga doimo yangi tushunchalarni o'zlashtirib olishga, tevarak-atrof haqidagi bilim va tasavvurini kengaytirishga imkoniyat yaratadi. Shunday qilib, nutq, uning rivojlanishi tafakkurning rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir.

Nutq kamchiligi logopediya fanida muayyan tilning me'yorlaridan chetga chiqish deb ta'riflanadi.

Nutq kamchiliklari quyidagilar bilan xarakterlanadi:

1. Nutq kamchiligi o'z-o'zidan barham topmaydi, balki vaqt o'tgan sari yanada mustahkamlanib, zo'rayib boradi.

2. Nutq kamchiliklarini kattalarda namoyon bo'lishi ularning yoshiga mos kelmaydi.

3. Nutq kamchiligiga ega bo'lgan kishilar logopedik yordamga muhtoj bo'ladilar.

4. Og'ir nutq kamchiliklari bolaning nafaqat nutqiga, balki uning umumiy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bolalarda nutq buzilishini yuzaga keltiruvchi sabablar ichida tashqi (ekzogen) va ichki (endogen) omillar, shuningdek atrof-muhitning tashqi sharoitlari farq qilinadi.

Nutqiy nuqsonning turli sabablarini ko'rib chiqishda evolyusion-dinamik yondoshiladi. Bu nuqsonning yuzaga kelish jarayonini tahlil qilishdan, anomal rivojlanishining umumiy konuniyatlarini va xar bir yosh davrida Nutqning rivojlanish konuniyatlarini hisobga olishdan iboratdir (I. M. Sechenov, L. V. Vigotskiy, V. I. Lubovski).

Bolardagi nutqiy nuqsonlarning asosiy sabablari:

1. Embrion rivojlanish davridagi turli xil patologiyalar;
2. Xomiladorlik vaqtidagi toksikozlar, virusli va endokrin kasalliklar, jaroxatlar, qonning rezus-faktorga mos kelmasligi;
3. Tug'ruq vaqtidagi shikastlanish va asfiksiya;
4. Bola rivojlanishining birinchi yilidagi bosh miya kasalliklari (meningit, ensofalit).
5. Miyaning chayqalishi bilan birga sodir bo'ladigan bosh miya jarohatlari.
6. Nasliy faktorlar.

7. Sosial-maishiy sharoitning yomonligi. Bu xolat mikrososial pedagogik qarovsizlikka, vegetativ disfunksiyaga, emosional-irodaviy muhitning buzilishlariga va nutqning rivojlanmay qolishiga sabab bo'ladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan sabablar, ayrim xollarda ularning birgalikda qo'shib kelishi nutqning turli tomonlarining buzilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Hamma nutq buzilishlari kelib chiqishiga ko'ra ikki guruxga bo'linadi:

1. Organik xarakterdagi nutq buzilishlari.
2. Funksional xarakterdagi nutq buzilishlari.

Organik Nutq buzilishlari o'z navbatida ma'lum joyning zararlanishiga ko'ra markaziy va periferik xarakterda bo'ladi.

Markaziy buzilishlar: markaziy nerv sistemasini u yoki bu qismlarining buzilishi, zararlanishi natijasida kelib chiqadi. Markaziy xarakterdagi organik nutq buzilishlariga: alaliya, afaziya, dizartriya nutq kamchiliklari kiradi.

Periferik buzilishlar: artikulyasion apparatning noto'g'ri to'zilishi yoki buzilishi va periferik nerv artikulyasion organlar inervasiyasining buzilishidan kelib chiqadi.

Periferik xarakterdagi organik nutq buzilishlariga: rinolaliya, prognatiya, progeniya kiradi.

Funksional buzilishlar — bunda nutq jarayonida ishtirok etadigan a'zolar tuzilishida hech qanday o'zgarishlar bo'lmaydi. Funksional xarakterdagi nutq Turli nutq buzilishlarining rivojlanishini oldindan aniqlash katta ahamiyatga egadir. Agarda nutqiy nuqson bolaning maktabga kelgan vaqtida ilk bor aniqlansa, u holda uni tuzatish qiyinchiliklari kuzatilib, uzlashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agarda bolaning nutq nuqsoni maktabgacha yoki yasli yoshida aniqlansa, tibbiy va pedagogik tuzatish maktabda to'laqonli ta'lim olish imkonini beradi.

Hozirda logopediyada nutq buzilishlarining ikkita tasnifi o'rin olgan; bittasi-tibbiy pedagogik, ikkinchisi psixolog-pedagogik yoki pedagogik (R. Ye. Levina bo'yicha).

Buzilishlarning ruhiy-lingvistik mezonlar asosida nutqning qaysi turi buzilganiga qarab ikkita guruxga bo'lish mumkin: og'zaki yoki yozma.

Og'zaki nutqning buzilishi, o'z navbatida ikkita turga bo'linishi mumkin:

1) bayon qilishning fonasion (tashqi) ta'minlanishi, ular nutqning talaffuz tomonining buzilishi, deb ataladi va 2) bayon qilishning semantik-struktura (ichki) jihatdan ta'minlanishi, ular logopediyada nutqning uzluksiz yoki ko'p tovushli buzilishi, deb ataladi.

1. Bayon qilishdagi fonasion ta'minlashning zaiflashuvi buzilgan bo'g'inga bog'liq holda tabaqalanishi mumkin:

- a) tovush shakllanishi,
- b) bayon qilishning sur'at-oxang jihatdan tashkil etilishi,
- v) intonasion melodik,

g) tovush chiqarishning namoyon bo'lishi.

Bu zaiflashuvlar turli jarayonlarda mavhum xolida kuzatilishi mumkin, logopediyada ularga bog'liq bo'lgan buzilishning quyidagi turlari ajratiladi (ularni belgilash uchun an'anaviy bo'lib qolgan atamalar mavjud):

1. Disfoniya (afoniya) – tovush apparatining patologik o'zgarishlari oqibatida fanasiyaning yo'q bo'lishi yoki zaiflashuvi. Ma'nodoshlari: tovushning buzilishi, fonasiyaning buzilishi, fonotor buzilishlar, vokal buzilishlar.

Tovush yuqoriligi va yo'g'on-ingichkaligi (disfoniya) goho fonasiya (afoniya) ning yo'q bo'lishida, goho quvvatning buzilishida namoyon bo'ladi.

U markaziy yoki sirtqi to'xtalish tovush chiqarish mexanizmining organik yoki funksional zaiflashuvi bilan bog'liq bo'lishi va bola rivojlanishining xar qanday bosqichida yuzaga chiqishi mumkin. U alohida bo'ladi yoki nutq buzilishlarining qator boshqa turlari tarkibiga kiradi.

2. Bradilaliya - nutqning patologik sekinlashgan sur'ati. Ma'nodoshi: bradifraziya.

Artikulyar nutq dasturining sekinlashgan ishlab chiqarishda namoyon bo'ladi, markaziy bog'langan va uz tabiatiga ko'ra organik yoki funksional bo'lishi mumkin.

3. Taxilaliya - Nutqning patologik tezlashgan sur'ati.

Ma'nodoshi: taxifraziya.

Artikulyar nutq dasturining tezlashgan holda amalga oshirilishida namoyon bo'ladi, uz tabiatiga ko'ra, markaziy bog'langan, organik yoki funksional hisoblanadi.

Sekinlashgan sur'atdagi nutq cho'zik tortilgan, bir oxangda bo'ladi. Tezlashgan sur'atda - shoshilinch, intiluvchan, shiddatli ekanligi ko'zga tashlanadi. Nutqning tezlashuvi agromatizmlar bilan birga sodir bo'lishi mumkin. Bunday xolatlar ayrim paytlarda battarizm, parafraziya atamaları bilan ataluvchi mustaqil buzilishlar sifatida ajratiladi. Patologik tezlashgan nutqning asoslanmagan bo'linishlar, tutilish, to'xtab qolishlar bilan uchraydigan xollarda u poltern atamasi bilan ataladi. Bradilaliya va taxilaliya-nutq sur'atining buzilishi degan umumiy nomi ostida birlashadi nutq sur'atining buzilishi-nutq jarayonining ravonligi, nutqning oxang va melodik-intonasion ifodaliligining buzilishi oqibati hisoblanadi.

4. Duduqlanish - nutq apparati mushaklarining va ixtiyoriy pay tortishish natijasida sur'at-oxangning buzilishidir.

Ma'nodoshi: logonevroz;

Markaziy bog'langan bo'ladi, funksional yoki organik ko'rinishga ega, ko'prok bola nutqining rivojlanishida paydo bo'ladi.

5. Dislaliya - tovush talaffuz qilishning normal eshitish va nutq apparatining saqlangan innervasiyasi paytida buzilishi. Ma'nodoshlari: tili chuchuklik (eskirgan), tovush talaffuzidagi nuqsonlar, fonetik nuqsonlar, fonemalarni talaffuz qilishdagi notekisliklar.

Nutqning noto`g`ri tovushli (fonemali) turlanishida: tovushlarni buzib talaffuz qilishda, tovushlarning almashinuvi yoki ularning yo`qligida namoyon bo`ladi. Nuqson shuning bilan bog`liq, bo`lishi mumkinki, bunday paytda bolada artikulyar baza shakllanmaydi (artikulyar tomonning tovush talaffuz etish uchun zarur bo`lgan barcha jihatlari o`zlashtirilmaydi) yoki artikulyar tomon noto`g`ri shakllanadi. Buning oqibatida nomuvofiq tovushlar hosil bo`ladi. Artikulyasion apparatning anatomik nuqsonlari bilan bog`langan buzilishlar alohida guruxni tashkil etadi. Talaffuzning buzilishi psixolingvistik jihatdan yo fonemalarni ajratish va anglash operasiyalarining shakllanmaganligi oqibati (ya`ni idrok etishdagi nuqsonlar), yoki saralash va ishlab chiqarish (shuningdek, unumlilik nuqsoni) vazifasining shakllanmaganligi, yoxud tovushlarni ishlab chiqarish shartlarining buzilganligi deb qaraladi.

Anatomik nuqsonlarda buzilishlar organik xususiyatga, ularning ishtirokisiz esa funksional xususiyatga ega bo`ladi. Buzilishlar odatda bola nutqining rivojlanishi jarayonida; periferik apparatning jaroxatlanish xollarida esa u xar qanday yoshda paydo bo`lishi mumkin. Ammo shundaylari ham uchraydiki, ularda tovushni bayon qilishning fonasion turlanishlari murakkab mexanizmidagi bir necha bo`g`inlarining bir paytning o`zida xastalashuvi kuzatiladi. Bundaylarga rinolaliya va dizartriya kiradi.

6. Rinolaliya - tovush tembri va talaffuzining Nutq apparatidagi anatomik-fiziologik nuqsonlar bilan bog`liq holdagi buzilishdir. Ma`nodoshlari: dimog` bilan gapirish (eskirgan), palatolaliya.

Tovush tembrining patologik o`zgarishida namoyon bo`ladi. Bu xolat chiqarilayotgan nafas oqimining barcha nutq so`zlarini talaffuz qilish paytida burun bo`shlig`iga utishi va unda aks-sado berishi oqibatidir. Rinolaliya paytida bundan tashkari barcha nutq tovushlarining (dislaliya xolatidagi kabi alohida tovushlarni emas), buzib talaffuz etilishi kuzatiladi. Bunday nuqsonda prosodik buzilishlar ham tez-tez uchrab turadi, rinolaliya paytidagi nutq kam tushunarsiz (noaniq), bir oxangli bo`ladi.

7. Dizartriya - nutq talaffuzi tomonining nutq apparati innervasiyasidagi etishmovchilik bilan bog`liq holdagi buzilishidir. Ma`nodoshi: tili chuchuklik (eskirgan).

Bunda fonasion turlanishdagi bayonning murakkab mexanizmlari barcha bo`g`inlarning shakllanadagani kuzatiladi. Buning natijasida tovush nuqsonlari, prosodik va artikulyasion-fonetik nuqsonlari paydo bo`ladi. Tovushli nutqni ishlab chiqarishning imkoni bo`lmagan paytda paydo bo`ladigan anartriya dizartriyaning og`ir darajasi hisoblanadi. Yengil dizartriya paytida, qachonki nuqson ko`prok artikulyar-fonetik buzilishlarda namoyon bo`lganida, uning uncha bilinmaydigan shakli haqida so`z yuritiladi. Bunday xolatlarni dislaliyadan ajratish lozimdir.

Dizartriya markaziy xarakterdagi organik buzilishining oqibati hisoblanadi. Markaziy asab sistemasi buzilishini lokalizasiyalashda dizartriyaning turli shakllari

ajratib ko'rsatiladi. Buzilishning og'irligiga qarab esa dizartriyaning paydo bo'lish darajalari farq qilinadi.

Dizartriya ko'pincha bosh miyaning erta falajlanishi natijasida paydo bo'ladi, lekin u bola rivojlanishining xar qanday bosqichida, neyroinfeksiya va miyaning boshqa kasalliklari oqibatida paydo bo'lishi ham mumkin.

Bayon qilishning strukturali-semantik (ichki) turlanishidagi buzilishi ikki tur: alaliya va afaziya bilan ko'rsatiladi.

1. Alaliya - bosh miya qobig'idagi nutq zonalarining bolaning ona kornidagi yoki ilk rivojlanish davrida organik shikastlanishi natijasida nutqning yo'q bo'lishi yoki rivojlanmay qolishi. Ma'nodoshlari: disfaziya, erta yoshda paydo bo'ladigan bolalar afaziyasi, rivojlanish afaziyasi, gunglik (eskirgan).

Nutqning eng murakkab nuqsonlaridan biri, bunda nutqiy bayonning paydo bo'lishi va uni kabul qilishning barcha bosqichlaridagi tanlash va rejalashtirish operatsiyalari buzilgan bo'ladi. Uning natijasida bolaning nutqiy faoliyati rivojlanmay koladi. Nutq harakatlarini boshqarish buziladi, bu tovush chiqarish va so'zning bo'g'in tarkibiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Qanday nutq mexanizmlari shakllanmagani va ularning qaysi bosqichlari darajalari) ko'prok xastalanganiga bog'liq ravishda alaliyaning bir necha turlari uchraydi.

2. Afaziya - bosh miyaning muayyan joyi shikastlanishi bilan bog'liq holda nutqning to'liq yoki qisman yuqolishi. Ma'nodoshlari: nutqning buzilishi, yo'qolishi.

Bola nutqining bosh miya jarohatlanishi, neyroinfeksiya yoki, miya shishi natijasida yo'qolishi nutqning shakllanib bo'lganidan so'ng yuz beradi. Agar bunday buzilish uch yoshdan so'ng sodir bo'lsa, unda bolalar afaziyasi deb nomlanadi. Agar buzilish kattaroq yoshda yuz bergan bo'lsa, unda afaziya haqida fikr yuritiladi.

Yozma nutqning buzilishi. Uning qaysi turi buzilganiga qarab ikki guruxga ajratiladi. Maxsuldor tur buzilganida yozuvning zaiflashuvi, reseptli yozma faoliyat buzilganida - o'qishning zaiflashuvi kayd qilinadi.

1. Disleksiya - o'qish jarayonining qisman o'ziga xos buzilishi.

Harflarni idrok etish va tanishdagi qiyinchiliklarda; harflarni bo'g'inlarga qo'shish va bo'g'inlardan so'z tuzish borasidagi tutilishlarda (bu so'z shakllarini noto'g'ri talqin qilishga olib keladi); agrammatizm va o'qiganlarini buzib tushunishda namoyon bo'ladi.

2. Disgrafiya - yozish jarayonining qisman o'ziga xos ravishda buzilishi.

Harfning optik-fazoviy obrazining turg'un emasligida, harflarning aralashib ketishi yoki tushib qolishida, so'zning so'z-bo'g'in tarkibini bayon qilish va gap qurilishida. namoyon bo'ladi. O'qitish davomida yozish jarayoni shakllanmagan xollarida agrafiya haqida fikr yuritiladi.

Bolalardagi yozish va o'qishning buzilishi bu jarayonlarni to'liq holda amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim va kunikmalarni uzlashtirishdagi qiyinchiliklar

orqali yuzaga keladi. Tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra, bu qiyinchiliklar og'zaki nutqdagi nuqsonlar (optik shakllardan tashkari), tovush tahlili ishining shakllanmagani va ixtiyoriy diqqatning bekarorligi bilan bog'liq bo'ladi.

Bolalardagi yozish va o'qishning buzilishini yozish, o'qishdagi bilim va kunikmalarning yuqolishidan, shuningdek afaziya paytida yuzaga keladigan disleksiya (aleksiya) va disgrafiya (agrafiya) day ajrata bilmok lozim.

Shunday kilib, logopediyada nutq buzilishlarining 11 ta shakli ajratiladi, ulardan 9 tasi orzaki nutq natijasi va ishlab chiqarishning turli jarayonlaridagi buzilishlarni tashkil etadi. Qolgan 2 ta shakl esa yozma nutqning buzilish jarayoni bilan bog'liq holda ajratiladigan buzilishlarni uz ichiga oladi. Og'zaki nutqning buzilishlari orasida disfoniya (afoniya), taxilaliya, bradilaliya, duduqlanish, dislaliya, rinolaliya, dizartriya (anartriya), alaliya, afaziya ajratiladi; yozma nutqning buzilishlari orasida disleksiya (aleksiya) va disgrafiya (agrafiya) ajratiladi.

Psixologik-pedagogik tasnif tibbiy tasniflarni pedagogik jarayonda qo'llanish nuqtai nazaridan tankidiy tahlil qilish natijasida vujudga keldi (bu uslub logopedik ta'sir etish deyiladi). Bunday tahlil logopediyani nutqiy rivojlanishi buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalashga jalb etish bilan bog'liq holda juda muhim buldi.

Tadqiqotchilarning e'tibori bolalar jamoasi (o'quv guruhi, sinf) bilan ishlash uchun zarur bo'lgan logopedik ta'sir etish metodlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan edi. Buning uchun bolalardagi nutqning nonormal rivojlanishining turli shakllaridagi nuqsonlarning umumiy ko'rinishi, ayniqsa, o'qish jarayonida tuzatish uchun dolzarb hisoblanganlarini topish zarur edi. Bunday yondashuv buzilishlarni guruhlashda boshqacha prinsipni talab kildi. Bu shunday prinsipki, tibbiy tasniflash (umumiydan xususiya emas, balki xususiya umumiy-ga bo'lgan) uning asosiga ko'riladi. Bu uni lingvistik va ruhiy mezonlar asosida ko'rishga imkoniyat yaratdi. Ular orasida Nutq sistemasining tuzilish komponenti (tovush tomoni, grammatik tuzilishi, lug'at zonasi), nutqning funksional jihatlari, nutqiy faoliyat turlarining (og'zaki va yozma) o'zaro aloqadorligi hisobga olinadi.

Keltirilgan tasnifda nutq buzilishlari ikki guruhga bo'linadi.

Birinchi gurux — muomala vositalarining (nutqning fonetik-fonematik va umumiy rivojlanmay qolishi) buzilishi.

1. Nutqning fonetik-fonematik rivojlanmay qolishi - bolalarda ona tilini talaffuz qilish sistemasi shakllanish jarayonlarining fonemalarini idrok etish va talaffuzdagi nuqsonlar oqibatida turlicha Nutq zaiflashuvlari bilan bog'liq ravishda buzilishidir.

2. Nutqning to'liq rivojlanmay qolishi — turli xil murakkab Nutqiy kamchilikdir, bunda nutq sistemasining tovush chiqarish va ma'noli tomonlariga taallukli barcha komponentlarining shakllanish jarayoni buzilgan bo'ladi.

Umumiy alomatlari sifatida quyidagilar kayd qilinadi: nutq rivojlanishining kech boshlanishi, lug'at boyligining kamligi, agrammatizm, talaffuzdagi nuqsonlar,

(fonemalar tuzilishidagi nuqsonlar.

Nutqning bunday rivojlanmay qolishi turlicha darajalarda aks etishi mumkin: nutqning yuqolishi yoki uniig noaniq bog'lanishsiz xolatidan mukammal xolatigacha, lekin bunda fonetik va leksik-grammatik rivojlanmay qolish elementlari bo'ladi. Bolada nutq vositalariniig shakllanganlik darajasiga qarab nutq rivojlanmay qolish uch darajag'a bo'linadi.

Ikkinchi gurux — muomala vositalarini qo'llanishdagi buzilish (unga duduqlanish ham kiradi), bu muomala vositalarining to'g'ri shakllangan xolatidagi Nutqning kommunikativ funksiyalarini buzilishi deb qaraladi. Bir necha xil (kombinasiyalangan) nuqson ham bo'lishi mumkin, bunda duduqlanish Nutqning umumiy rivojlanmay qolishi bilan qo'shilib ketadi.

Yuqoridagi tasnifda yozish va o'qishning buzilishi alohida nutq buzilishi sifatida ajratilmaydi. Tasniflashda sistemali yondashuv prinsipiga izchil tayanish aks etadi, uning asosida ikkita o'zaro bog'lanish hisobga olinadi: nutqiy faoliyat sistemasidagi buzilishlarning o'zaro bog'lanishi va bolaning bir ko'rinishdagi ruhiy jarayoni hamda boshqa ruhiy tomonlaridagi buzilishlarning o'zaro aloqadorligi, ularning rivojlanishi nutq bilan uzviy bog'langandir

4.3. Bolalardagi nutq kamchiliklarini tekshirish va aniqlashning sistemali usullari.

Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi, maktabgacha tarbiya muassasalari xodimlari oldiga muhim vazifani-bolalarni maktabda o'qishga psixologik jihatdan tayyorlash, ya'ni boshlang'ich sinflarda muvaffaqiyatli o'qish, boshlang'ich maktabning dasturni to'la o'zlashtirib olish uchun zarur bo'lgan ruhiy sifatlar, bilim, ko'nikma va malakalari tarkib toptirish vazifasini qo'yadi. Bolaning aqliy rivojlanishida og'zaki nutqning vujudga kelishi katta ahamiyatga ega.

Tarbiyachi bolaning so'z boyligini aniqlaydi, boyitib boradi va faollashtiradi, bolalarni tovushlarni to'g'ri talaffuz etishga o'rgatadi, og'zaki nutqning turli shakllarigi – monolog (aytib berish, qayta hikoya qilib berish) va dialogga (so'zlashuv yoki savol – javob nutqiga), so'zlarni grammatik jihatdan to'g'ri o'zlashtirish va to'g'ri tuzishga o'rgatadi. Bolalar bog'chasida ham, maktabda ham olib boriladigan tillar ta'lim standartlari, dasturida ko'rsatilgan bilim va malakalarni hosil qilish, shaxsning ba'zi bir xususiyatlarini, hulq-atvorini tarbiyalashga qaratilgan.

Dastur talablarini to'laqonli bajarish uchun tarbiyachi va o'qituvchilar o'z tarbiyalanuvchilarining barcha xususiyatlarini, ayniqsa, nutqiy rivojlanishini har tomonlama tekshirib, kamchiliklarini aniqlashlari, ularni bartaraf etish yoki bolani tegishli mutaxassislariga, ular esa tegishli muassasalarga yuborishlari talab etiladi. Logopedik tekshirishlar ta'lim-tarbiya usullari va prinsiplari asosida olib boriladi va bunda bola har tomonlama tekshirib ko'riladi.

Logopedik tekshirishlar ikki shaklda olib boriladi: induvidual va frontal tekshirishlar. Induvidual tekshirishlar o'quv yilining boshida tarbiyachi yoki

o'qituvchining har bir bolani kamida ikki hafta davomida kuzatib borishidan iborat bo'ladi. Frontal tekshirish vaqtida bolalar bog'cha gruppasi yoki sinfda she'r, hikoya aytib beradilar, savollarga javob qaytaradilar yoki rasmga qarab hikoya tuzadilar. Bu vaqtda bolalar nutqining umumiy holati, artikulyasiyasi, nutq sur'ati, tovushlar talaffuzi, ovoz kuchi, sifati kuzatib borilib, ular nutqidagi kamchiliklar aniqlanadi. Shundan so'ng nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar alohida ro'yxatga olinadi, gruppaning nutq kartasi tuziladi.

Nutqida kamchiligi bo'lgan har bir bola uchun individual nutq kartasi to'ldiriladi. Nutq kamchiligiga ega bolani xar tomonlama tekshirish, uning (tug'uruqqacha, tug'uruq vaqtidagi va tug'uruqdan keyingi davri to'g'risidagi, shaxsining rivojlanishi haqidagi zarur ma'lumotlarni bilish zarur.

Tekshirishning asosiy bosqichida logoped bola haqidagi anamnez ma'lumotlarini aniqlash maqsadida ota-onalar bilan suhbat o'tkazadi. Ota-onalar bilan suhbatda logoped oilada bo'lib utgan alohida ahamiyatga ega hodisalarni va shunga bog'liq holda bolalarning umumiy nutq tarakkiyotining o'ziga xos tomonlarini aniqlaydi. Bolaning tug'uruqqacha, tug'uruq vaqti va tug'uruqdan keyingi davrlardagi rivojlanishining o'ziga xos tomonlari aniqlandi.

Bu quyidagi taxminiy tartib asosida olibboriladi:
a) tug'uruqqacha bo'lgan davr.

Ona bilan suhbatda logoped ba'zi nasliy omillarni belgilaydi: ota-onalarning bola tug'ilgunga qadar salomatligining axvoli, ularda asab-ruhiy, teri-tanosil kasalliklari, nutqiy patologiya bo'lganmi, ota-onadan biri alkogolizm, yuqumli va boshqa kasalliklarga uchraganmi? Shuningdek, bolaning tug'uruqqacha bo'lgan rivojlanishiga oid quyidagi asosiy jihatlar aniqlanadi?

- onaning bola tug'ilayotgan vaqtdagi yoshi;
- onaning homiladorlikning birinchi va ikkinchi yarmida boshdan kechirgan kasalliklari (Qizilcha, gripp, toksoplazmoz, kandli diabet, jigar, buyrak kasalliklari, angina, anemiya);
- homiladorlikning birinchi va ikkinchi yarmida shikastlanishlar, qorin yuzasida lat eyishlar, yurak-tomir kasalliklari, toksikozlar, bolaning tushish xavfi bo'lganmi?;
- homiladorlik davrida dorilar bilan davolanganmi yoki yo'qmi?;
- homiladorlik davrida rentgenologik tekshiruvdan o'tganmi yoki qandaydir radioaktiv nurlanish bo'lganmi va boshqalar.

Homiladorlik davridagi noqulay omillarni aniqlash logopedga bu omillarni bolaning keyingi nutqiy taraqqiyotiga bevosita ta'sirini aniqlashda yordam beradi.

b) tug'uruq davri.

Logoped ona bilan suhbatda tug'uruq o'tishining tavsifi va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi: tug'uruqning boshlanishi vaqti - o'z vaqtida, homiladorlikning 8 - oyida, 7 - oyida suvning barvaqt ketishi bo'lganmi, tug'uruqning

uzoq davom etishi, qisqichlarning qo'llanishi, vakuum-ekstraktorning qo'llanishi, tug'uruq faoliyatining muvofiq ta'minlovchi dorilar qo'llash, homilani qo'l bilan yoki kessar operatsiyani qo'llab ajratib olish.

Bu suhbatda bolaning tug'ilgan paytidagi holati aniqlanishi zarur: darrov yig'laganmi yoki yo'qmi, ko'k, oq asfiksiya, og'irligi (1500 kg dan ko'p yoki kam), bo'yi, turli shikastlar, sinishlar, qon quyilishi, tug'uruq shishi, boshqa jaroxatlanishlar bo'lganmi?;

v) tug'uruqdan keyingi davr.

Bolaning tug'ilgandan keyingi davrdagi somatik rivojlanishi haqidagi ma'lumotlarni logoped ona bilan olib boriladigan suhbat jarayonida aniqlaydi:

- bolani onaga tug'ilgandan keyin necha soat o'tgach olib kelingan, bola ko'krakni qanday olgan va emgan (faol, faol emas, tezda charchab uxlashi);
- bola uyg'oq vaqtida o'zini qanday tutar edi: tinch yoki notinch, baqirok, yig'loq va boshqalar;
- hayotining birinchi yilida - 3 yoshgacha; pnevmoniya: ko'k yo'tal, dispepsiya, dizentriya kasalliklari bilan og'riganmi?

Shuningdek, bolada qandaydir tug'ma kasalliklar bor yoki yo'qligi aniqlanadi - yurak porogi, maymoqlik va bosh jaroxatlanishi bo'lganmi?

A.R.Luriya ichki nutqni tekshirishda uning tashqi tomon bilan o'zaro bog'liqligini e'tiborga olish kerakligini ta'kidlaydi. A.R.Luriya shu bilan tushuntiriladiki, nutqni eshitishning buzilishi nutq artikulyasiyalari va tashqi nutqning ikkilamchi buzilishiga olib keladi. Artikulyator jarayonlar va ichki nutqning buzilishi nutq tovushlarini idrok qilish va nutq mazmunini tushunish kabi jarayonlarga ta'sir qiladi. Bundan ilgari ichki nutqning murakkabligi haqida L.S.Vigotskiy ham yozgan edi. Uning fikricha, nutqni tushunish - tovush signali bo'yicha reaksiyani bajarishdan ko'ra ko'prok va boshqacharoq narsadir.

Fonematik eshitishni tekshirish.

Fonematik eshitish bolada bevosita nutqiy aloqa asosida shakllanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bir-biridan bir tovush bilan farq qiladigan so'zlarni ajrata olmaydilar, shuning uchun bolalarga bir tovush bilan farq qiladigan so'zlarni beramiz:

gul - ko'l soch - qoch

ko'z - tuz oz - och

sim - shim baxor - naxor

va shu so'zlarga mos rasmlarni topish va ko'rsatish ko'nikmasi aniqlanadi.

So'zlarning tushunishni tekshirish

Tekshirish shundan boshlanadiki, bolaga narsalarning nomi aytiladi va ularni ko'rsatib berish so'raladi. Masalan, tana qismlari - ko'z, peshona, yuz, burun, soch, daxan, qo'l, oyoq va boshqalar.

Keyin bolaga uy jihozlarini: stol, stul, shkaf, qandil, ko'zgu; o'yinchoqlardan - qo'g'irchoq, mashina, koptoklarni ko'rsatish taklif qilinadi.

So'zlarni tushunishni tekshirishning keyingi bosqichi rasmda tasvirlangan narsalarni

tanish ko'nikmasini aniqlashdan iborat bo'ladi. Bunda bolaga turli mavzuli guruxlarga kiruvchi va bir-biridan shakli, rangi, hajmi va son jihatidan farq qiluvchi narsalar tasvirlangan rasmlar ko'rsatiladi. Bu rasmlarda uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar, o'yinchoqlar, sabzavotlar, mevalar, idish-ovoqlar, transport, shuningdek yil fasllari tasvirlangan bo'ladi.

Bu didaktik material bolalar bog'chasining dastur talablariga muvofiq keladi va ularning yoshiga qarab ajratiladi.

Sodda gaplarni tushunishni tekshirish

Bolaga vaziyatli rasmlar ko'rsatiladi va bir qator quyidagi ko'rinishli sodda gaplar aytiladi: «Qiz o'tiribdi», «Qizda qizil koptok bor», «Bola yuguryapti», «Bolada mashina bor», «Kuchuk yuguryapti» va hokazo. Shundan so'ng bola aytilayotgan hodisa tasvirlangan rasmni ko'rsatishi lozim. Bundan tashqari quyidagilarni ko'rsatish so'raladi: olmaxonning momik dumi, Qiz qalarda sakrayapti, yuguryapti, yozyapti, sirpanchiq uchyapti va hokazolar.

Keyin bitta gapda kelgan 1,2,3 ta izchil xususiyatlarni bajarishni o'z ichiga oluvchi so'z shaklidagi buyruqlarni bajarish usulidan foydalaniladi. Masalan: «Tur, stol yoniga bor, o'yinchoqlarni ol va polga kuy. Koptokni ol, polga ur va menga ber». So'ng bolalarning grammatik qurilishlarni tushunishlari aniqlanadi.

1. Birlik va ko'plikdagi otlarni tushunish. Bolaga narsalarga oid rasmlar ko'rsatiladi, uni tanishi va ko'rsatish ko'nikmasi aniqlanadi: mashina qalarda, mashinalar qalarda, qo'g'irchoq qalarda, qo'g'irchoqlar qalarda, olma qalarda, olmalar qalarda va boshqalar.

2. Kichraytirish - erkalash qo'shimchasiga ega bo'lgan so'zlarni tushunish.

Bolaga narsalarga oid rasmlar beriladi va quyidagilarni ko'rsatish ko'nikmasi aniqlanadi: stol qalarda, o'yinchoqli stolcha qalarda, qoshiq qalarda, qoshiqcha qalarda, quyon qalarda, quyoncha qalarda va hokazolar.

3. Bog'lanishli nutq mazmunini tushunish. Bu bo'limda she'riy va darak gapli matnlar mazmunini tushunish tekshiriladi. Buning uchun bolalarga she'riy matn taklif qilinadi.

Nutqi to'liq rivojlanmagan maktabgacha yoshdagi bolalarning ichki nutqini chuqur tekshirish ruhiy-logopedik tekshirishning umumiy tartibida bolalarning sust lug'atini va, shuningdek, ular ruhiy faoliyatining ba'zi tomonlari holatini aniqlashga yordam beradi, chunki mantiqiy idrok insonning murakkab ixtisosiy perspektiv fikrimnemik faoliyati bo'lib hisoblanadi.

Ichki nutq bolaning kishilar bilan aloqa bog'lanishiga va faoliyatiga ta'sir qiladi, nutqiy va nutqiy bo'lmagan harakatlarni rejalashtirishning quroli bo'lib maydonga chiqadi.

Bolani bolalar nutq bog'chasiga qabul qilingach, logoped tomonidan bir oy davomida tekshirish olib boriladi; keyinchalik tekshirish natijalari tuzatish orqali logopedik ta'sir qilish jarayonida yanada aniqlashtiriladi.

Bolaning muloqotga kirishini tekshirish

Nutqi to'liq rivojlanmagan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan birinchi uchrashuvda logoped bolaning muloqotga qanday kirishishini aniqlaydi: (oson, qiyin yoki xayiqib, qo'rqib, negativizm).

Bolaning o'z tengdoshlari bilan qanday Nutqiy aloqaga kirishi tekshiriladi: boshqalar bilan oson nutqiy aloqa o'rnatiladi, tez-tez yoki kamdan-kam urishadi, nutqiy aloqaga kirishishida tashabbuskor yoki sust Nutqiy aloqaga kirishishi turg'un.

Nutqdan tashqari bo'lgan motorikani tekshirish

Logoped bolaga so'z qoidalarini va taqlid bo'yicha quyidagi vazifalarni bajarishni taklif qiladi:

- vazifa bo'yicha ikkala oyoqda yoki bir oyoqda yugurish, sakrash;
- yurish, yugurish, sakrashda oqoxlantirish bo'yicha to'xtash;
- bir oyoqda, so'ng ikkinchi oyoqda sanoq ostida turish;
- logopedga koptokni otish va uni ilib olish;
- polda yotgan «xalqa» ichiga ikkala oyoq uchida sakrab kirish va undan sakrab chiqish;
- bayroqchalarni ushlagan holda qo'lni quyidagi buyruqlarga amal qilib harakatlantirish: oldinga, orqaga, yuqoriga, pastga;
- cho'kkalab o'tirgan holda polda koptokni u ko'ldan bu ko'lga yumalatish, so'ngra koptokni ko'tarib, o'rindan turish;
- yugurish vaqtida koptokni otish va ilib olish;
- lentani tugun qilib, so'ng «bantik» qilib bog'lash va boshqalar.

Bola motorikasini tekshirish natijasida logoped quyidagi ma'lumotlarni oladi: oyoq, qo'llar muvofiqligi (to'g'ri, noto'g'ri, umuman yo'q); tana muvozanatini sezish, bolaning o'z gavdasini to'tishi, harakatlarni bajarish darajasi (to'liq, noto'liq); bir harakatdan ikkinchi harakatga o'tishi (o'z vaqtida, sekinlashgan, yo'q harakatlarni bajarish mustaqilligi (tuli yoki logoped yordamida); chapaqaylik, yuz harakatlari me'yorda, samimiy va yuz naylarining giperkineziyasi, sinkeziyasi, ya'ni asosiy harakatlar bilan birga bajariladigan qo'shimcha harakatlar - bir oz yaqqol ifodalangan.

Bolaning motor faolitini tekshirish natijalarini quyidagi parametrlar bo'yicha umumlashtiramiz.

Me'yorli motorika

- harakatlarning statik muvofiqlashuvi shakllangan: topshiriq bo'yicha yoki erkin ravishda kerakli holatni aniq belgilay oladi;
- harakatlarinng dinamik muvofiqlashuvi shakllangan: harakatlar aniq, ishonch bilan bajariladi, motor faolligining turli xil ko'rinishlari bilan o'zaro bog'langan (yugurish, sakrash, chapak chalishda);
- ko'l barmoqlari va mayda ko'l harakatlari to'la shakllangan: yuz ishoralari ifodali va emosional.

- harakatning haddan tashqari faolligi, qo'zg'aluvchanlik va muvofiqlashmagan harakatlarning bo'lishi;
- motor zo'riqishi, harakatlarning cheklanganligi va muvofiqlashmagan harakatlar, harakatlarning beso'naqay va sustligi;
- yuzdagi samimiylilikning bir oz yoki yaqqol ifodalanganligi, panja barmoqlari va mayda ko'l harakatlarining etarli rivojlanmaganligi.

Artikulyasion apparatni tekshirish metodikasiga asosan tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarning sababi bo'lgan artikulyasion a'zolar to'zilishida yaqqol ifodalangan to'zilishda quyidagilarga e'tibor beriladi:

Lab:(qalin, yupka, yuqori labning kalta bo'lishi, labdagi yoriqliklar);

Til:(makroglossiya, tilning ingichka bo'lishi, til tagidagi yuganchaning kalta bo'lishi);

Jag': (progeniya, prognatiya);

Tishlar: (yo'q bo'lishi, orasi ochiq bo'lishi, yon ochiq tishlar);

Qattiq tanglay: (baland, yassi, tor va yoriqlar bo'lishi);

Yumshoq tanglay: (kalta, ikkiga bo'lingan, yo'q bo'lishi);

Artikulyasion apparat to'zilishini baxolash me'yori:

- Artikulyasion apparatning me'yorda bo'lishi;
- Artikulyasion apparat to'zilishida kamchiliklar, buzilishlarning bo'lishi.

So'ngra Artikulyasion apparat harakatchanligi tekshiriladi.

Bunda lab, pastki jag', til, yumshoq tanglay mashqlaridan foydalaniladi.

Masalan, lab mashqlari: ko'lgi holatiga keltirish - tinch holat; oldingi chuchchaytirish - tinch holat; ko'lgi holatiga keltirish, oldinga chuchchaytirish - tinch holat.

Pastki jag' uchun mashqlar: og'izni katta ochish, og'izni ochiq holda bir, ikki (6 sekundgacha) ushlab turish - og'izni yopish; og'izni katta ochish, pastki jag'ni ung va chap tomonga harakatlantirish - tinch holat.

Til mashqlari. Tilni keng holatda ko'rsatish - og'izni kirgizish, tilni keng holatda pastki lab ustiga qo'yish, yuqori lab tomon ko'tarish - tilni og'izga kirgizish, og'izni ochish va navbatma-navbat tilni keng va tor holda ko'rsatish; tilni tor holda tutib, yuqori labni yalash, shu holda pastki labni yalash, tilni tor holda tutib, uni og'izning chap va ung burchaqlariga harakatlantirish; og'izni ochish, tilni surib qattiq tanglayga tekkizish va kuch bilan tortib olish. Bu mashqlar bir necha marta kaytariladi.

Yumshoq tanglay mashqlar. Tilni pastki lab ustiga kuygan holda esnash, yo'talish ko'rinishidagi mashqlar: «a» unlisini avval cho'zib, keyin bo'lib-bo'lib talaffuz qilish, «a» unlisini qattiq tezlikda talaffuz qilish.

Mashqlar taqlid asosida va so'z qoidasi bo'yicha bajariladi.

Artikulyasion apparat a'zolarining harakatchanligini tekshirish jarayonida harakatning bor yoki yo'qligi, harakatning bajarilish darajasi (to'liq, noto'liq) va bajarilish sifati (gipo yoki gipertonus, qo'zg'aluvchanlik); harakatni aniq bajarish

ko'nikmasi; Artikulyasion a'zolari ko'rsatilgan vaziyatda uzoq vaqt ushlab tura olish; bir harakatdan ikkinchi harakatga ohista o'tish; harakatlar tezligi; sur'ati me'yorda (sekinlashgan, tezlashgan) aniqlanadi.

Artikulyasion apparat harakatchanligini baxolash me'yori:

- harakatni aniq, to'liq, me'yorda bajaradi.
- bir harakatdan ikkinchi harakatga uta oladi.
- harakatni bajarishda bir qator kamchiliklar kuzatiladi.
- bir harakatdan ikkinchi harakatga qiyinchilik bilan o'tadi.
- harakatni logoped yordami bilan bajaradi, mustaqil o'zi bajara olmaydi. Bir harakatdan ikkinchi harakatga juda qiyinchilik bilan utadi.
- harakatni bajara olmaydi.

Tovushlar talaffuzini tekshirish

Tovushlar talaffuzining holati logopedik praktikada umumiy qabul qilingan quyidagi tartib bo'yicha tekshiriladi. Bolaga narsalarga oid rasmlar ko'rsatiladi, bunda rasmdagi narsalarni ifodalovchi so'zlar ichida tekshirilayotgan tovush uch o'rinda kelishi kerak: so'zning alohida talaffuzida, bo'g'inlarda, so'zlarda va jumalarda tekshiriladi.

O'zbek tilida so'zda undosh tovushlarning mos kelishi:

Sirgaluvchi tovushlar (s, z, s);

Shipillovchi tovushlar (sh, j, ch);

Sanor tovushlar (l, r, ng);

Til orqa, chuqur til orqa tovushlar (k, g, x, k, g, x);

Jarangli tovushlar (v, b, d);

Unli tovushlar (a, o, u, u).

Rasmlarni tanlash me'yorlari:

- maktabgacha yoshdagi bolalarning tushunishi uchun mos bo'lishi;
- idrok tasvirlangan so'ratga nisbatan qiziqishni va ijobiy hissiyotli munosabatni uygotish;
- hayotiy vaziyatlarning aks ettirilishi.

Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar xususiyati bo'yicha biz quyidagi shakllarni belgiladik:

a) tovush yo'qligi; b) tovushning almashtirilishi; v) tovushlarning nutqda mustaxkam bo'lmasligi (bunda tovush ba'zi so'zlarda to'g'ri talaffuz etiladi, ba'zi so'zlarda esa boshqa tovushlarga almashtiriladi); g) tovushni buzib talaffuz etish.

Fonematik tahlil. Sintez va fonematik tasavvurlarni tekshirish.

Bu foaliyatni tekshirish bola nutqining barcha tomonlari - lug'at, fonetik ukuv, grammatik to'zilishni rivojlantirish rejasida olib boriladigan logopedik ish uchun zarurdir.

Fonematik tahlilni tekshirish

Bunda bolalarning quyidagi kobiliyatlarini aniqlash zarur:

- soʻz boshidagi tovushni aniqlash;
- soʻz ichidan kerakli tovushlarni aniqlash;
- juft tovushlarni bir-biridan ajratish: b-p, t-d, s-z, sh-j;
- tovushning soʻzdagi urnini aniqlash: masalan, soʻzda uchinchi boʻlib qanday tovush kelyapti;
- tovushning soʻzdagi ketma-ketligini aniqlash;
- soʻzdagi tovushlar sonini aniqlash: masalan, soʻzda nechta tovush bor?

Fonematik sintezni tekshirish

Bunda bolalarning quyidagi kobiliyatini aniqlash zarur:

- ketma-ket tovushlardan boʻgʻinlar tuzish.

Fonematik tasavvurni tekshirish

Bunda bolalarga quyidagi topshiriqlar beriladi:

- berilgan tovush ishtirokida soʻz uylab topish;
- nomlari oppozision tovushlar bilan boshlanadigan narsalarga oid rasmlarni ikki qatorga ajratish. Masalan, s-sh, ch-s, r-ya va boshqalar.

Nutq prosodik komponentlarining holati

- surʼat: meʼyorda, sekinlashgan, tez;
- oxang: meʼyorda yoki aritmiya;
- ovoz: meʼyorda, boʻgʻiq, xiqildoq, zaif, past;
- ovoz yoʻgʻon-ingichkalilik: yumshoq, qattiq;
- ovozning tez va qattiqligi: qattiq, yumshoq, yoʻq;
- nafas: meʼyorda, tezlashgan, sekinlashgan;
- nafas olish chuqurligi: meʼyorda, yuzaki.

Lugʻat boyligi holatini oʻrganish

Suhbat vaqtida bolalar nutqini kuzatish bola lugʻati boyligi haqida maʼlum tasavvurlarni beradi. Lekin nutq kamchiliklarini mufassal aniqlash uchun bolaning maqsadga qaratilgan lugʻat boyligi darajasini belgilab olish zarur.

Lugʻat boyligini tekshirish uchun maxsus usullar qoʻllaniladi: narsalarni nomlash, narsalarni tasvirlanishiga koʻra nomlash, narsalar nomini umumlashtirish va boshqalar.

Bolaga narsalar yoki narsalar tasvirlangan rasmlar, ularning harakati, sifati va belgilarini taklif etiladi. Narsa va rasmlar mavzular boʻyicha tanlanadi: oʻyinchoqlar, idish-tovoqlar, uy jihozlari, kiyimlar, oyoq kiyimlari, odamning tana qismlari, uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar, oʻsimliklar, odamlar kasbi, yil fasllari.

Bolaga yana quyidagi vazifalar taklif etiladi:

- rasmlar bo'yicha va ko'rsatilgan ish harakatini nomlash;
- «Bola nima qilyapti?» - bola ish harakatini nomlash bilan savolga javob berishi kerak. «Men nima kilyapman?» - ish harakati amalda namoyish etiladi;
- narsalarni nomlash. Bola nomlashi kerak bo'lgan narsalar yoki ularning harakati, sifat belgilari tasvirlangan narsalar rasmi ko'rsatiladi. Bunda logoped bolaga savollar orqali murojaat etadi: «Bu nima?», «Bu kim?», «Nima qilyapti?», «Qanday?», «Kimniki?»;
- tasvirlanganiga ko'ra narsalarni nomlash: «Qaysi hayvon sut beradi?», «Nima bilan yozamiz?» va boshqalar;
- umumlashtiruvchi so'zlarni ajratish: bir qator narsalarni yoki narsalarga oid rasmlarni bitta umumiy so'z bilan nomlash. Masalan: olma, anor, uzum, bexi, shaftoli, anjir, limon, yoki ularning rasmlari ko'rsatiladi va savol beriladi: «Bu ko'rsatilgan narsalarni bir so'z bilan qanday nomlaymiz?» bunda imkon boricha turli bo'g'inli so'zlar talaffuzi tekshiriladi: parafaziya, perseverasiya, eliziya, kontaminasiyaning bor yoki yo'qligi belgilanadi.
- rasmlardan foydalangan holda ularni harakati bilan nomlash taklif etiladi. Bolaga rasmlarni ko'rish taklif etiladi, bunda bola ramsdagi narsa qanday harakat kila olishini aytib berishi lozim (tayyora uchayapti, kaldirgoch uchayapti, qo'g'irchoq o'tiribdi, bola yuguryapti, Qiz so'zyapti). Quyidagi savol bilan bolaga murojaat etish mumkin: «Bola nima kilayapti?» va hokazo.
- Narsaning belgisini aniqlash. Osmon qanday? - (havo rang), palto kimniki? - (onamniki).
- Ma'nodosh so'zlar va antonimlarni tanlash: issik-sovuk, shirin-achchik, baland-past, yo'g'on-ingichka.
- Bir o'zakli so'zlarni bilish (bog'cha, bog, bogbon).
- Otlardan sifat hosil qilish: «Stol yogochdan qilingan». Qanday stol? (yogochli); «Mashina temirdan qilingan. Qanday mashina? (temirli); «Guruchli taom». Qanday taom? (guruchli).

Bolalar nutqining grammatik tomonini o'rganish

- Buning uchun bolalarga quyidagi vazifalarni bajarish taklif etiladi: syujetli rasmlar asosida gap tuzish;
- narsalarga oid rasmlardan foydalangan holda birlikdagi otlardan ko'plikdagi otlarni hosil qilish (koptok-koptoklar, kalam-kalamlar, kitob-kitoblar va hokazo);
- otlardan kichraytirish - erkalash shakllarini hosil qilish. Masalan: uy-uycha, stol-stolcha;
- otlardan sifat yasash.

Bunda asosiy diqqat bolalarning kay tarzda gap tuzishiga qaratiladi. Bolaga rasmlar yoki davomli rasmlar asosida hikoya qilish, oddiy va murakkab mazmunli matnlarni so'zlab berish taklif etiladi. Bunda so'zlarni bog'lab, matn mazmunini kay darajada so'zlab berishi va undagi kamchiliklar hisobga olib boriladi. Bolaning nutq faolligi darajasi, monologik suhbatga oid nutqdan foydalanish imkoniyatlari belgilanadi.

Bundan tashqari, bolaning nutqiy muomalada tashabbuskorligi, she'r, ashula bilishi kabilar ham hisobga olib boriladi.

Bolaning faqat nutqini emas, balki uning ruhiy xususiyatlarini, shaxsining e'tibor talab tomonlari, aqliy holatini ham o'rganib boriladi. Logoped tekshirish jarayonida bolani faqat kuzatib, u bajargan vazifalarni baxolabgina kolmay, balki kerak bo'lganda bolaga yordam berishi lozim. Tekshirish jarayonida bola faoliyati, uning Qiziqishi, muvaffakiyat va muvaffakiyatsizlikka munosabati, qiyinchilikni qanday qabul qilishi va uni bartaraf etish usullari, yo'l quyilgan xatolarni to'g'rilash kobiliyatini hisobga olish lozim.

Bolani charchatib kuymaslik, shuningdek, bola harakatining faollik darajasini pasaytirmaslik uchun tekshirish vaqtida ish turlarini uzgartirib turiladi. Ish jarayonida bolaga va uning ota-onasiga bo'lgan munosabat, xushmuomalalik bilan tekshirish ruhiy-terapevtiv ta'sir etish asosida bo'lishi kerak. Tekshirish usullari bir xillikka ega bo'lmay, balki hamma vaqt xususiy yo'nalishdadir. To'g'ri tashkil etilgan tekshirish ishlari tabaqalashtirib aniqlash masalalarini hal etishga imkon beradi va shu qatorda tuzatishga qaratilgan ish uslublarni to'g'ri tanlashda katta ahamiyatga egadir.

Bolalarning mustaqil nutqini tekshirish metodikasi

Bolalarning bog'langan Nutqini tekshirish uchun ularga quyidagi vazifalarni bajarish taklif etiladi:

- predmetli rasmlardan, o'yinchoqlardan, narsalardan foydalangan holda hikoya tuzish. Masalan, «Bu qo'g'irchoq. Qo'g'irchoq juda chiroylik. Uning sochiga katta qizil bant boylangan. Qo'g'irchoq atlas kuylak kiygan. Uning oyogida tapochka bor».
- seriya rasmlardan foydalangan holda hikoya tuzish.

Logoped 3-4 talik seriyali rasmlarni bolaga tavsiya etadi va shu rasmlarga qarab ketma-ketligini aniqlab hikoya tuzishni taklif etadi.

Berilgan mavzu bo'yicha hikoya tuzish.

Logoped bolaga murojaat qiladi:

«O'ylab ko'r-chi, sen kecha uyda nima kilding?», yoki «Qanday multfilmlarni bilasan?», «Sen mehmonga borishni yaxshi ko'rasanmi?», «Kimmikiga mehmonga borgansan?».

Baxolash:

- hikoya to'g'ri tuzilgan. Hikoyani mazmunini yaxshi yoritib bera oldi. Hikoya 5-6 gapdan to'zilgan;

- hikoya tuza oldi. Lekin mazmunini oxirigacha echib bera olmadi. Hikoya 3-4 gapdan to'zilgan;
- hikoyada ko'p xatolar. Mazmunini yoritib bera olmadi. Hikoya 1-2 gapdan to'zilgan;
- mustaqil Nutqi yo'q.

Bolani nutqini logopedik tekshirish davomida olingan ma'lumotlar Nutq xaritasiga yozilib boradi (nutq xaritasi ilovada berilgan).

Tekshirish uchun materiallar

Narsa modeli, mulyaj, tarqatma materiallar (rasmlar, konstruktorlar), zondlar, shtagel, oyna (devor va stol oynasi).

Didaktik materiallar: o'yinchoqlar to'plami, stol ustida o'ynaladigan o'yinchoqlar (loto, domino).

Albomlar yoki rasmlar to'plami, narsalarga oid iborali, syujetli, davomli, qirkma rasmlar.

Turli kattalikdagi va turli xil sanoq materiallari, mozayka, optik-fazoviy tasavvurlarini aniqlash uchun turli rang va shakldagi narsalar to'plami. Turli o'lchamdagi narsalar yoki ularning rasmlari.

Ovozli o'yinchoqlar to'plami: do'mbira, nay, pianino, ovoz chiqaradigan hayvon - o'yinchoqlar. Rasmlar to'plami (o'yinchoqlar): uy jihozlari, kiyim, idish-tovoqlar, transportlar, uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar, sabzavotlar, mevalar.

Fonematik idrokni tekshirish uchun maxsus qo'llanmalar: juft narsalarga oid rasmlar, bo'g'inlar, so'zlar.

Bolalar nutqini har tomonlama tekshirish natijasida biz bolalar Bilan ishlash prosessni to'g'ri tashkillashtiramiz. Ular nutqidagi kamchiliklarni to'g'ri va aniq tekshirish esa, o'z vaqtidabolalardagi nutq kamchiliklarini bartaraf etishimizga yordam beradi.

Nazorat savollari

1. Bolalar nutq buzilishlari xususiyatlari
2. Nutq kamchiliklari haqida tushuncha va nutqning buzilish sabablari..
3. Bolalardagi nutq kamchiliklarini tekshirish va aniqlashning sistemali usullari

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ayupova M.Yu. Logopediya «O'zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati» T.: 2007 y.
2. Mo'minjonova Z., Ziyayeva K., Karimova SH., Xalilova G.lar "Ona tili" yordamchi mehnat ta'limi maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Toshkent: "Artaprint" MCHJ 2005 y.
3. Po'latova P.M. va boshqalar. Maxsus pedagogika. T.: «Fan va texnologiyalar», 2014 y.

4. Рахманова V.S. «Maxsus pedagogika» T.:“G‘.G‘ulom” nashriyoti, 2005 y.
5. Психолого-педагогическая диагностика. Под редакцией И.Ю.Левченко и С.Д.Забрамной. М., АCADEMA, 2005 г.

1. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www. pedagog. uz](http://www.pedagog.uz) 3. [www. ziyonet. uz](http://www.ziyonet.uz)
4. [www. lex. uz](http://www.lex.uz)
- [www. bilim. uz](http://www.bilim.uz)

AMALIY MASHG'ULOTLAR

1-mavzu. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni psixologo-pedagogik tashxis kilishning nazariy-metodologik tamoyillari(2soat amaliy)

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarda ayrim nutq nuqsonlari kuzatilib, ularni bartaraf etish bo'yicha logopedik ishlar tashkil etilgan. Shular jumlasidan, maktabgacha yoshdagi dizartrik bolalarning nutq nuqsonini bartaraf etish ishlari bir qancha bo'lib, ulardan biri **ovoz modulyasiyasining baland-pastligi bo'yicha tadqiq etish yo'llari sanaladi.**

Tadqiqotning maqsadi – musiqani, asta-sekinlik bilan pastdan balandlashayotgan, balanddan pastlashayotgan harakatini aniqlay olishi va uni qaytara olish ko'nikmasini aniqlashdir, **Ovoz tebranishining baland-pastligi bo'yicha tadqiq etishda** bola o'z ovozi qanchalik boshqara olishini, uni baland-pastligi bo'yicha o'zgartira olishni, ovoz diapazoni qanchalik keng ekanligini aniqlash uchun muhimdir.

Tadqiqot uchun jihozlar: tovushlar, taqlid so'zlar, hayvon va ularning bolalari tasvirlangan predmetli rasmlar.

1. Turli xil balandlikdagi ovoz bilan talaffuz qilingan ayrim tovush va taqlid so'zlarni idrok etilishini tadqiq etish.

Jarayonning borishi: Bolaga turli xil balandlikdagi tovush yoki taqlid so'zlarni eshitish va eshitganlarini, ularning bolasi tasvirlangan rasm yoki turli xil kattalikdagi predmet bilan bog'lash, moslash tavsiya etiladi. Bolaga oldindan qonun-qoidalari tushuntiriladi. Masalan, itning ovozi "yo'g'on", ya'ni past, kuchuk bolasining ovozi esa "ingichka", ya'ni jarangdordir.

Ko'rsatma: "Eshit va qaysi hayvon qanday ovoz chikarishini ko'rsat (ayt).

DUD - katta (past) ovoz DUD - kichik (jarangdor) kema

O - O -

MO' - sigir MU - buzoqcha

VOV - it VOV - kuchuk bolasi

MYaU-mushuk MYaU - mushuk bolasi

2. Ayrim tovush va taqlid so'zlarni baland va past ovoz bilan talaffuz qilish.

Ko'rsatma: "Qani katta kema, samolyot va X-K., Hamda ularning kichkinasi qanday ovoz chikarishini, hayvonlar va ularning bolalari qanday ovoz chikarishlarini ko'rsat".

VOV - it VO V - kuchuk bolasi

MU - sigir MU - buzoqcha

MYaU - mushuk MYaU - mushuk bolasi

DUD - katta kema DUD - kichik kema A ayiq, A -ayiq; bolasi

3. Unli tovushlarni talaffuzda ularning grafik tasviri yoki qoʻl harakatiga tayanib ovozni balandlatish va pastlatishni amalga oshirish.

yuqoriga - ovozni balandlatish;

pastga - ovozni pastlatish.

1-koʻrsatma: "Sen oyoqlaring bilan emas, balki ovozing bilan zinapoyalardan yuqoriga, keyin esa Yana ovoz bilan zinapoyalardan pastga tushishga harakat qilib kur. Ovoz zinapoyalardan yuqoriga koʻtarilayotganda, u balandlashadi va ingichkalashadi. Ovoz zinapoyalardan pastga tushayotganda esa, u pasaya boshlaydi. Avval A tovushi, keyin esa O, U tovushlari Bilan talaffuz qilamiz.

2-koʻrsatma:

"Qoʻgʻirchoq chaqaloqni

alalab koʻrsat"., A A A A A

Soat qanday yurishini koʻrsat .

ChIQ tebratishlarini chiq, chiq, chiq, chiq;

\\ \\ \\ \\ ,,,,~ - din

Qoʻngʻiroq qanday jaranglashini \\ \\ \\

koʻrsat".

din

din

Din, Dilin, din, Dilin

Eslatma: Ovoz balandlashayotganini yoki pasayayotganini koʻrsatish uchun logoped qoʻlining harakati bilan faol ravishda yordamlashadi.

Baxolash mezonlari:

4-ball - topshiriq ovozning etarli modulyasiyasi bilan bajarilganda qoʻyiladi;

3-ball - topshiriq ovoz modulyasiyasi unchalik etarli boʻlmagan xolatda bajarilganda qoʻyiladi;

2-ball - topshiriq ovoz balandligini oʻzgartirmagan xolda bajariladi, biroq topshiriq turli usullarda bajartirilsa, ovoz balandligi oʻzgarishiga erishish mumkin;

1-ball - topshiriq ovoz balandligini oʻzgartirmagan xolda bajariladi, biroq topshiriq turli usullarda bajartirilsa ham ovoz balandligi oʻzgarmaydi;

0-ball - topshiriq bajarilmaydi.

Ushbu ovoz modulyasiyasini baland-pastligi boʻyicha tadqiq etish yoʻli orqali nafaqat maktabgacha yoshdagi dizatrik bolalarni balki boshqa nutq nuqsonlariga ega boʻlgan bolalarda ham qoʻllaniladi. Bu metodika orqali ovoz kamchiligini bartaraf etiladi va rivojlantirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Mamlakatimizda fan-texnika yuksak surʼat bilan rivojlanib borayotgan bir paytda yosh avlod zimmasidagi masʼuliyat ham ortmoqda. Ularga berilishi lozim boʻlgan bilimning hajmi yil sayin oshmoqda.

Bolalarni bog'chadayoq maktabga tayyorlash maktabda esa ularni o'qitishning yangi shakllari amalga oshirilmoqda. Modomiki, harakat va so'z insonning o'zligini namoyish etuvchi asosiy vosita ekan, buning uchun bolaning jismoniy va nutqiy tarbiyasiga ilk davrdan boshlab e'tiborni qaratmoq lozim.

Nutq kamchiliklarining kelib chiqishi sabablarini oilada har bir ota-ona, maktabgacha tarbiya muassasalarida tarbiyachilar, maktabda esa o'qituvchilar bilishlari zarur. Chunki nutq kishilarning til vositasi orqali aloqa jarayonining tarixan tarkib topgan formasidir. Shuningdek, nutq rang-barang ifodali tovushlarning majmuasidan iborat.

Bu tovushlar oliy nerv sistemasining signallari vositasida nutq organlarining turlicha shakllanishi yoki harakati natijasida paydo bo'ladi. Shuning uchun nutq tovushlarini vujudga keltiruvchi manbalarini organlar fiziologiyasini, ularning faoliyatini o'rganish talaffuzdagi nuqsonlarning kelib chiqish sababini aniqlash, to'g'ri va ravon talaffuzni ta'minlovchi omillardan biridir. Nutq bolalarda asta-sekin shakllanadi, bola o'sib rivojlanib boradi.

Aslida bola nutqning o'sib borishidagi hal qiluvchi bosqich bir yarim yoshdan besh yoshgacha bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Bu davrda bolaning nutqi muayyan sur'atda, besh yoshdan keyin esa nutq intensiv ravishda xilma-xil o'sib boradi. Biroq ayrim bolalarning nutqiy rivojlanishida bir qator kamchiliklar uchraydi va ma'lum bir sababga bog'liq bo'ladi. Tovushlarni noto'g'ri talaffuz etishni ona tilidagi hamma tovushlarda uchratish mumkin. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, bolalarning ko'pchiligi asosan artikulyatsion jihatdan talaffuz qilish qiyin bo'lgan sanor (r, l), sirg'aluvchi (s, z, ts) va shovqinli (sh, j, ch), til orqa (k, g) tovushlarini noto'g'ri talaffuz etadilar.

Bundan tashqari bolalar nutq nuqsonlari qatorida bir qancha og'ir nutqiy nuqsonlar ham uchrashini yuqori boblarimizda ko'rib o'tdik. Bolalardagi nutq nuqsonlarini bartaraf etish, ularni o'z sog'lom tengdoshlari qatori jamiyatda o'z o'rnini topishlariga yordam berishda esa logped – defektologlar o'rni kattadir. Olib borilgan kuzatuv va taxlil natijalariga asoslanib maxsus bog'cha va maktablarda logoped – defektologlar ish su'ratini barcha pedagogik tamoyil va ta'lim metodlariga asoslanib yo'lga qo'ysa muvaffaqiyatli natijalarga erishadilar. Nutqiy kamchiliklarni korreksiyalash, etakchi faoliyatni hisobga olish bilan birgalikda olib boriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin faoliyati, motorika, sensor soxa, lug'at boyligi, til qonuniyatlarini egallash bola shaxsini shakllantirish jarayonida olib boriladi.

Tadqiqotlarga asoslanib biz nutq nuqsonlarini bartaraf etishda turli logopedik ta'sir metodlardan foydalansak ko'zlagan maqsadga erishamiz. Logopedik ishda: amaliy, ko'rgazmali va og'zaki metodlardan foydalanilsa yoki nutqiy nuqsonlar korreksiyasi yaxshi natija beradi. Logopedik ish jarayonda quyidagi metodlarni qo'llasak ishimiz sermahzulligi oshib boradi.

Amaliy metodlar: mashqlar, o'yin va modellastirishlar kiritiladi.

Mashqlar - bu berilgan amaliy va aqliy harakatlarning ma'lum ketma-ketlikda bola tomonidan takrorlanishidir. Artikulyasion mashqlarni sistemali ravishda bajarib turish, tovushni nutqqa qo'yish va to'g'ri talaffuz etish uchun zamin tayyorlaydi. Mashqlar taqlidiy-bajariluvchi, konstruktiv va ijodiy turlarga bo'linadi.

O'yin metodi o'yin faoliyatini boshqa usullar: namoyish qilish, tushuntirish, savollar bilan birgalikda olib borishni nazarda tutiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan turli xil o'yinlar olib boriladi: ashulali, didaktik, harakatli, ijodiy, saxnalashtirilgan va x.k. Modellash - bu modellarni yaratish, kullash va obektlarin tuzilishi haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga mo'ljallangan jarayondir.

Ulardan samarali foydalanish kuyidagi sharoitlarga bog'liq:

- model obektning xususiyatlarini aks ettiruvchi bo'lishi kerak;
- ma'lum yoshdagi bolaning idrok qilishi uchun mos bo'lishi kerak;
- bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonini engillashtirishi zarur.

Ko'rgazmali metodlar - bu bilim ko'nikma va malakalarni egallashda kurgazmali kurollar va texnik vositalar yordamida beriladigan ma'lumotlardir.

Kurgazmali metodlarga kuzatish, rasmlarni ko'rish, maketlar, diafilm, kinofilmlarni ko'rish, plastinka, magnitafonlarni eshitish, hamda topshirik namunasini, harakat usulini kursatish kabilar kiradi.

Kuzatish - rasm, artikulyasion profil, maket, artikulyasion tovush, mashqlarni kullash va kursatish bilan bog'liq.

Aytib o'tilgan qo'llanmalardan foydalanish, bolalar tasavvurini kengaytirish, bilish faoliyatini rivojlantirish va logopedik ishning samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Magnitovon, plastinkadagi ovozlarni takrorlash. Bolalarning nutqi yozilgan magnitafon lentalarini tahlil qilish, nuqsonlarni ajratib olish, korreksion ish bosqichlaridagi nutqni solishtirish uchun xizmat qiladi va ishning samaradorligini oshiradi.

Diafilm, kinofilmlardan tovushlarni nutqda mustahkamlash, hikoya, suhbat qilish jarayonida bog'langan va tushunarli nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, duduqlanishni bartaraf etishda foydalaniladi.

Logopedik ishda og'zaki metodlardan bolaning yosh xususiyatlari, nutqiy nuqson tuzilishi, korreksion ta'sirning maqsadi, vazifasi, bosqichini xisobga olgan holda foydalaniladi.

Logopedik ta'sir quyidagi shakllarda amalga oshirilganda: frontal, guruxli, individual mashg'ulotlar va dars natija ko'ngildagidek bo'ladi..

Psixoterapiya duduqlanishni davolash ko'lamida muhim o'rin egallaydi. Psixoterapiyaning asosiy vazifasi — duduqlanuvchining ruhini

sog'lomlashtirishdan iborat bo'lib, u 1) mukammal shaxsni kamol toptirish; 2) o'z nuqsoni va sosial muhitga nisbatan sog'lom qarashlarni tarbiyalash; 3) kichik soʻsial muhitga ta'sir ko'rsatish orqali amalga oshiriladi. Zamonaviy psixoterapiyada soʻz orqali ta'sir etishning ikkita asosiy turi bor: 1) okilona (Dyubua bo'yicha) yoki tushuntiruvchi (V. M. Bexterev bo'yicha) psixoterapiya; 2) suggestiv terapiya, bunda bedor xolida, uyquda ishontirish (gipnoz) ni va oʻz-oʻzini ishontirish (autogen mashqi) ni ajratib koʻrsatiladi.

Bundan tashqari ota –onalar bilan ishlash, mustagʻkam aloqa oʻrnatish, logoped tomonidan berilgan topshiriqlarni uyda takrorlanishiga eʼtibor qaratish ishlari ham toʻgʻri tashkillashtirilishi kerak. Logoped ish faoliyatida didaktik oʻyinlar, harakatli oʻyinlar, soʻz oʻyinlaridan unumli foydalanish, xalq ogʻzaki ijodi namunalarini ish faoliyatimizda unumli qoʻllash ham bolalarda uchraydigan nutq kamchiliklarini bartaraf etishga yordam beradi.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida biz quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqdik:

1. Bolalarda uchraylgan nutq kamchiliklari ustida ishlash jarayonida nutq buzilishlarining diagnostikasi metodlarini ishlab chiqishi muxum ekan. Shuning uchun taʼlim-tarbiya sohasida faoliyat olib borayotgan barcha shaxslar bolalar taʼlim - tarbiyasiga oʻz hissalarini qoʻshsalar barkamol avlaod taraqqiyotiga hissa qoshgan boʻlar edilar.
2. Nutq kamchiliklarini kelib chiqish sabablari, mexanizmlari va tuzilishi, alomatlarini aniqlash, bu masala yuzasidan ota – onalar bilan tushuntirish ishlari olib borilsa foydali natijalar beradi.
3. Nutq buzilishini bartaraf etish prinsiplari, differensiyalashgan metodlarini va vositalarini ishlab chiqish, nutq buzilishlarini oldini olish metodlarini takomillashtirish va aholiga logopedik yordamni toʻgʻri tashkillashtirish yuzasidan yordamni tashkil etish muxum va shart.

Defektolog – logopedlarning metodik maxorati oshirilsa, yangi pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirilsa aholi oʻrtasida uchraydigan nutq kamchiliklarini bartaraf qilishda katta yutuqqa erishiladi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak nutq kamchiliklarini bartaraf etishda qulay va samarali usullardan foydalanishning ahamiyati katta ekan. Biz boʻlgʻusi defektolog – logopedlar sifatida hamda barkamol avlod tarbiyachisi sifatida buni yaxshi bilmogʻimiz va tarbiyaviy ish jarayonini va oʻqitishni shu asosda tashkil etishni oʻrganmogʻimiz lozim.

2-mavzu. Ilk yoshdagi rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni pedagogik-psixologik o'rganish(2 soat amaliy)

Ilk yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq kamchiliklarini bartaraf etishda didaktik o'yinlarni turkumlash va ulardan foydalanish.

Bolalar o'sib, ulg'aygani sari ularning nutqi ham rivojlanib boradi. Bu davrda ba'zan nutqning ma'lum darajadagi buzilishlari kuzatilishi mumkin. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda uchraydigan nutq kamchiliklaribartaraf etish yuzasidan xilma – xil yo'nalishda tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, Rossiyada R. Ye. Levina, L. F. Slirova, V. A.Kavshikov, Ukrainadi Ye. F. Sabotovich, O'zbekistonda L. R. Mo'minova, Ye. A. Boboeva tomonlaridan tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Biz o'z tadqiqotimizda Ushbu muammolar echimini echishga harakat qildik. Biz bolalar nutq faoliyatiga o'yinlarning qay darajada ta'sir etishni turli xil o'yinlar orqali sinab ko'rishga harakat qildik. Nutq buzilishlari bola shaxsining shakllanishiga, bilish faoliyatining rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi.

Ma'lumki nuqsonli bolalar bilan muloqotga kirishish uchun, pedagogga pedagogik mahorat juda kuchli bo'lmog'i lozim. Chunki ko'pgina nuqsonli bolalar (o'zlaridagi nuqsonlari sababli) o'zgalar bilan muloqotga kirishishni istashmaydi, istahsa ham qiynalishadi.

Insonlar bir birlari bilan muomilaga kirishar ekan, ularning asosiy ko'zlagan maqsadlaridan biri o'zaro bir biriga ta'sir ko'zsatis, ya'ni fikr- g'oyalariga yaxshi ta'surot qoldirishdir.Ammo ko'pgina nuqsonli bolalarning fikr doirasi kuchsizroq bo'lib, ega bo'lgan fikrlarini ham nutqida aniq bayon ettirishga (nuqsonlari sababli) qiynalishadi.

Shuning uchun pedagog birinchi bo'lib nuqsonli bolalarga psixologik ta'sir bu- turli vositalar yordamida bolalarning fikrlari, hissiyotlari va xatti harakatlariga ta'sir ko'rsata olishi darkordir.

Ma'lumki nutq – bu so'zlashuv o'zaro muomala jarayoni bo'lib, uning vositasi –so'zlar hisoblanadi. Manologik nutqda, diologik nutqda ham odam o'zidagi barcha so'zlar zaxirasidan foydalanilib, eng ta'sirchan so'zlarni topib, sherigiga ta'sir ko'rsatisni xohlaydi. Hutqida nuqsoni bor bola esa ko'pgina hollarda shu nuqsonini yashirishi natijasida muloqotda kirishishni istamaydi, kirishsa ham tor doiradagi insonlar (oila a'zolari, bog'cha opasi va bir necha yaqin do'stlari) bilan muloqotga kirishadi. Shu sabab ularning so'zlar zaxirasi kam, davragirlik xislatlari sust bo'ladi. Ertaliklarga ham o'zlariga berilgan sherni qiynalib aytishadi.

Ba'zi hollarga bunaqa bolalar nutqning paralingivistik ta'sirning bazi bir omillari nutqni susaytiruvchi, past tovushida ifodalash, to'xtashlar, duduqlanish, yutal, til bilan amalgam oshiriladigan harakatlar, nidolardan foydalanadi.

Muloqot jarayonidagi karakterli narsa shundaki, suhbatdoshlar bir birlariga ta'sir ko'rsatmoqchi bo'lishganda, dastavval nima deyish, qanday so'zlar vositasida ta'sir etishini o'ylar ekan. Muloqotning qanday kechishi va kimning ko'proq ta'sirga ega bo'lishi sheriklarning rollariga ham bog'liq. Ta'sirning tashabbuskori- bu shunday sherikki, unda ataylab ta'sir ko'rsatish maqsadi bo'ladi va u bu maqsadni amalga oshirish uchun barcha yuqoridagi ta'kidlangan vositalardan foydalanadi.

Shunday ekan, suhbat jarayonida bola o'zini tashabbuskor etib his qilishi, ya'ni bola suhbatda o'zini asosiy rolda ekanligini sezishi kerak, buning uchun pedagog diogni shu maqsadda tuzishi lozim. eng avvalo bola bilan ishonchli munosabat o'rnatishi kerak. Suhbat jarayonida bola uni yaxshi ko'rishlarini va u to'g'risida g'amxo'rlik qilishlarini his eta olishi juda muhimdir.

Pedagogning muloqot jarayonida o'yin, nutqiy mashqlar, barmoqlar teatri, qisqa saxna ko'rinishlarini o'ynash, rasmlari topishmoqlar, ta'limiy o'yinlar, barmoqlar gimnastikasi va qofiyali so'zlar o'yinidan foydalanishi muloqotning ijobiy o'tishiga yordam beradi.

Bola tomonidan berilgan bilimlarning o'zlashtirilishi uning hotirasiga ham bog'liqdir. Ma'lumki insonning eslab qolishi quyidagichadi :

10% O'qish orqali

20% Eshitish orqali

30% Ko'rish orqali

50% Eshitish va ko'rish

80% Gapirish orqali

90% Gapirish va bajarish

Shularni inobatga olgan holda she'rni yod olish tezligini oshirish uchun uni turli harakatlar bilan birgalikda olib borish yaxshi natija beradi.

Tog'orani olamiz

oldimizga qo'yamiz.

Ichiga suv solamiz,

so'ngra ishni boshlaymiz.

Bir, ikki, uch, to'rt (Ishqalash harakati bajariladi)

bir, ikki, uch, to'rt (G'ijimlash, chayish harakati)

Bir, ikki, uch, to'rt (chayish harakati)

bir, ikki, uch, to'rt (Siqish harakati)

Bir, ikki, uch, to'rt (Qoqish harakati)

bir, ikki, uch, to'rt (ilish, qistirish harakati);

Choynikchada qopqoqcha (choynik deganda qo'llar shar shaklida ifodalanadi)

Qapqoqchada qolpoqcha (Qop. Degan. qo'l. yarim qislgan xolda pastga qaratil.)
Qalpoqchada teshikcha (Qalpoq. degan. barmoq. mush yig'iladi. teshikcha deg.
Bosh barmoq bilan ko'rsatgich barmoq birlash. Teshi)
Teshikchadan par chiqar (Par chiqarda qo'llar harakatlanib yuqoriga ko'taril).

O'yin inson faoliyatining ko'rinishlaridan biridir. Tadqiqotchilar o'yinning qadrini bola xulqini shakllantirishdagi kishining muomala chog'idagi xatti – harakatini aniqlab olishdagi ahamiyatini ta'kidladilar.

O'yin bola hayotining uzviy qismidir. Bolalarning o'yin dunyosi boy va xilma – xildir. Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda o'yin usullari hamda elementlaridan foydalanish samarali natija beradi va shu sababdan keng qo'llaniladi. Shu sababli o'yin faoliyatidan keng foydalanish orqali bolaga har tomonlama ta'sir etish mumkin. O'yin bolaning aqliy rivojlanish vositasidir.

O'yin vaqtida xilma – xil aqliy jarayonlar faollashadi, o'yinning vazifa va shartlari esa diqqatni to'plash, analizatorlarni farqlash, taqqoslash, umumlashtirish jarayonlarining faollashuvini talab etadi. Bir xildagi harakat va so'zlarning ko'p takrorlanishi bola ongida narsa va hodisalar haqidagi mustahkam bog'lanishlar hosil qiladi, muayyan fikr, xatti – harakatlarning tarkib topishiga yordam beradi.

“O'yin – sinchkovlik va qiziquvchanlik olovini o't oldiruvchi uchqundir”, degan edi V. A. Suxomlinskiy.

O'yin bolalarning har tomonlama kamol topishida kata ahamiyatga ega bo'lib, o'yin vaqtida bolalarning sezgi, idrok, tafakkur, hayol, xotira, diqqat, iroda, xissiyot va boshqa ruhiy jarayonlari ishtirok etadi.

O'yinlar bolalarning aqliy faoliyatini o'stirishga, ularning fikriy tashabbuskorligini oshirishga xizmat qiladi. Bolalarning xis tuyg'ularini shakllantirishga, ayniqsa, ularning sezgi a'zolari (ko'rish, sezish, tinglash va .b) faoliyatini faollashtirishga yordam beradi.

Didaktik o'yinlar xilma – xil materiallar asosida tashkil qilinadi. Masalan: qo'g'irchoqlar, o'yinchoqlar, rang – barang rasm va kartochkalar, turli geometrik shakllar, tabiiy materiallar shular jumlasidandir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda didaktik o'yinlarning ag'amiyati katta, bu o'yinlarni keng qo'llash bola tafakkuri, idroki, zehni, xotirasi, irodasi, bilim olishga bo'lgan qiziqishi va ehtiyojining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolada atrof olamni bilishga bo'lgan qiziqish ortadi, ziyrakligi, ixtiyoriy diqqati, topqirligi tashabbuskorligi mustahkamlanadi. Bolalarda o'yin orqali, kattalarning xatti – harakati orqali voqe'likka munosabat shakllanadi, dunyoqarash, aqliy, axloqiy va jismoniy tomondan tarbiyalanadilar. O'yinlar o'z mazmuniga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi: Didaktik o'yinlar; dramalashtirilgan o'yinlar; syujetli – roli; harakatli o'yinlar.

Didaktik o'yinlarda bolalarning aqliy jixatdan o'stirish uchun kerakli bo'lgan muhim sifatlar hosil bo'ladi. O'yinlar bolalarning yoshiga va ruhiy

rivojlanishiga qarang tanlanadi. Ta'limiy o'yinlar orqali bolada mustaqillik, faollik, ijodkorlik masalaga ongli yondoshish malakasi o'stirib boriladi.

O'yin ko'rgazmalilik, oddiydan murakkabga o'tish usullari orqali olib boriladi. Tarbiyachi va logopedlar ta'limiy o'yinlarni o'tkazish davomida bola harakatini faollashtiradi, mustaqil harakat qilish qobiliyatini shakllantiradi, o'yindan to'g'ri foydalanilsa bolaning tafakkuri, nutqi, xotirasi ya'ni, aqliy tarbiyasiga asos solinadi. Ta'limiy o'yinlar orqali bolalar eshitish, ko'rish, sezish a'zolari orqali turli narsalar va ularni yasashda ishlatiladigan materiallarning xossalarini, ularni bir - biriga taqqoslashni, guruhlariga ajratishni o'rganadilar. Ta'limiy o'yinlar guruhlarda quyidagi xilda o'tkaziladi.

O'yinchoqlar bilan o'ynaladigan o'yinlar-"Ayiqlarga nima kerak?", "Jajji oyoqchalarimiz", "Zumrad uchun ko'ylaklar" .

Stol ustiga qo'yib o'ynaladigan o'yinlar- "Nima qaerda yuradi?", "Men aytgan narsani ko'rsat", "Kimning qo'lida nima bor?".

Og'zaki usuldagi ta'limiy o'yinlar- "Qo'g'irchoq Lolaxonni cho'miltiramiz", "Qo'g'irchoq Lolaxon mehmonga keldi", "Ajoyib xaltacha", "Shaklini top", "Rangini top" kabi o'yinlar kiradi.

Eshitish va ko'rish a'zolarini faollashtirish uchun "Xilini top", "Qaysi daraxtning mevasi?", "Nimaning pati", "Mevasini top", "Onasini top", "Mevalar va barglar", "Domino", "Yovvoyi va uy xayvonlari", "Ishlash uchun nima zarur", "Bu uychada kanday xayvon yashaydi", "Bu kim yoki nima?" singari O'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu o'yinlar orqali bolalarda meva va sabzavotlar, hayvonlar va parrandalar, yil fasllari, kiyim - kechak va boshkalar, kabi tasavvurlar boyitilib, kengaytirilib, ko'rish va eshitish, esda saqlab qolish xususiyatlari rivojlantirilib boriladi. Katta guruhlarda o'ynaladigan "Ayting biz topamiz", "Topgan topag'on", "Oshqovoq pishdi", "Loy o'yini", "Bog'bonlar" o'yinlari orqali bolalarda mehnatga muhabbat ruhi tarbiyalanib boradi.

Mazkur o'yin jarayonida nutq muhim ahamiyat kasb etadi: u orqali bolalar fikr, his tuyg'u va kechinmalar bilan almashinishadi, o'zaro do'stona munosabatlar o'rnatishadi. Nutq bolalarga tevarak – atrofdagi hayot voqealari va faktlariga bir xil munosabatda bo'lishga yordam beradi. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar Bilan olib boriladigan didaktik o'yinlar so'z va gaplarni tahlil qilishga, so'zlarda tovush va harflarning o'rnini aniqlash, jummalarni to'g'ri tuzishga o'rgatadi. Quyida bolalar bilan tarbiyaviy mashg'ulotlarda, oila sharoitida, o'yin faoliyatida olib boriladigan didaktik o'yinlardan misollar keltiramiz:

“Jonli so'zlar ” o'yini.

O'yin guruh Bilan o'ynashga mo'ljallangan bo'lib, tarbiyachi dastlab doskaga uchta bolani chiqaradi va o'yin qoidasini tushuntiradi:

Hozir siz bilan “Jonli so'zlar ” o'yinini o'ynaymiz. Bu bolalar so'z bo'ladilar. Demak, uch so'zdan iborat bo'lgan gap tuzamiz. Bolalar gap tuzadilar.

Masalan, Lola - “bog’da”, Jasur -“ pishdi”, Aziz - “mevalar” degan soʻzni ifodalaydilar. Keyin tarbiyachi bolalarni chapdan oʻngga qarata ketma - ket joylashtirib, gap “yozishlarini ” taklif qiladi. Vazifa bajarib boʻlingach, jonli soʻzlar oʻz soʻzlarini aytadilar, bolalar esa aytilgan gapni eshitadilar.

Oʻyin gap va “Jonli soʻzlar ”ni almashtirish orqali davom etadi.

Oʻyinning 2 – turi

Oʻyinning ikkinchi turi ham birinchi turga oʻxshab, bolalar Bilan bigalikda avval gap tuziladi, soʻngra bolalarga gapning soʻzlarini boʻlib beriladi. “Jonli soʻzlar ” oʻz soʻzlarini bilib olganlaridan soʻng tarbiyachi

“jonli soʻzlarga” murojaat qiladi:

- Hozir siz oʻz joylaringizni aniqlab, ketma – ket turgan holda aytilgan gapni “yozasiz”, qolgan bolalar sizlarni kuzatib turadilar, - deydi.

Bolalar tezda ketma – ket turib aytilgan gapni yozishlari kerak, soʻngra har bir bola oʻz soʻzini ovoz Bilan aytib, gap hosil qiladilar.

Oʻyin shu tarzda bolalarni va gapni almashtirish orqali davom ettiriladi. Oʻyinda oʻz qatorini adashtirmay toʻgʻri topib turgan holda soʻzni aniq talaffuz qilgan bola gʻolib sanaladi va ragʻbatlantiriladi.

“Sehrli qalamchalar” oʻyini

Oʻyin uchun bir necha rangli qalamchalar va ular yordamida chizilgan turli narsa va buyumlar rasmi kerak boʻlib, ular doskaning oʻrtasiga joylashtiriladi. Oʻyinni yakka holda yoki guruh bilan oʻynash mumkin.

Tarbiyachi bolalar diqqatini doskaga qoʻyilgan jihozga qaratib :

- Bolalar, siz koʻrayotgan mana bu qalamchalar oddiy qalamchalar emas, balki ular “sehrli” qalamchalardir. Ular mana bu rasmni bir zumda chiza oladilar. Keling, hozir ular nimalarning rasmini chizganliklarini aniqlaymiz.

Tarbiyachi birin – ketin koʻrsatadi, bolalar esa ularni nomlaydilar. Tarbiyachi bolalar diqqatini maqsadda koʻzlagan bir tovushlarning (masalan s, b, r va h.k.) oʻrnini soʻz boshida, oʻrtasida, oxirida) aniqlashga qaratadi. Tarbiyachi:

- Bolalar, endi har bir qalamcha qaysi rasmni chizganini aniqlaymiz.

Hozir har biringiz oʻzingizga yoqqan rangdagi qalamchani tanlab olasiz. Qalamchangiz qaysi rasmni chizganini ular qoldirgan izdan yurib aniqlaysiz va nomlaysiz. Agar siz rasmda nima aks ettirilganini toʻgʻri topsangiz uni aniq, ravon talaffuz qilsangiz rasmni oʻzingizga olishingiz mumkin. Shu tartibda bolalar qalamchalar chizgan rasmlarni aniqlaydilar. Oʻyin doskadagi jihozni almashtirish orqali davom ettirilishi mumkin. Oʻyinda kim koʻp rasm toʻplay olsa, oʻsha bola gʻolib sanaladi.

Oʻyinning 2 - turi

Oʻyinning 2 – turi ikki farqlanayotgan tovush ustida oʻtkaziladi (b-p, s-sh, r-l, a-o, d-t va h.k). Masalan, q-g . Mazkur oʻyinning 1-turi uchun zarur jihozlar qisman

o'zgartiriladi. Jumladan, rasmlar ikki farqlanayotgan tovushga mos ravishda tayyorlanib, ularning yoniga kerakli harfni yozish uchun bo'sh katakcha qo'yiladi.

Tarbiyachi bolalarga o'yin shartini tushuntiradi:

- Bolalar, rasmdagi qalamchalardan birini o'zingizga tanlang. Qalamchalaringizning chizgan rasmini aniqlashda ular qoldirgan izlar bizga yordam beradi. Ana shu izlardan yurib qalamchalaringiz rasmini aniqlaysiz va uni nomlaysiz. Bizga kerakli bo'lgan "g" yoki "q" tovushini ajratib, aniqlab, uni bo'sh katakchaga yozasiz. Agar siz shu vazifani to'g'ri bajarsangiz rasmni o'zingizga olasiz.

O'yin rasmlarni almashtirish orqali davom ettirilishi mumkin. O'yinning bu turida ham ko'p rasm yig'ib, topshiriqni to'g'ri bajargan bola g'olib sanaladi.

"Hayvonot bog'i" o'yini

O'yin uchun "Hayvonot bog'i" deb atalgan maxsus jadval zarur bo'lib, jadvalda "qafaslar" to'rt qatorga (1, 2, 3, 4) joylashtiriladi (cho'ntaklar yopishtiriladi).

Bundan tashqari, o'yin uchun hayvonlarning rasmlari aks ettirilgan varaqlar (birinchi qator uchun: ot, it, qo'y, kit; ikkinchi qator uchun: bo'ri, ayiq, yo'lbars, tulki; uchinchi qator uchun: olmaxon, jirafa, kenguru, qo'zichoq; to'rtinchi qatorga: tipratikan, kaltakesak va h.k) ham zarur bo'ladi. O'yin jadvalni doskaga osish va hayvonlarning rasmlari ifodalangan varaqlarni bolalarga tarqatish bilan boshlanadi. Tarbiyachi bolalarga hayvonot bog'iga keltirilgan hayvonlarni nomlab, ularni bo'g'inlarga ajratgan holda ma'lum qatorlardagi qafaslarga joylashtirish kerakligini tushuntiradi. Masalan, "ot" – bo'g'indan, demak uni birinchi qatordagi qafasga, "bo'ri"- ikki bo'g'inli, shuning uchun ikkinchi qatordagi qafasga joylashtiriladi va hakoza.

3-mavzu.Maktabgacha yoshdagi rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni pedagogik-psixologik o'rganish(2soat amaliy)

Mashg'ulotlar davomida bolalarning og'zaki nutqini o'stirish amaliy texnologiyasi

Mashg'ulotning maqsadi: Bolalarni tovushga o'rgatish.

Maktabgacha ta'lim muassasasi ta'lim tizimining eng muhim sohasi bo'lib barkamol avlod asosan ana shu bo'g'inda shakllanadi. Shunga ko'ra maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda bog'lanishli nutqni rivojlantirish ham ta'limning eng muhim tarkibiy qismlaridan bo'lib hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim sohasida bolalarning nutqini rivojlantirish borasida muhim tadqiqotlar olib borilgani xolda bog'lanishli nutqni rivojlantirish, ayniqsa, bu

muammoning bolalarda eng samarali davr sanalgan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda tevarak-atrofni o'rganish jarayonida nutqini rivojlantirish muhim ahamiyatga egadir.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning tevarak-atrofni o'rganishda bog'lanishli nutqini rivojlantirish eng zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, fikr va jonli so'z, ona tilining hissiy estetik ma'no qirralarini anglab olish, uning go'zalligi, sofligi, boyligini his etish orqali amalga oshiriladi.

Bizga ma'lumki, juda ko'p mashqlar sayr paytida uyushtiriladi. Masalan, sayr paytida bir bola eshak minib gurux bolalari yonidan o'tib qoladi.

Bolalardan biri havas bilan qaraydi va o'z hayratini quyidagicha ifodalaydi: -"Vuy, ana u bola eshakda uchayapti".

Murabbiy tuzatadi:

eshakda uchilmaydi, eshakka miniladi. So'ng bolalardan so'raydi: yana nimaga miniladi?

- velosipedga miniladi;
- poezdga miniladi;
- otga miniladi;
- samolyotga miniladi;

Boshqa bir bola tuzatadi: poezdga chiqiladi, samolyotda uchiladi. Bolalar sayr paytida baland binolar oldidan o'tishlari mumkin. Shunda quruvchilik kasbi, qurilishda ishlatiladigan g'isht, ganch, qum, ohak va boshqa qurilish materiallari, quruvchilik kasbi -ganchkorlik, g'isht teruvchi, suvoqchi; binolarning balandligi, go'zalligi va hokazolar hakida jumlarlar tuzadilar,

Gulzorlar, borlarga sayohatlar davomida tarbiyachi samolyotlar, poezdpar, gullar, favvoralar hakida suhbatlar uyushtirishi mumkin. Suhbatlarda predmetlarning rangi, tusi, soni, katta-kichikligi, turi, o'xshash va farqli tomonlari haqida ham mashq qilib boriladi.

"Nima shirin?", "nima uchadi?", "tushirib qoldirilgan so'zlarni toping", "men boshlayman, siz davom ettiring" kabi mashqlar ham grammatik jihatdan jummalarni to'g'ri tuzishga yo'llaydi.

Nutqning tovush madaniyatini shakllantirish bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishda muhimdir. Bolalar ko'pincha s-z, p-f, t-d, p-b. u-u, x-x., k-r tovushlarini to'g'ri talaffuz qila olmaydilar. Nutq jarayonida ketappan - ketayapman, Hojaxon -Shoxjaxon, Yustam - Rustam, qaga - qarg'a kabi talaffuz etishda yo'l qo'yadigan xatoliklarning oldini olish, ya'ni to'g'ri talaffuz etishga yo'llash, ovoz balandligiga, tovush sur'atiga e'tibor berish metodik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Ba'zi bolalar o'zidan kichiklarni jerkib, ovozini ko'tarib muomala qiladilar. Shunda ular talaffuziga e'tibor qaratish, nutq madaniyatiga, me'yorda so'zlab, muomala qilishga o'rgatish zarur. Chunki bolalikda tarkib topgan muomala madaniyati inson umrining oxirigacha muxrlanib qoladi.

Samimiy muomala me'yori, hatto muomalada ko'z qarashlari, boshqalar oldida o'zini tuta bilish -muomala madaniyatining oddiy talablaridir.

So'zlashuv (dialogik) nutqni shakllantirish, bog'lanishli nutqni tarkib toptirishda eng muhim talablardan sanaladi. So'zlashuv nutqi bolaning lugat boyligiga bogliq, bo'ladi. Bunda bola o'ziga murojaat kilganlarida suhbatdoshini eshita olish, tushunish, savollarga to'g'ri javob bera olish bilan birga, so'zlashuv madaniyatini egallay borishi ham taqozo etiladi. Bolalar bilan suhbat jarayonida ko'proq yo'naltiruvchi savollar beriladi.

Masalan, tabiatga sayohat paytida:

- Hozir yilning qaysi fasli?
- Bahorda tabiatda qanday o'zgarishlar yuz beradi?
- Bahorda qanday qushlar uchib keladi?

kabi savollarning berilishi bolalarning dialogik nutqining rivojlanishiga yordam beradi.

"Ovchilar va quyonlar", "Oksoq bo'ri va qo'ylar", "Nimaning pati?" kabi o'yinlardagi savol-javoblar ham bolalarning dialogik nutqini rivojlantiradi. Tarbiyachi bolalarga "nimaning pati?" deb savol beradi. Bolalar javob beradilar:

- o'rdakniki,
- qarg'aniki,
- burgutniki

Qushning nomini takror aytgan bola biror shartni

bajaradi: o'yinga tushadi, she'r aytadi yoki qo'shiq kuylaydi.

Bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishda monologik nutq; (hikoya qilib berish) ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi. Monologik nutqda yuqorida sanab o'tilgan bog'lanishli nutq talablarining barchasi jamlangan bo'ladi.

Bolalarning monologik nutqining shakllanishi ularni maktabga tayyorlashning asosiy shartlaridan biridir. Zero, bog'lanishli nutq bolalar tafakkurini va unga borlik bulgan zehnni utkirlash, zukkolik kabi hislatlarni ham tarkib toptiradi.

Bolalarda hikoya qilish ko'nikmasi uning lug'at boyligi, jumla tuzish malakasi bilan ham ahamiyatlidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga muayyan mavzular bo'yicha ertaklar. rasmlar asosida hikoya tuzish topshirig'i ham berilishi mumkin. Bundaytopshiriq ustida ishlash orqali ularda mustakillik, ijodiy faollik rivojlantiriladi. "Bizning oila", "Bahor fasli", "yoz - ugar soz", "qaldirg'ochlar uchib keldi", "qo'g'irchoq teatrida", "qish", "kor", "qorboboning sovg'asi", "qushlar bizning do'stimiz", "Mening to'tilarim", "Hayvonot bogida", "Ertaklar mamlakatida", "Sirkda", "qo'g'irchoqlarim -ovunchoqlarim", "Uch ayiq", "quyonlar", "qovoqqolvon" va boshqa mavzularda hikoya tuzishni tavsiya etish bolalarni nihoyatda qiziqtiradi.

Hikoya qilish bolalarning jumlalarni grammatik jihatdan to'g'ri tuzish, tovushlarni, qo'shimchalarni to'g'ri talaffuz etish, yoshiga mos darajada tasviriy

vositalardan to'g'ri foydalana olishiga yordam berib boriladi.

Kattalarning mehnat jarayonini kuzatish, tabiatga, ishlab chiqarish korxonalariga, dars, cho'l, dalalarga sayohatlar asosida hikoyalar tuzishni tavsiya etish ham bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishda eng qulay usullar sanaladi.

"Maktabgacha ta'lim dasturi"ga binoan muayyan mavzular bo'yicha mustaqil jumlar tuzish, ona tiliga xos tovush, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, nutqning ta'sirchanligiga erishish, rasmlar asosida hikoya tuzish, kichik xajmli badiiy asarlarni qayta hikoya qilib berish, manzarali rasmlar asosida hikoyalar tuzish talab etiladi. Lekin, kuzatishlar bu talablarning to'liq bajarilmayotganini ko'rsatadi. Vaxolangki, bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishda badiiy adabiyotning imkoniyatlari kattadir.

Maktabgacha tarbiya muassasalari tarbiyalanuvchilari badiiy adabiyotning eng yorqin namunalari bilan har kuni tanishtirilib boriladi. Hikoyatlar, rivoyatlar, ertaklar, maqollar, topishmoqlar, tez aytishlar va qo'shiqlar ular nutqining ifodaliligini ta'minlab qo'ya qolmaydi, balki so'z zaxirasini ham boyitadi, adabiy til imkoniyatlaridan bahramand qiladi.

Maktabgacha ta'lim dasturi"da badiiy adabiyot namunalari bilan tanishish uchun tavsiya etilgan ro'yxatdan mashg'ulotlar o'tkazishda keng foydalaniladi.

Dasturda qo'shimcha adabiyotlar ham tavsiya etilgan bo'lib, bular asosiy adabiyotlar vositasida o'tiladigan mavzularni to'ldirishga va mashg'ulotlarni yanada boyitishga yordam beradi. Bolalarda bog'lanishli nutqni rivojlantirish ularni savodxonlikka o'rgatish bilan davom ettiriladi. Bu jarayon eshitganini anglab olishga ko'nikma hosil qilish, o'z fikrini ifodali, aniq, tushunarli, grammatik jihatdan to'g'ri ifodalay olish bilan bog'liq bo'ladi.

Demak yuqoridagilardan xulosa qilib aytganda, bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishda ularni o'rab olgan tevarak-atrof, mehnat jarayoni, badiiy adabiyot asosiy manba bo'lib hisoblanadi.

Shuningdek, Ona-Vatan haqidagi tushunchalar, buyuk siymolar, an'anaviy bayramlar, o'zbek xalkining urf-odatlari, marosimlari, mashhur sarkardalar haqidagi hikoyalar, rivoyatlar, xalq amaliy san'ati namunalari, transport va aloqa vositalari, kundalik buyumlar ham bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishda eng muhim vazifalar sifatida ularning lug'atini boyitish va faollashtirish, nutqining grammatik tuzilishini, tovush madaniyatini, dialogik va monologik nutqni shakllantirish, badiiy adabiyot namunalaridan foydalanish hamda savod o'rgatishga tayyorgarlik kabilarni kiritish mumkin.

Bolalarning tevarak-atrofnı o'rganishda bog'lanishli nutqini rivojlantirishda umumiy masalalar bilan bir qatorda, ikkinchi darajali masalalarni ham ajratib olish va shu asosda uning asosiy yo'nalishlari hamda o'ziga xos

xususiyatlarini ishlab chikish ilm-fan oldidagi dolzarb masalalardandir. Shuning uchun ham maktabgacha yoshdagi bolalarning tevarak-atrofni o'rganishda bog'lanishli nutqini rivojlantirish mazmuni va tashkiliy-metodik xususiyatlarini belgilab olish eng muhim vazifalardan hisoblanadi

4-mavzu. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni nazariy va amaliy logopedik tekshirish(2soat amaliy)

Bolalarda eshituv diqqatini bir nuqtaga to'play olish malakasini hosil qilish amaliy mashg'uloti.

Mashg'ulotning maqsadi: Bolalarni tovushga taqlid qilishini eshitib, qaysi o'yinchoq shunday ovoz chikarishini aniqlashga o'rgatish.

Mashg'ulotga tayyorgarlik: Logoped ovoz chikaradigan o'yinchoqlarni: sigir, kuchuk, echki, mushuk qo'y va hokazolarni tayyorlab qo'yadi. «Top, nima qichqirayapti?» o'yini.

O'yinning qisqacha mazmuni: Logoped oldindan tayyorlab qo'yilgan o'yinchog'ini bittadan olib, uni bolalarga ko'rsatadi, ovoziga taqlid qiladi va bolalardan bu qaysi hayvonning ovozi ekanligini so'raydi. Navbatdagi o'yinchoqni bolalarga yashirgan joyidan olib ovozini qilib ko'rsatadi va bolalardan «Topinglarchi, hozir bizga qaysi (o'yinchoq) hayvon mehmon bo'lib keladi» deb so'raydi. So'ngra logoped bir bolaga boshqa xonaga o'tib, eshigini qiya (bir oz) ochib qo'ygan holda biron-bir hayvonning ovozigacha taqlid qilishni aytadi, boshqa bolalar esa u qaysi hayvonning ovozi ekanligini topadilar.

Metodik ko'rsatma. O'yinni 5-6 marta takrorlash mumkin. Bolalarning diqqat bilan eshitishlarini kuzatib turish kerak. Hamma bolalarni: savollar berib faollashtirish kerak.

Eshituv diqqatini rivojlantirish

Mavzu: Mustahkam eshituv diqqatini rivojlantirish.

Mashg'ulotning maqsadi: Bolalarni narsaning jarangdorligiga qarab aniqlay olishga urgatish.

Oldindan qilingan ish: Bolalar o'yinchoqlarni ovozigacha qarab bilib olishga o'rganishgan.

Mashg'ulotga tayyorgarlik: Logoped musiqaviy o'yinchoqlardan: doyra, garmoshka, buben, pianino va boshqalarni tanlab oladi.

«Men nimani chalyapman, top» o'yini

O'yinning qisqacha mazmuni: Logoped bolalarni musiqali o'yinchoqlar bilan tanishtiradi. So'ngra bu o'yinchoqlarni parda orqasiga yashiradi. Parda (shirma)

orqasida turib, bironta musiqaviy o'yinchoqni chaladi va bolalardan qaysi musiqali o'yinchoqni chalganini so'raydi. Kim uni to'g'ri topsa, shu bola parda orqasidan musiqaviy o'yinchoqni olib, uni chaladi.

Metodik ko'rsatma: Bolalar tinchgina o'tirib, ohangni diqqat bilan tinglashi kerak. Bir mashg'ulotda to'rt xildan ko'p musiqali o'yinchoq bo'lmashligi kerak. O'yinni 5-6 marta takrorlash kerak.

Logopedik faoliyatni tashkil etish. Maktabgacha ta'lim muassasalarining logoped - tarbiyachilari ta'lim tizimini isloh qilishda etakchi kuchlardan hisoblanadi. Ta'lim jarayonida kutilgan natijaga esa o'zaro nazariy va Amaliy hamkorlikni kuchaytirish bilan erishiladi. Ma'lumki, maxsus MTM pedagog xodimlarining asosiy vazifasi korreksion ta'lim orqali bolalarning nutqiy kamchiliklarini to'liq yoki qisman bartarf qilib, ularni umumiy o'rta ta'lim yoki maxsus maktab ta'limiga tayyorlashdan iboratdir. Korreksion ta'lim muvaffaqiyatidagi nutqiy kamchilik, uning turi, og'irlik darajasini to'g'ri va o'z vaqtida aniqlash hamda bartarf etish, tegishli mashg'ulotlarni barvaqt boshlashga bog'liq. Bu jarayonga logoped – tarbiyachilar ham yangicha yondoshib, samarali izlanib ishlashlari maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar jismonan, ma'nan va ruhan rivojlanib, shaxs sifatida shakllanishlari uchun zamonaviy ta'lim va tarbiyaning eng sinalgan usullarini amalda joriy etish zarur.

Bu dunyoda har bir inson betakror – o'z qobiliyati va fikrlash tarziga ega. Muammoga individual yondoshish ta'lim – tarbiya har tomonlama rivojlanishi va emotsional to'liqlikni ta'minlaydi. Natijada bolaning individual qobiliyati, ruhiyati va xulqi shakllanib boradi.

Nutqiy kamchiligi bo'lgan bolalar bilan ishlash uchun logoped – tarbiyachilar avvalo o'z xonalarini hozirgi davr talabi asosida jihozlashlari kerak. Logoped xonasi toza, saranjom – sarishta, barcha qulayliklarga ega bo'lishi, bola unda qiziqarli o'yinlar bilan shug'ullanishi uchun imkon topishi kerak.

Ana shunda barcha mashg'ulotlarni noan'anaviy va qiziqarli o'tkazish uchun sharoit tug'iladi. Predmetli – rivojlantiruvchi muhit faqat guruxlar bilan birga, logoped xonasida ham vujudga keltirsa, bolalar yanada rag'batlanadi. Ular mustaqil ravishda stellaj, devorda osilgan cho'ntakchali gilam – uycha, daraxt va boshqa xohlagan o'yinchoqlar yordamida “Kuz”, “Oila”, “Maktab” mavzularida o'yin uyushtiradilar, kiyimlarini modellashtirib, turli gullardan guldastalar tuzadilar.

Ijod muhitini kuchaytirish maqsadida esa har xil, jumladan, “Kim ko'p “m” tovushiga predmetli rasm chizadi? ” mavzusida tanlov o'tkaziladi hamda unda qatnashuvchilar uchun zarur shart – sharoitlar yaratib beriladi. Tanlovda g'olib chiqqanlar rasmi “Haftamiz yulduzlari” nomli stendida joylashtirilishi barchaga rag'bat bag'ishlaydi.

Predmetli – rivojlantiruvchi muhit doimo yangilanib turilishi va bolalar bu o'zgarishni sezishlari lozim. Masalan, “Bilmasvoy olib kelgan konvertni ochingda, yozuvdan tushib qolgan harfni joy – joyiga qo'yib o'qing yoki so'z boshidagi

tovushni soʻz oxiridagi tovushga qoʻshib, soʻzni oʻqing”, deb topshiriq beriladi.

Yerga toʻshalgan gilimcha relaksiya (mushuklarni boʻshashtirish) orqali turli oʻyinlar oʻynashga yordam beradi. Kerak boʻlsa, magnitli tasmada yozilgan yomgʻir yogʻishi, qushlar ovozi va hakoazolardan ham foydalanish lozim.

Tashxis.

Logoped har bir bolaga individual yondoshgan holda, kompleks tashxis oʻtkazishga puxta tayyorlanadi. Olingan maʼlumotlar nutq xaritasiga kirgiziladi. Turli faoliyat jarayonlarida aniqlangan oʻzgarishlar doimiy nutq xaritasida belgilab boriladi.

Logoped bolalar ishini tahlil qilish orqali mayda qoʻl motorikasi, qogʻozda moʻljall olish, diqqat, xotira, idrok, tafakkur va leksik mavzularni bilish darajasi haqida maʼlumotga ega boʻladi. Olingan natijalar asosida bolalarni guruxlarga ajratadi va individual holda mashgʻulotlar oʻtkazish uchun uslubiy rejalarini toʻzib chiqadi.

Oʻrtadagi oʻzaro samimiy muloqat oʻziga ishonmaslik, tortinchoqlikni engib oʻtishda bolaga yordam beradi. Gurux va Yangi joyga moslashish jarayonida bola oʻzini xotirjam his qilishida logoped koʻmagi va yondoshuvi oʻziga xos ahamiyat kasb etadi. Taʼlimiy shakldagi mashgʻulot – oʻyin bolani yangi faoliyatga oʻtish uchun tayyorlaydi. Jumladan, guruh bilan ishlash chogʻida tanlangan mavzu sir tutiladi, toki, bola u yoki bu topshiriqni bajarish jarayonida mustaqil ravishda mashgʻulot mazmunini bilib olsin. Masalan, logoped kaftidagi koʻk doirani topish va qaerdaligini eslab qolish.

Bolalar koʻk doirani yigʻishtirib olishadi va ular joyini aytib berishadi: stol ustida, stul tagida, stakan ichida, devor yoki doskaga osilgan. Endi logoped koʻzlarini yumgan holad, koʻk doira qaerda yotganini soʻz orqali bilishni taklif etadi va “s” tovushini choʻzib, “sochiq”, “sovun”.

Savol: soʻzda qanday tovush koʻproq eshitilayapti?

Javob: “S” tovushi.

Logoped: Bugun qaysi tovush Bilan tanishar ekanmiz?

Javob: “S” tovushi bilan tanishamiz.

Logoped mashgʻulot boshida tashkil etgan jarayon bolalar bugun qaysi tovush Bilan tanishlarini mustaqil aniqlashga yordam beradi. Bolalar uchun eng qiziqarli, yoqimli mashgʻulot jamoa boʻlib oʻtkaziladigan mashgʻulotdir. Unda faqatgina bolalar emas, balki, oʻqituvchi – logoped, pedagog, musiqa raxbari va psixologlar ham ishtirok etadilar.

Har bir murabbiy oʻz guruhi uchun oʻyin, topshiriq, boshqotirma, rebus, sxemalar tayyorlaydi. Ayniqsa, magnitli tasma yozuvlari va video materiallardan unumli foydalanish mashgʻulot taʼsirchanligini oshiradi, uning hayotiy va jonli boʻlishini taʼminlaydi.

Natijada bolalarda taʼlimga nisbatan qiziqish yanada ortadi, ular oʻzlari

qaysi topshiriqlar e'tiborga molik ekanligini ayta boshlashadi. Jamoaviy mashg'ulotlar umulashtiruvchi ahamiyat kasb etib, ularda bolalar muayyan vaqt davomida egallagan bilim va malakalarini namoyish etadilar.

E'tiborli joyi shundaki, bolalar amaliy mashg'ulotlarni judayam sevadilar. Chunki ular bu xil muloqot – bahslarning turli jarayonlarida bevosita qatnashadilar. Masalan, “Mevalar” mavzusi bilan tanishar ekan, mavjud mevalarni totib ko'rishib, sal yanglishib bo'lsa ham murabbo, sharbat tayyorlash texnologiyasini izohlab beradilar.

Logoped har bir mashg'ulotda amliyotdan foydalanadi va hamkorlikda sharbat tayyorlashga kirishadi. Maxsus chizma – jadval asosida tayyorlagan sharbat ketma – ketlikda hikoyalar tuzishga yordam beradi. Faoliyatning bu turini turli leksik mavzu bo'yicha qo'llash yaxshi samara beradi.

Individual ish: bolalar artikulyasion apparatini rivojlantirish, tovushlarni so'z va jummalarga joylashtirish, avtomatizasiya va differensiyalash.

Logoped bola oldida doimo mashqlarni qiziqarli bajarish uchun harakat qilish vazifasi turadi. Binobarin, har bir bolaning o'z daftari bo'lib, bu daftarga o'qituvchi – logoped oldindan uch – to'rt topshiriq yozib qo'yadi. Bu topshiriqlarbolaning ko'rish layoqati, xotirasi, diqqati, logik tafakko'rini, tasavvuri va o'quv mlakasini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Topshiriq bola yoshi, qiziqishi va qobiliyatiga qarab beriladi. Masalan, o'ylab ko'r, “NON” so'zini qanday qilib “KON” so'ziga aylantirsa bo'ladi?

O'yin sharti: har bir so'zda faqat bitta tovush almashadi va yangi so'z hosil bo'ladi, toki “kon ”so'ziga aylanmaguncha logoped individual mashg'ulotni olib borishda asosiy faoliyatni turi o'yin ekanligini hisobga olish shart.

O'yin «**Razvedkachilar**».

Maqsad: Bolalarni zarur tovushini so'zlarda to'g'ri talaffuz etishga o'rgatish.

O'yinning borishi: Tarbiyachi bolalarga rasmlarni ko'rsatadi, bolalar rasmlarning nomlarini aytadilar. **So'ngra tarbiyachi razvedkachilarni tanlaydi. Razvedkachilar** xonadan chiqib turadilar. Tarbiyachi qolgan bolalar bilan rasmlarni xonaning turli burchaklariga yashirib chiqadi. Razvedkachilar kelib, rasm yashirilgan joyni qidiradilar va topib olgan rasmlarni bolalarga ko'rsatib, uning nomini aytadilar. So'ngra bolalar o'rin almashadilar.

Metodik ko'rsatma: Narsalarning nomini aytayotganda zarur tovushini aniq talaffuz etishlari kerak. Zarur tovushini cho'zib talaffuz etmaslik lozim. Aks holda tovush buzilib eshitiladi.

Ota- onalar bilan ishlash.

Hozirgi davrda ota-onalar bilan pedagoglar hamkorligiga alohida e'tibor berilmoqda va bu ta'lim tarbiya ijobiy natijalarga olib kelmoqda.

Ota – onalar bilan ishlashda o'qituvchi – logopedlar an'anaviy va noan'anaviy usullar : anketalashtirish, maslahat – muloqat, ochiq mashg'ulotlardan keng foydalanadi. O'z navbatida ota – onalar farzandlari ishlari bilan tanishib,

ulardagi muammo va yutuqlardan tegishli xulosa chiqaradilar. O`qituvchi – logoped har bir bola topshiriqlarni qanday bajarganligini ota – onalarga tushuntiradi. Individual daftarlar orqali bolalar qanday natijalarga erishgani, qaysi tovushni hosil qilolmagani, nimada qiynalishi haqida ma`lumot berib boriladi. Shu Bilan bir qatorda, ota – onalar bolalari bilan topshiriqni qayta ko`rib chiqishlari yoki bajarishlari uchun imkoniyat yaratiladi.

Ota – onalar bilan hamkorlikda “Bir kunlik xat kuni”ni o`tkazish ayniqsa ijobiy natijalar beradi. Bu tadbir jarayonida bolalar qiyinadigan shkaflar ichida cho`ntakchalar qo`yilib, ichiga muhim hisoblangan ma`lumotlar yoziladi. Masalan, “Siz Bilan birga biz ham xursandmiz, chunki Alisher talaffuzida “r” tovushi hosil bo`ldi yoki “Alisherga so`zlashuv payti doimo R tovushini aytishni yodiga solib turing. Rahmat! ”. “Madina hozircha tugmasini o`zi o`tkaza olmaydi, poyabzal bog`ichini bog`lay olmaydi. Uyda u Bilan mashq qiling, unga yordam bering, ishonamizki, hammasi yaxshi bo`ladi”.

Ota – onalar bilan muomala qilganda, ular kayfiyatini hisobga olish benihoya muhimdir.

Bundan tashqari, ochiq mashg`ulotlar o`tkazish logoped faoliyati bilan tanishtiribgina qolmay, balki har bir ota-ona o`z bolasini tengqurlari bilan taqqoslaydi, unga o`z bahosini qo`yadi va undagi kamchiliklarni yo`qotish choralarini qidiradi.

“Ochiq eshik kunlari”da esa ota-onalar nafaqat mashg`ulotlarni kuzatadilar, ayni paytda pedagog, o`qituvchi-logoped, vrach-nevropatolog va hamshiralar bilan uchrashadilar hamda ulardan qimmatli yo`l-yo`riqlar, maslahatlar oladilar.

5-mavzu. Rivojlanishida nuqsoni bo`lgan bolalarni logopedik tekshirish amaliyoti(2soat amaliy)

REJA:

5.1. Bolalardagi nutq nuqsonlarini bartarf etishda logoped ish faoliyat va ota- onalar bilan hamkorlik ishlarni tashkillashtirish yo`llari.

Har qanday jamiyatda kelajak vorislari bo`lmish farzandlarni mas`ulayatni his etadigan, ularni davlat taraqqiyoti va gullab-yashnashiga salmoqli ulush qo`shadigan munosib fuqarolar bo`lib etishishlariga katta umid bilan qaraladi. Dunyoga “O`zbek modeli” deb nom olgan rivojlanish yo`li bilan tobora ko`proq tanilayotgan O`zbekistonda ham bolalar huquqlarini himoya qilishga juda katta e`tibor berilmoqda.

Davlatimizning ustivor siyosati yosh avlodni ma`nan etuk, jismonan

sog'lom va aqlan barkamol qilib voyaga etkazishdir. Bu o'rinda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan ayrim ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar tarbiyasi alohida e'tiborda bo'lib kelgan. Bola tarbiyasi dastlab oilada o'z ota-onasining bag'rida jismonan, aqlan va ma'nan shakllanib boradi. Farzandlar tarbiyasi ko'p jihatdan oiladagi muhitga, atrofdagi kattalarning bolani tarbiyalashga bo'lgan munosabatiga bog'liqligi, ota-onaning jamiyat oldida mas'ul ekanligi, davlatimizning qator qonun va qarorlarida qayd etilgan. Nutqida nuqsoni bor bolalar bilan ham o'z vaqtida to'g'ri tashkillashtirilgan ta'lim – tarbiya ishlari bolalar rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Fonetik-fonematik nutq kamchiligi - bu tovushlarni talaffuz etish va idrok qilish jarayonidagi kamchiliklar natijasida bolalarda ona-tilidagi tovushlarni talaffuz qilish tizimi shakllanishining buzilishidir.

Nutqi fonetik-fonematik tomondan rivojlanmagan 3 – 4 - 5 yoshli bolalar normal eshituvchi va normal intellektli, nutqi va bunda nutqning tovush tomonining shakllanmaganligi asosiy o'rin egallaydi. Bu bolalar uchun fonematik idrokning shakllanish jarayonining tugallanmaganligi xosdir.

Nutq kamchiliklari tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish bilan chegaralanib qolmay, shuningdek tovushlarni etarli farqlamaslik va so'zni tovush tomondan analiz qilishdagi qiyinchiliklar uchraydi.

Bunday nutq kamchiligida nutqning idrok va talaffuz qilish nuqsonlariga asoslangan fonetik-fonematik tomonining buzilishi birinchi o'rinda turadi. Shu bilan birga ba'zi bolalarda leksik-grammatik taraqqiyotida qo'pol ifodalanmagan orqada qolishi ham kuzatilishi mumkin. Bu toifadagi bolalarga xos xususiyat Artikulyasion yoki akustik belgilariga ko'ra farq qiladigant ovushlarning shakllanish jarayonining tugallanmaganligi bo'ladi. Bu xolda bola nutqida differensiasiyalanmagan tovushlar bo'lishi, tovushlarni almashtirish, nutqda ularni to'g'ri qo'llamaslik ko'plab tovushlarni buzib talaffuz qilish, shuningdeq tovushlarni eshitishga ko'ra etarli farqlamaslik kuzatiladi.

Shunday qilib, fonetik-fonematik rivojlanmaganlik guruhiga kiruvchi bolalarning og'zaki nutqida quyidagi talaffuz kamchiliklari kuzatiladi:

- a) tovushlarni artikulyasion jihatdan oson bo'lgan tovushlarga almashtirish;
- b) bir yoki bir nechta tovushni buzib talaffuz qilish;
- v) bir yoki bir nechta tovushning yo'qligi;

Fonematik idrokning buzilishi:

- a) fonemalarni o'z nutqi va boshkalar nutqidaaniq farqlamaslik (birinchi navbatda jarangli-jarangsiz, sirg'aluvchi-shovqinli, shovqinli-affrikat tovushlar);
- b) tovushlarni oddiy analiz va sintez qilishga tayyor emaslik;
- v) nutqning tovush tarkibini analiz qilishdagi qiyinchiliklar;

Ko'pincha tovushlarni noto'g'ri talaffuz va idrok qilish bilan birga ko'p bo'g'inli so'z va so'z birikmalarini talaffuz qilishda qiyinchiliklar kuzatiladi.

Logopedik-rivojlantiruvchi ishlariniig asosiy yo'nalishlari korreksion

maktabgacha tarbiya muassasalarida ta'limning nutq kamchiliklariga ega bo'lgan bolalarni tarbiyalash bolalar bog'chasi tarbiya dasturiga muvofiq tashkil qilinadi. Fonetik-fonematik nutq kamchiligiga ega bo'lgan besh yoshli bolalar dasturda ommaviy tipdagi maktabgacha tarbiya muassasalarning maktabga tayyorlov guruhlari mo'ljallangan bilim, ko'nikma va malakalar hajmini o'zlashtirishlari keraq

Fonetik-fonematik jihatdan rivojlanmagan bolalar guruxlariga olib kelingan bolalar 9 oy ichida umumtalim maktabida muvaffaqiyatli bilim olish uchun zarur bo'lgan asosiy topshiriqlar, ko'nikma va malakalar hajmini o'zlashtirib olishlari lozim.

Nutq faoliyatining ayrim tomonlarini rivojlantirishga qo'yiladigan talablarni aniqlash maksadida quyidagi maxsus ishlar amalga oshiriladi:

- talaffuz va fonematik idrokni shakllantirish;
- atrof-muhit bilan tanishtirish va nutq o'qitish.

Tuzatuvchi ta'limning maqsadi: bolalarda umumiy va nutq nuqsonini tuzatish hamda bolalarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus logopedik metod va usullarni qo'llash bilan bolaning yoshiga muvofiq lug'at boyligi va mustaqil nutq bilan birga to'g'ri, aniq ravon nutqni tarbiyalashdan iboratdir. Logopedik ish talaffuz malakalarini shakllantirish, fonematik idrokni, tovushlar analizi va sintezi malakalarini rivojlantirish yo'nalishlari bo'yicha olib boriladi. Tuzatilgan nutqiy material ustida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- bolalarda so'zning morfologik tarkibiga va so'zlarning o'zgarishiga e'tiborni jalb etish hamda so'zlarning gapda bog'lanishini rivojlantirish;

- bolalarda oddiy yoyiq va qo'shma gaplarni to'g'ri tuzish, nutqda turli konstruksiyadagi gaplarni egallash;

- ko'nikmalarini tarbiyalash;

- nutqni rivojlantirish;

- lug'atni boyitish;

- talaffuzni to'g'rilash asosida savodga tayyorlash.

Tarbiyachi olib boradigan mashg'ulotlarda bolalarning atrofdagi predmetlar va hodisalar haqidagi tasavvurlar hosil qilish va ularni tizimlashtirish, tabiiy va ijtimoiy hodisalar bilan tanishtirish bilan bir vaqtda bolalarning lug'at boyligi kengaytiriladi, so'zlashuv va tasviriy, hikoya nutqi rivojlantiriladi.

Shunday qilib, bolalar nutqi turli yo'llar bilan rivojlantirib boriladi, lekin bir maksadni -ta'lim va tarbiya berish jarayonida bolalarning nutqiy taraqqiyotidagi kamchiliklarini yo'qotish va uni maktabda ko'nikma va malakalar olishga tayyorlashni ko'zda tutadi.

Logopedik mashg'ulotlar quyidagi bo'limlardan iborat:

1. Talaffuz va fonematik idrokni shakllantirish va nutq o'qitish.
2. Savodga o'rgatish.

Tuzatuvchi ta'lim tizimi uchta izchil davrdan iborat, ularning har biri o'z maqsad va vazifalariga ega.

Ta'limning birinchi davrida (sentyabr-noyabr) frontal mashg'ulotlar faqat «Talaffuzni shakllantirish va nutq o'stirish» bo'limi bo'yicha o'tkaziladi (haftada 5 marta). Ta'limning ikkinchi davrida (dekabr-mart) savod tayyorlash haftasiga ikkita mashg'ulot, talaffuzni shakllantirish va nutq o'stirishga haftasiga 3 mashg'ulot ajratiladi. Ta'limning uchinchi davrida (aprel-iyun), ya'ni o'quv materialiga har qanday tovushni kirgizish mumkin bo'lgan davrda (bu vaqtda tovushlar talaffuzining qo'yilishi tugallangan bo'lishi lozim) haftada bir yoki ikkita mashg'ulot nutq o'stirishga, bir yoki ikkita mashg'ulot talaffuzni shakllantirishga ajratiladi. Iyun-avgust oylarida o'tilgan materialni mustahkamlash bo'yicha yakka tartibdagi tuzatish ishlari o'tkaziladi.

Mashg'ulotlar soni logoped tomonidan bolalar kontingentini va ularning harakatlanish dinamikasini hisobga olgan holda belgilanadi. Talaffuz va fonematik idrokni shakllantirish va nutq o'stirish Talaffuzni shakllantirish.

Bu bo'lim bo'yicha asosiy tuzatish ishlari quyidagilardan iborat:

- talaffuz jihatdan aniq farq qiladigan, bir- biriga qarama - qarshi qo'yiladigan fonemalarni shakllantirish;
- bo'g'inlar murakkabligiga ko'ra turlicha so'zlarni talaffuz qilishga o'rgatish; egallangan mustaqil nutq malakalaridan erkin foydalanishga o'rgatish;

Qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun birinchi navbatda maxsus logopedik usullar yordamida tovushlar talaffuzidagi nuqsonlar tuzatiladi va nutqda bor tovushlar aniqlashtiriladi. To'g'ri artikulyasiya malakalarini shakllantirish qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli xal qilishning asosiy shartlaridan biridir.

Fonematik idrokni va eshitish xotirasini rivojlantirishga maxsus vaqt ajratiladi: bolalar nutqni tinglashga, nutqning ayrim tovush elementlarini farqlash va esga tushirishga, eshitib idrok qilingan materialni eslab qolishga, o'zlarining va boshqalar nutqining jaranglashini taqqoslashga o'rganadilar.

Artikulyasion malakalar va fonematik idrokni rivojlantirish nutqning tovush tarkibini analiz va sintez qilishni rivojlantirish bilan bir vaqtda olib boriladi. So'zning tovush tarkibini analiz va sintez qilishni ko'zda tutuvchi mashqlar fonemalar tuzish jarayonini normallashtirishga yordam beradi va bolalarni savodni o'zlashtirishga tayyorlaydi.

Tuzatuvchi ta'limning barcha davrlarida tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni mustahkamlash diksiyani rivojlantirish, tovush tarkibiga ko'ra murakkab so'zlarni talaffuz qilishdagi qiyinchiliklarni bartaraf qilish ishi bilan qo'shib olib boriladi.

O'rganilayotgan tovushlarni va tovush-bo'rin tarkibiga ko'ra turlicha so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishni mustahkamlash bosqichida tuzatuvchi mashqlar materiali nutqning leksik va grammatik birliklarini bir vaqtda rivojlantirishni nazarda tutgan xolda tanlanadi.

Talaffuzni shakllantirish ishi yakka tartibdagi (guruhli va frontal)

mashg'ulotlarda amalga oshiriladi. Bo'lim bo'yicha tuzatuvchi ta'limning vazifalari bolalarda til doirasida kuzatish va umumlashtirish qobiliyatini rivojlantirish, o'zlashtirilgan leksik va grammatik materialni bog'langan nutqning turli ko'rinishlarida amaliy qo'llash malakasini kengaytirishdan iboratdir.

Leksik-grammatik mashqlar bolalar tomonidan to'g'ri talaffuz qilinadigan material asosida o'tkaziladi, bu materialning tovush tarkibiga mustahkamlash bosqichidagi to'g'rilangan tovushlar kiradi. So'zning asosiy qismini eshitish, ajratish va to'g'ri talaffuz qila bilish tilni kuzatishni rivojlantiradi, keyinchalik nutqni mustaqil takomillashtirish uchun sharoit yaratadi.

Bolalar lug'atini boyitish va aniqlashtirish bo'yicha asosiy ishni tarbiyachi olib boradi. Nutq o'stirish bo'yicha ishni logoped davom ettiradi va faoliyatini chuqurlashtirib boradi, bunda u o'z oldiga quyidagi:

- bolalar lug'atini kengaytirish;
 - ularning diqqatini so'zlarning ma'nosiga va so'z tuzishning ba'zi usullariga jalb etish;
 - bor lug'atini tahlil qilish kabi vazifalarni qo'yadi.
- Eshituv diqqatini rivojlantirish.

“K” TOVUSHINI NUTQQA KIRITISH YO'LLARI

Bolalar nutqidagi tovushlar talaffuzining buzilishi tovushlarning nutqda yo'qligi, ularni buzib talaffuz etish va bir-biri bilan almashtirish hollari bilan namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham “arra” so'zi o'rniga “ayya”, “lagan” so'zi o'rniga “agan”, “sumka” so'zi o'rniga “fumka”, “sholg'om” so'zi o'rniga, “solg'om”, “choynak” so'zi o'rniga “toynak”, “kabutar” so'zi o'rniga “abutar”, “gul” so'zi o'rniga “dul” deb noto'g'ri talaffuz etish hollari ko'plab uchray turadi. Ayniqsa til orqa va chuqur til orqa tovushlaridan “K” tovushini to'g'ri talaffuz qila olmaslik ko'p kuzatiladi. Bolalar nutqidagi bu nuqson kappatsizm deb ataladi. Boladagi bu nuqsonni o'z vaqtida bartaraf etishdan avval ularning nutq apparati – lab, til, tishlar tuzilishi va jag'lar harakatchanligi holati tekshirib ko'riladi. So'ngra tovushlarni talaffuz etish holatlari tekshirilib, bola talaffuz etolmagan tovushlar aniqlanadi. Shuningdek, bolani ko'rish darajasi va eshitish holati ham o'rganiladi. Mavjud kamchiliklar ma'lum bo'lgach, u bilan olib boriladigan mashg'ulot rejasi tuziladi. Har qanday nutq nuqsonni bartaraf qilish artikulyatsiya mashqlaridan boshlansa maqsadga muvofiqdir. Negaki tovushlarning to'g'ri talaffuz qilinishi artikulyatsiyaning harakatchanligiga bog'liq. Shuning uchun ham birinchi mashg'ulotni artikulyatsion mashqlardan boshlaymiz.

Lab mashqlari. Yuqori labni “tarash” mashqida lab imkoni boricha ikki yonga tortilgan holda ichkariga qaytariladi, jag' biroz oldinga harakat qilib pastki tishlar qatori bilan yuqoriga “taray” boshlanadi, so'ngra labni og'iz atrofida o'ng va chap tomonga 10 martadan aylantirib yalash kerak, bu mashqlar bir necha marta takrorlanadi.

Til mashqlari. Tilni aylantirish mashqida lablar yumuq holda bo`lib, til uchi tishlar bo`ylab avval bir tomonga, so`ngra qarama-qarshi tomonga harakat qildiriladi. Bu mashqda tishni tozalash holati bajariladi. Tilni tishlash mashqida tilni tepa va pastki tishlar orasiga olib, uni bir necha bor tishlanadi.

Jag' mashqlari. Jag'ni oldinga harakat qildirish mashqida jag' biroz pastga tushirilib oldinga va orqaga qarab harakat qildiriladi. Jag'ni ikki yonga harakat qildirish mashqida yuqoridagi mashq holatida jag'ni ikki yonga shoshilmay harakat qildirish lozim. Mashq bir necha marta takrorlanadi.

Endi bolada “K” tovushining to`g`ri artikulyatsiya profili bilan tanishtiramiz.

Tilning orqa qismi yumshoq tanglay tomon yoysimon shaklda ko`tarilib, pastki tishlarga tegib turadi. Qattiq tanglay bilan tilning o`rta qismi orasidagi masofa torayadi. Shu masofadan siqilib, kuch bilan yorib chiqqan havo “K” undosh tovushini hosil qiladi.

Biz bolaning nutqida yo`q “K” tovushini hosil qilishda bolaga “ta-ta-ta” bo`g`inini aytishni taklif etamiz, shu vaqtning o`zida maxsus zont yordamida tilning uchi bosilib, orqaga biroz itariladi. Bunda logopedik zont va shpateldan foydalaniladi. Bordiyu logopedik zont va shpatel bo`lmagan vaqtda gigienaga rioya qilgan holda qo`l barmoqlari yoki paxta o`ralgan gugurt cho`pidan foydalanish mumkin.

Shpatel yordamida “K” tovushini nutqqa kiritish usuli

Bunda til orqa tomonga surilgan sari “ka-ka-ka” bo`g`ini eshitiladi. “K” tovushi artikulyatsiyasi aniq hosil bo`lgandan so`ng mexanik vositalar yordamisiz “K” tovushini talaffuz etish tavsiya qilinadi va u bo`g`in, so`z, gaplar va she`rlar aytirish yordamida mustahkamlab boriladi. “K” tovushining aniq va to`g`ri talaffuzi hosil bo`lganidan so`ng “K” tovushi ishtirok etgan bo`g`inlar talaffuz ettiriladi.

“K” tovushi ishtirok etgan so`zlarni to`g`ri talaffuz etishga o`rgatish

Kir karam kamalak

Ko`z ko-la ka-ma-lak

Ko`r ko`rik kapalak

ka-pa-lak

Ko`za, kurtka, karam, maktab, choynak, kurtak, kapkir, ipak, kuchuk va hokazo.

Quyidagi savollarga javob bering:

1. Qaysi qizning ismida “K” tovushi bor?
2. Qaysi parrandaning nomida “K” tovushi bor?
3. Qaysi hayvon nomida “K” tovushi bor?
4. Qaysi idishning nomida “K” tovushi bor?
5. Qaysi kiyimning nomida “K” tovushi bor?
6. Qaysi sabzavotning nomida “K” tovushi bor?

Tikuvchi nima tikadi?

Darsga kirish uchun nima chalinadi?

Un nimada elanadi?

Tez aytish

Ariq labida besh terak,

Besh terakka suv kerak.

To`p-to`p ko`k koptok,

Har to`p ko`k koptokda

Bittadan katta ko`k koptok.

“K” tovushi ishtirok etgan gaplarni to`g`ri takrorlash orqali mustahkamlash

Kungaboqar ajoyib o`simlik.

Kunga boqar quyosh harakati bo`ylab harakat qiladi. Shuning uchun uni kungaboqar, kungaboqar, kun bo`lmasa kimga boqar, deyishadi.

“Nima qanday qichqiradi?”

degan hikoya orqali “K” tovushining to`g`ri talaffuzini aniqlash. Bu mashg`ulotning maqsadi – tovushlarga taqlid qilish orqali “K” tovushini aniq va to`g`ri talaffuz etish. Mashg`ulotga ovoz chiqaradigan o`yinchoqlarni (tovuq, xo`roz, kakku, qurbaqa) va boshqa o`yinchoqlar tayyorlab qo`yiladi. Bunda bolalarga qarata shunday deyiladi. Bolalar, esingizdami, biz sizlar bilan hayvonot bog`iga sayrga borgan edik. Yo`lda borayotganimizda, katta poliz yonidan chiqib qoldik. Sizlar chumchuqlarni qanday haydab yuborgan edingizlar? (“Kish-kish”).

Biz hayvonot bog`iga etib bordik. U er juda ham chiroyli edi. Birdaniga kakku sayray boshladi: “Ku-ku, ku-ku, ku-ku”.

Kakku qanday sayraydi? (“Ku-ku, ku-ku, ku-ku”).

Biz hayvonot bog`ida uy va yovvoyi hayvonlar bilan tanishdik. Qaytishda anhor bo`yidan o`tdik u erda qurbaqaning “kva-kva-kva” degan ovozini eshitdik.

Qurbaqa qanday qurillar ekan? (“Kva-kva”).

So`ngra bolalardan predmetli rasmlar orasidan kakku va qurbaqa rasmini topib ko`rsatishlari so`raladi.

Shuni unutmaslik lozimki, agar bog`cha yoshdagi bola bilan 1-2 yil muntazam ravishda individual va frontal (chuqur) ish olib borilsa, ammo uning nutqida hech qanday o`zgarish bo`lmasa, tovushlarni noto`g`ri talaffuz etsa, unda buning sabablarini aniqlash uchun logoped (mutaxassis)ga murojaat etish lozim.

AMALIY MASHG 'ULOTLAR UCHUN KEYSLAR BANKI

1-topshiriq

Berilgan vaziyatni taxlil qiling va topshiriqni bajaring. Logopedik guruxdagi NTRning 3 darajasidagi bolalar hujjatlarini o'rganish vaqtida logoped bolalarning asosiy qismida nutqning leksik tomonida quyidagi kamchiliklar mavjudligini belgiladi: leksik almashtirishlar (plash-palto, dush-cho'milishi, in-qushning uyi, choynak-issiq, yoqa, yeng – kuylak, bog'lovchi ip – bog'laydigan, shlyapa – shapka; kreslo, taburet – stul, moychechak, qo'ng'iroqcha, atirgul – gul, tor-tor emas, kalta- kichik, uzun, keng - katta va xokazo).

Savol:

1. Almashtirishlarning turining aniqlang.
2. Bu kamchilikni korreksiyalash uchun topshiriqlar va mashqlardan namunalar keltiring.

2-topshiriq

Berilgan vaziyatni taxlil qiling va topshiriqni bajaring.

Logopedik guruxdagi NTRning 3 darajasidagi bolalar hujjatlarini o'rganish vaqtida logoped bolalarning asosiy qismida nutqning leksik- grammatik tomonida quyidagi kamchiliklar mavjudligini belgiladi: agrammatizmlar, gapda so'zlarning bog'lanishining buzilganligi: bola maktab ketdi, samolyot dala uchib o'tmoqda"; "koptok stol yotibdi, Saida maktab... keldi)

Savol:

1. Kamchilikarning xarakterini aniqlang.
2. Bu kamchiliklarni korreksiyalash uchun mashq va topshiriqlardan namunalar keltiring.

3-topshiriq

Logopedik guruxdagi NTRning 3 darajasidagi bolalar hujjatlarini o'rganish vaqtida logoped bolalarning asosiy qismida nutqning leksik- grammatik tomonida quyidagi kamchiliklar mavjudligini belgiladi: Samolyot o'rmon uchib o'tmoqda"; "Koptok stol yotibdi"); Samolyot dala uchib o'tmoqda"; "Koptok stol yotibdi").

1. Kamchilikarning xarakterini aniqlang.
2. Bu kamchiliklarni korreksiyalash uchun mashq va topshiriqlardan namunalar keltiring.

4-topshiriq

Berilgan nutq xaritasini taxlil qiling va quyidagi topshiriqni bajaring.

Logopedik xulosa chiqaring va uni asoslang.

Logopedik guruxda NTRning 1 darajasidagi 3-4 yoshli bolalar tarbiyalanyapti.

Savol:

1. NTRning 1 darajasidagi bolalarda nutqni faollashtirishga qaratilgan 5ta ish usulini yoriting.
2. Logopedik gurux tarbiyachilari uchun sayr vaqtida tarbiyalanuvchilarning passiv lug'atini rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar bering.

5-topshiriq

Berilgan vaziyatni taxlil qiling va topshiriqni bajaring.

3 yoshu 10 oylik qizning logopedik xulosasi NTR 2 daraja.

Tekshirishda quyidagilar aniqlandi: lug'ati kambag'al, jumla tuza oladi, yaqqol ifodalangan grammatik qurilishning kamchiliklari mavjud, talaffuzda sirg'alovchi, shovqinli, sonor tovushlar buzilgan.

Psixomotor rivojdanish: me'yorda..

Nutqning paydo bo'lishi: gugulash - 2 oylikda, guvrash -10 oylikdan, so'zlar – 1 yoshu 2 oylikdan, jumla – 2yoshu 4 oylikdan, bog'langan nutq -3 yoshu 2 oylikdan.

1 yoshu 9 oylikda qizchaga nutqning rivojlanishi sustlashishi tashxisi qo'yilgan. Qizchada buyraklarning surunkali kasalligi kuzatiladi, somatik jihatdan nimjon. Ko'pincha negativizm reaksiyasi kuzatiladi, topshiriqlarni bajarish yoki javob berishdan bosh tortadi.

Savol:

1. Logopedik xulosaning asosli ekanligini baxolang.
2. Ushbu bolada nutqning rivojlanishdagi imkoniyatini (prognozini) aniqlang.

6 -topshiriq

Berilgan vaziyatni taxlil qiling va topshiriqni bajaring.

6 yoshli NTR chapaqay bolani kuzatish jarayonida, uning ijodiy ishlarini o'rganishda quyidagilar aniqlandi: ko'chirib chizishda va yopishtirishda (applikatsiya qilishda) –predmetlarni o'yvavand tarzda ifodalashi, rasmlarni chetlarini chizish va shtrixovka qilishda konturdan tashqariga chiqib ketishi, ko'chirib chizishda uning hajmini juda kichraytirishi, ketma-ketligiga e'tibor qaratmasligi, eslab qolib chizishda rasmning ko'p qismlarini tushirib qoldirishi, kuzatildi, rasm chizishni yoqtirmaydi, rasmda masalan 5ta farqlarni topish vazifasi berilsa, ularning yarmini topadi, tez charchab qoladi, tez chalg'iydi, topshiriqqa bo'lgan qiziqishi tez yo'qoladi.

Savol:

1. Keyinchalik bu simptomlar qanday nutq kamchiligini yuzaga

keltirishi mumkin, yozma nutqda yo‘l qo‘yishi mumkin bo‘lgan xatolar guruxini ko‘rsatib bering.

2. Optik xatolarni oldini olish va ularni bartaraf etishga qaratilgan metodik qo‘llanmalardan misollar keltiring, topshiriqlarning maqsad va vazifalarini izoxlang.

7-topshiriq

Berilgan vaziyatni taxlil qiling va topshiriqni bajaring.

Bolada tovushlar talaffuzining poliforf buzilishi kuzatiladi:

sirg‘aluvchi tovushlarning tisharo talaffuzi, tovushlarni bir-biriga almashtirish s-sh, ch-t, r tovushini tashlab ketish.

Savol:

1. Tibbiy-pedagogik tasnif bo‘yicha nutq nuqsonining izoxlang.
2. Qaysi mezonlar asosida tovushlar talaffuzini differensial tashxis qilishni ko‘rsating.

8-topshiriq

Quyidagi vaziyatni hal qilish bo‘yicha logopedning harakatlarini izoxlang.

Logoped katta guruxda tarbiyalanayotgan talaffuzida kamchiliklari bo‘lgan bolaga e’tiborini qaratdi va uning onasiga bola bilan logopedik mashg‘ulotlar o‘tish lozimligi haqida tavsiya berdi. Bolaning onasi bunga e’tiroz bildirdi va farzandini diktir bo‘lishga tayyorlamayotganligini aytdi.

9 topshiriq

Berilgan vaziyatni taxlil qiling va logopedik xulosa qiling.

Qosimova Muyassar, 4 yosh. chizishda rasmning ko‘p qismlarini tushirib qoldirishi, kuzatildi, rasm chizishni yoqtirmaydi, rasmdamasalan 5ta farqlarni topish vazifasi berilsa, ularning yarmini topadi, tez charchab qoladi, tez chalg‘iydi, topshiriqqa bo‘lgan qiziqishi tez yo‘qoladi.

Xarakteri tinch. Shovqinga ahamiyat beradi. Ismini biladi. Kuzatuvi qisqa vaqtli. Gaplashganda quloq soladi. So‘zlashuvchiga bir necha soniya qarab turadi. Gapirmaydi, unli tovushlar chiqaradi. O‘z-o‘ziga xizmat qila olmaydi. Chaynamay yutadi. Predmetlarni qo‘lida ushlay olmaydi.

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Tinglovchi mustaqil ishni muayyan modulni xususiyatlarini hisobga olgan xolda quyidagi shakllardan foydalanib tayyorlashi tavsiya etiladi:

- me'yoriy xujjatlardan, o'quv va ilmiy adabiyotlardan foydalanish asosida modul mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha modul mavzulari ustida ishlash;
- tinglovchining kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan modul mavzularni chuqur o'rganish.

Mustaqil ta'lim mavzulari

1. “2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2707-sonli Qaror mazmun-mohiyati.

2. Prezident Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida maktabgacha ta'lim tizimi bo'yicha g'oyalari.

3. Nutqida og'ir nuqsonga ega bo'lgan bolalar diqqati va idrokining o'ziga xos xususiyatlarini yoritib bering.

4. Og'ir nutq nuqsoniga ega va nutqi me'yorida rivojlanayotgan bolalar nutqiy rivojlanishini tavsiflab bering.

5. Bolaning aqliy rivojlanishini yoritadigan ko'rsatgichlarni aniqlang.

6. TPPKning ishining mazmuni va uni tashkil etish.

7. TPPKning Nizomlari va tushuntirish xatlari bilan tanishing, tahlil qiling.

8. Bolaning erkin mavzuga doir chizgan rasmlarini taxlil qilish (rasmda namoyon bo'ladigan shaxs xususiyatlarini aniqlash).

9. Maktabgacha yoshidagi bolalarni psixologik-pedagogik tashxis qilish metodlari.

10. Maktabgacha yoshidagi bolalarni psixologik-pedagogik tekshirish uchun materiallar tayyorlash (tekshirish albomlari, ko'rgazmali qurollar).

11. Tekshirish jarayonida bolaning hissiy-irodaviy doirasini tavsiflab berish. Xulosalarni kuzatishdagi dalillar bilan isbotlash.

12. Bolani tekshirish bayonnomasi asosida uning diqqat, idrok, xotira, tafakkur va nutqining xususiyatlarini taxlil qilish.

GLOSSARIY		
	abilitatsiya	Bola yoki katta kishida rivojlanishdan keskin ravishda orqada qolgan yoki mavjud bo'lmagan ruhiy va jismoniy funksiyalarni, ko'nikmalarni rivojlantirish hamda shakllantirish
	Psixodiagnostika	Shaxs va psixika rivojlanishining potensial xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan muolaja.
	Individual ta'lim rejasi	Individual ta'lim dasturi bolaning imkoniyati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda mutaxassislar komandasi bilan ishlab chiqiladi (umumta'lim maktab pedagoglari, maxsus, ijtimoiy ishchi, psixolog, ota-onalar) ITRning asosiy maqsadi bola rivojlanishi va ta'lim olishi uchun optimal sharoitlarni yaratishdir. ITDning mazmuni boshqa bolalar o'tayotgan dasturdan ozgina farq qilishi mumkin, lekin boshqa bolalar o'rganayotgan predmetlar asosida ishlab chiqiladi. ITR aniq maqsad va vazifalar, muddati, qo'llaniladigan usullar va baholash tizimiga ega. Bola umumta'lim standartlari asosida dasturlarni o'zlashtira olmagan holatda unga ma'lumotnoma yoki maxsus shakldagi guvohnoma beriladi.
	korrektsiya	Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni yumshatish, bartaraf etish
	anamnez	Shaxsni rivojlanishi va kasalliklari hamda tibbiy ko'rikdan o'tganligi haqidagi ma'lumotlar yig'indisi nisbiy miqdor va tarkibiy sifati; muayyan rganizmlarning tarqalganligi. Irsiy belgilarni o'rganish va aniqlash inson genetikasi, jonivorlar hamda o'simliklar genetikasi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Xozirgi vaqtda genofondni saqlash muammosi dunyoning ko'pgina mamlakatlari uchun dolzarb muammoga aylangan
	reabilitatsiya	Bemorlik, baxtsiz hodisa yoki boshqa sabablar oqibatida yo'qotilgan ruhiy yoki jismoniy funksiyalar, ko'nikmalarni tiklash
	Ilk aralashuv	Turli mutaxassislar komandasi tomonidan bolaga rivojlanishdan orqada qolganida yoki boshqa muammolari

		bo'lganida ularni bartaraf etish yoki eng kam darajaga tushirish uchun yordam ko'rsatiladi (pedagog, maxsus pedagog, logoped, ijtimoiy ishchi, psixolog, jismoniy terapevt, ota-ona va boshqalar). Nogironlik bilan bola ug'ilganidan so'ng bola va uning oilasiga darhol yoki vaqtli kompleks, ya'ni psixologik, pedagogik, ijtimoiy yordam ko'rsatish.
	Yosh guruhi	Yosh belgisiga ko'ra birlashtiriladigan kishilarning biron bir shartli katta guruhi. Yoshni davrlashtirishga muvofiq MTMda bolalarning yoshiga ko'ra ana'naviy ajratiladigan guruhlar: yasli yoshdagi bolalar guruhi, birinchi kichik yoshdagi bolalar guruhi, ikkinchi kichik yoshdagi bolalar guruhi, katta bolalar guruhi va maktabga tayyorlov guruhi.
	Noverbal muloqot	Tana holati, ishoralar, yuz ifodasi, ovozi ohangi, ko'z aloqasi, munosabatlardagi masofa, atrof omillari va sharoitlari, aniqlik, ishonchlilik kabilarni o'z ichiga oluvchi nutqsiz muloqot. Noverbal muloqot sezgi, emotsiya va munosabatlarni yetkazadi. U verbal muloqotdan ko'ra ko'proq natija berishi mumkin va ko'pincha mijoz nimalarni his qilayotganligini yaxshiroq ko'rsatib beradi.
	Impressive nutq	Ichki nutq, nutqni tushunish
	Ekspressiv nutq	Tashqi nutq, faol nutq

FOYDALANILGAN MAXSUS ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Apeeva L.A. «Metodicheskie rekomendatsii i pourochnye razrabotki po obucheniyu, chteniyu i razvitiu rechi detey doshkolnogo vozrasta». Toshkent, 2000 g
2. «Defektologicheskii slovar».- M. Vlad.2001 g.
3. Zayseva G.L. «Jestovaya rech». «Daktilologiya». M., 2000 g.
4. «Новые подходы i puti obucheniya, vospitaniya, korreksii i integratsii detey s problemami v razviti». - Bishkek, 1998 g.
5. Rechinskaya «Doshkolnaya surdopedagogika». M., 2001 g. Ye.G.
6. Logopediya (pod. red. L.S.Volkovoy) - M., 1989.
7. Muminova L.R., Ayupova M. «Logopediya» T. 1993 y.
8. Logopedicheskaya ritmika (uchebno-metodicheskoe posobie dlya logopedov spes.det. sadov) Toshkent – 2006.E. N. Nazarova, Sh. BoltaevaD. Nurkeldieva
9. K.Mamedov, G.Berdiev, SH.Xoliqova. Maxsus psixologiya ma'ruzalar matni. Toshkent, 2001.
- 10.«Defektologiya» jurnallarining barcha sonlari.
- 11.“Maktab va hayot” jurnali
- 12.Shomaxmudova R.Sh., Mo`minova L.R. «Bog`cha va kichik maktab yoshidagi bolalar talaffuzidagi nuqsonlarni tuzatish». T., 1981 y.
- 13.Ayupova M. «Korreksion ishlar metodikasi. (ma'ruzalar matni)». T 2005 y.
- 14.Kozlov M.Ya., Levin A.L. «Detskaya surdoaudiologiya». Leningrad “Medicina”, 1989 g.
- 15.Rau F.F., Beltyukov V.I.i dr. «Metodika obucheniya gluxix ustnoy rechi». M. “Prosveteniye” 1976 g.
- 16.Shoabduraxmonov Sh., M.Askarova, A.Xojieva va boshqa. «Hozirgi o`zbek adabiy tili». Toshkent, O`qituvchi, 1980 y.
- 17.Islombekova Z.. «Talaffuzga o`rgatish va eshitish qobiliyatini rivojlantirish metodikasi» (Ma'ruzalar matni) T.: 2001 y.